

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 336.7

AKRAMOV SARDOR ZAXIDOVICH

**ANGREN ERKIN IQTISODIY HUDUDIDA INVESTITSIYA
LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI**

Mutaxassislik: 5A230603 - «Investitsiyalarni boshqarish
(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)»

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: G'ozibekov D.G'.

TOSHKENT-2015

Dissertatsiya Toshkent moliya instituti «Baholash ishi va investitsiyalar» kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar:

i.f.d., professor D.G'ozibekov

Kafedra mudiri:

i.f.n., dotsent L.Zoyirov

Magistratura bo'limi boshlig'i:

i.f.n., dotsent U.Ortiqov

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
 I BOB. ERKIN IQTISODIY HUDUDLARGA INVESTITSİYALAR JALB QILISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	 9
1.1. Erkin iqtisodiy hududlarning mazmun-mohiyati, vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari.....	9
1.2. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalar jalb qilishning tashkiliy-huquqiy asoslari.....	17
1.3. Iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilishda Angren erkin iqtisodiy hududining o'rni va ahamiyati.....	24
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	32
 II BOB. ANGREN ERKIN IQTISODIY HUDUDIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	 34
2.1. O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi va ularning faoliyati tahlili.....	34
2.2. Angren erkin iqtisodiy hududida amal qiluvchi imtiyozlar va rag'batlantirish omillari tahlili.....	45
2.3. Angren erkin iqtisodiy hududida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining amaldagi holati tahlili.....	56
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	65
 III BOB. ANGREN ERKIN IQTISODIY HUDUDIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	 67
3.1. Erkin iqtisodiy hududlarga investorlarni jalb qilishdagi o'ziga xos muammolar.....	67
3.2. Angren erkin iqtisodiy hududida investitsiya loyihalarini amalga oshirish istiqbollari.....	76
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	84
 XULOSA.....	 86
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	91
ILOVALAR.....	98

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Ma'lumki, har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror va izchil o'sishi uning raqobatbardoshligi bilan bog'liqdir. Faqat shu yo'lgina mamlakatning rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashini ta'minlay oladi.

Bugun iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash, shu orqali jahon standartlariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishga erishish xorijiy sarmoyalarni, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish har qanday mamlakat uchun eng dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan masaladir. Albatta, bunday vazifalarni amalga oshirishda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) yoki erkin iqtisodiy hududlar (EIH) muhim o'rin tutadi. Bu esa innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, eksport, shuningdek transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish, mahalliy mahsulot va xizmatlarning ichki va tashqi bozorlarda xalqaro sifat, sertifikatlashtirish talablarini joriy etish orqali raqobatdoshligini oshirish, yangi ish joylarini barpo etish, malakali ishchi-muhandislar, xo'jalik va boshqaruv kadrlarini tayyorlash va ular malakasini oshirish kabi bir qator muhim masalalarni ijobiy hal etish imkonini beradi.

Darhaqiqat, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda asosiy e'tibor mamlakat hududlarining tabiiy resurslari hamda industrial salohiyatidan foydalanish samarasini yuksaltirish va oxir-oqibat eksport tizimini kuchaytirishga qaratilmog'i lozim. Aynan shu yo'nalishda jahon tajribasida keng qo'llanilayotgan va o'z samarasini berayotgan bir qator vositalar mavjud. Pul-kredit va soliq siyosatida imtiyozlarni joriy qilish, davlatning industrial siyosatiga mos ravishda sarmoya kiritayotgan investorlarga ma'lum bir imtiyozlar «paketi»ni taqdim etish va ular uchun zarur bo'lgan infratuzilmaviy sharoit hamda qulayliklarni yaratish ana shunday vositalar sirasiga kiradi. Ularning barchasi «Erkin iqtisodiy zonalar» deb ataluvchi ma'muriy-iqtisodiy tuzilmalarda mujassamdir.

EIZlarning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati yuqorligini inobatga olib, Yurtboshimiz: «Investorlarga keng soliq imtiyozlari va preferentsiyalar berilgan «Angren» maxsus industrial zonasi, «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi, «Jizzax» maxsus industrial zonasining tashkil etilgani yuqori texnologiyalarga asoslangan korxonalarni rivojlantirish imkonini kengaytirdi. Ushbu zonalar uchun zarur tashqi muhandislik va transport infratuzilmasi to'liq respublikamiz mablag'lari hisobidan barpo etilmoqda»¹, deb ta'kidlagan edilar. Albatta, «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi (EIIZ), «Angren» maxsus industrial zonasi (MIZ) va «Jizzax» maxsus industrial zonasi (MIZ) bugungi kunda mamlakatimizning ishlab chiqarish salohiyatini modernizatsiya qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda alohida o'rin egallamoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan EIHLar, xususan, Angren MIZsining maqsadga muvofiq rivojlanishi, eng avvalo, ushbu hududga milliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirishda muhim o'rin tutadi. Milliy iqtisodiyotning yangi sifat holatiga erishuvi uchun iqtisodiy siyosat sohasida yangi mezonlar va maqsadlar joriy etilishi talab qilinadi. Faqat erishilgan yutuqlarni shunchaki mustahkamlash emas, balki iqtisodiy o'sishning yangi sifatini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi. Ana shunday jihatlardan biri, fikrimizcha, mamlakat hududlarining investitsiya salohiyatini tahlil qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish natijasida erishiladigan samaralarga, jumladan, xorijdan zamonaviy texnika-texnologiyalar olib kirish va ularni o'zlashtirish, boshqaruv tajribalarini o'zlashtirish, yangi ish joylarini yaratish hamda innovatsiya loyihalarini o'zlashtirish hisoblanadi. Demak, hududlar iqtisodiyotining rivoji investitsiyalarni qay darajada jalb qilish va ulardan qanchalik samarali foydalanish darajasiga bog'liqdir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi: 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir // «Xalq so'zi» gazetasi, 2015 yil 17 yanvar, №11. 1-b.

Alohida hudud iqtisodiyotini rivojlantirishining samarali yo'llaridan biri bu shu hududda EIZni tashkil etishdir. Angren MIZsiga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, nafaqat, ilmiy balki amaliy ahamiyat kasb etuvchi dolzarb vazifa bo'lib, ushbu holat magistrlik dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Tadqiqot ob'ekti sifatida Angren EIHda investitsiya loyihalarini amalga oshirish faoliyati tanlangan. Tadqiqot predmetini Angren EIH investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Angren EIHda investitsiya loyihalarini amalga oshirish va rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dissertatsiyaning bosh maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan:

- EIHlarning mazmun-mohiyati, vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlarini yoritish;
- O'zbekistonda EIHlarga investitsiyalar jalb qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini tizimli o'rganish;
- iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilishda Angren MIZsining o'rni va ahamiyatini ochib berish, EIHlarni tashkil etish zarurligini asoslash;
- O'zbekiston Respublikasida EIZlarning tashkil etilishini va ularning faoliyatini tadqiq etish;
- Angren MIZsida amal qiluvchi imtiyozlar va rag'batlantirish omillarini tahlil qilish;
- Angren MIZsida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining amaldagi holatini tahlil qilish;
- EIHlarga investorlarni jalb qilishdagi o'ziga xos muammolarni aniqlash;
- Angren MIZsida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va rivojlantirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- EIHlarning mazmun-mohiyati, vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari o'rganilgan hamda EIH mazmuniga o'zgacha ta'rif berilgan;
- EIHlardagi imtiyozlar, kafolatlar va rag'batlantirish omillari tavsiflangan va tasniflangan;
- Angren hududida MIZning tashkil etilish sabablari asoslangan va uning hudud iqtisodiyoti taraqqiyotidagi roliga baho berilgan;
- Angren MIZsiga investitsiya kiritishning ustuvorligi aniqlangan va tavsiflangan;
- O'zbekiston Respublikasida EIZlarning tashkil etilishi va ularning faoliyati tahlili asosida muhim amaliy ahamiyatga doir ilmiy xulosalar shakllantirilgan;
- EIZlarda jalb qilingan investitsiyalar dinamikasi tadqiq etilgan va shu asosda zarur tavsiyalar berilgan;
- respublikada EIZ tashkil etish va rivojlantirishda ularni shakllantirishdagi zarur shart-sharoitlar aniqlashtirilgan;
- O'zbekistonda transport infratuzilmasini yanada yaxshilash va rivojlantirish uchun kelajakdagi istiqbolli yo'nalishlar aniqlangan;
- Angren MIZsi qatnashchilariga berilgan imtiyozlar va rag'batlantirish omillari tahlil qilingan, tavsiflangan va tasniflangan;
- Angren MIZsi hududida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining amaldagi holati tahlili natijasida unga oid tendentsiyalar aniqlangan;
- O'zbekistonda EIHlarga investorlarni jalb qilishdagi o'ziga xos muammolar tavsiflangan va uning sabablari aniqlangan;
- Angren MIZ hududida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi Angren maxsus industrial zonasi taraqqiyotiga hamda Angren h hududining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Qayd etish joizki, Angren MIZ hududida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va rivojlantirish istiqbollari bag'ishlangan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan. Biroq, mamlakatimizda EIZlarni tashkil etish va ular faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator ilmiy ishlar bajarilgan. Bular jumlasiga A.V.Vaxabov², Sh.X.Xajibakiev, N.G.Muminov, D.G'.G'ozibekov³, E.I.Nosirov⁴, M.A.Raimjonova⁵, B.S.Mamatov⁶, D.Yu.Xo'jamqulov, O.Sh.Nurbekovlarning ilmiy ishlarini kiritish mumkin.

Xorijlik iqtisodchi-olimlardan T.Данько⁷, З.Округ, Я.С.Друзик⁸, Л.А.Зубченко⁹, Р.И.Зименков¹⁰, В.В.Комаров¹¹, Н.Н.Ливенцев¹², С.А.Шаропов¹³ ilmiy ishlarida EIZlarning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, turlari, jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni, iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati kabilar tadqiq etilgan.

Mazkur dissertatsiya ishida, yuqoridagi tadqiqot ishlaridan farqli o'laroq, O'zbekistonda tashkil etilgan Angren MIZsi faoliyati tadqiq etilgan va zona faoliyati taraqqiyotini ta'minlash yo'llari asoslangan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqotni amalga oshirishda tizimli yondashuv, guruhlash, qiyosiy, iqtisodiy tahlil va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

² Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Moliya», 2010. – 328 b.

³ G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – Toshkent: «Moliya», 2003. – 332 b.

⁴ G'ozibekov D.G', E.I.Nosirov. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2007. – 92 b.

⁵ Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – Toshkent: «Extremum press», 2013. – 176 b.

⁶ Mamatov B.S., D.Yu.Xo'jamqulov, O.Sh.Sobirov. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2014. – 608 b.

⁷ Данько Т., Округ З. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве: Учеб.пособие //Российская экономическая академия им. Г.В.Плеханова. – Москва: «ИНФРА-М», 1998. – 168 с

⁸ Друзик Я.С. Свободные экономические зоны в системе мирового хозяйства: Учеб.пособие. – Минск: «ФУАинформ», 2000. – 368 с.

⁹ Зубченко Л.А. Иностранные инвестиции: Учебное пособие. – Москва: «Книгодел», 2006. – 160 с.

¹⁰ Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – Москва: «Юнити-Дана», 2005. – 223 с.

¹¹ Комаров В.В. Зоны свободной торговли: крат. слов. – Москва: «Финансы и статистика», 2004. – 156 с.

¹² Ливенцев Н.Н. Международное движение капитала: (инвестиционная политика зарубежных стран): учеб. для вуз. – Москва: «Экономистъ», 2004. – 367 с.

¹³ Шаропов С.А. Свободные экономические зоны. – Москва: «ЮНИТИ-ДАНА», 2005. – 167 с.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining nazariy ahamiyati olib borilgan izlanishlar natijasida shakllantirilgan ilmiy-nazariy g'oyalar va xulosalar O'zbekistonda EIHni tashkil etish orqali investitsion faollikni oshirish, Angren MIZsiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga bag'ishlangan istiqbolda amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalardan EIHlarni tashkil etish va rivojlantirishning maqsadli dasturlari hamda alohida mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Dissertatsiyadan oliy o'quv yurtlarida «Korporativ moliya va investitsiya siyosati», «Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish», «Xorijiy investitsiyalar» fanlari o'quv dasturlarini o'qitishda foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya matni 100 sahifadan iborat bo'lib, 5 ta jadval, 9 ta rasm va 2 ta ilovani o'z ichiga qamrab olgan.

I BOB. ERKIN IQTISODIY HUDUDLARGA INVESTITSİYALAR JALB QILISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Erkin iqtisodiy hududlarning mazmun-mohiyati, vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari

EIH xo'jalik yuritishning yangi shakllaridan biri bo'lib, jahon iqtisodiyotida 1950 yillarning oxiri va 1960 yillarning boshlarida paydo bo'lgan. 1970 yillarning o'rtalariga kelib esa keng ommalasha boshladi. Bunday hududlar dastlab sanoat ishlab chiqarishi rivojlangan mamlakatlar hisoblangan – AQSh, Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniyada, keyinchalik esa Polsha, Vengriya, Bolgariya kabi mamlakatlarda tashkil etildi.

Jahon xo'jaligi aloqalarida EIH xalqaro tovaralmashinuvining faollashuvi, investitsiyalar mobilizatsiyasi, ish bilan bandlik darajasini o'sishi hisobiga iqtisodiy o'sish ko'rsatkichini tezlashtiruvchi omil sifatida qaralmoqda.

EIHni hududiy-xo'jalik jihatidan ham qadimiy, ham zamonaviy deb atash mumkin. Ularning ildizi qadim o'tmishga borib taqaladi va ana shu vaqtning o'zida o'z amaliy faoliyatini zamonaviy rivojlanishda boyitadi. Amerikalik olimlar M.Fraze va R.Renalar fikricha: «Erkin iqtisodiy zona bu – iqtisodiyot rivojlanishi yo'lidagi, odamzodning eng qadimgi va xuddi shu paytning o'zida eng yangi g'oyasidir»¹⁴.

EIHLarning tarixi uzoq o'tmishdan boshlanadi. «Eramizdan avvalgi 166 yilda grek davlati Delosda birinchi marotaba hujjat asosida savdoni engillashtirish maqsadida erkin iqtisodiy hududni tashkil qildilar»¹⁵. Bu EIH Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo aloqalarini birlashtiruvchi rolni o'ynagan. U erdagi savdogarlar soliqlardan, bojlardan va ma'muriy rasmiyatchiliklardan ozod etilgan.

¹⁴ Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч. пос. – М.: «Юнити», 2005. – Стр. 5.

¹⁵ Евстратов С.Ю., Козлов Н.Б., Кузнецов А.И. Иностранные инвестиции в СССР: вопросы финансового регулирования. – М.: «Финансы и статистика», 1991. – Стр. 104.

XII-XIII asrlarda erkin savdo zonalari faoliyat yurita boshlagan. Erkin savdo zonalari G'arbiy Dvana daryosi bo'ylarida paydo bo'lgan. Bu daryo o'rta asrlarda eng muhim savdo yo'liga aylangan. U Arab Xalifaligini Sharqiy slavyan dunyosi bilan bog'lagan. G'arbiy Dvina va uning yon atroflaridagi quruqliklar ham erkin savdo zonalari deb e'lon qilingan.

Ganzev bitimi o'zining gullagan vaqtida oddiygina iqtisodiy zonalarining paydo bo'lishiga turtki bo'lgan. Bu esa G'arbiy va Sharqiy Evropa o'rtasidagi savdo munosabatlarining rivojlanishiga olib kelgan.

Dastlab EIHlar daryo bo'yidagi yirik portlarda joylashgan maxsus zonalar, temir yo'l zanjirlari, aeroportlar yoki ularga tegishli bo'lgan tumanlarda tashkil etilgan. Ular xorij mahsulotlarini olib kirish, olib chiqishda erkin va boj to'lovlaridan ozod qilingan, mamlakatning bojxona hududidan ajratib olingan makonlardir. Bunday zonalar hozirgacha saqlanib kelgan. U erda tovarlar cheklangan yoki cheklanmagan muddatga omborxonalarda saqlanadi, taqsimlanadi, qayta taqsimlanadi va qayta ishlab chiqiladi, so'ngra shu mamlakat ichki bozoriga boj to'lovi bilan etkaziladi yoki boj to'lovlarisiz chetga olib chiqib ketiladi. Bunday iqtisodiy zonalaridan foydalanish mol etkazib beruvchilar uchun ancha qulay bo'lgan, chunki ular tovarga etarlicha talab va albatta unga mos ravishda narxning ham ko'tarilishini, tovarni sotmasdan kutib turish, mahsulotni ulgurji xaridorlarga taqdim etish imkoniga ega edilar.

Yana bir qator iqtisodchi-olimlar esa, «1547 yilda Italiyadagi Livorno shahri erkin savdo shahri deb e'lon qilingan va aynan shu birinchi erkin iqtisodiy hudud bo'lgan»¹⁶, degan fikr tarafdoridirlar. Keyinchalik esa «erkin portlar» tashkil qilingan, bu zonada tovarlar uchun xaridorlar topilgunicha, tovarlarga boj to'lovlari to'lanmasdan omborlarda saqlanishi mumkin bo'lgan. Dastavval «erkin portlar» ichki bozorni rivojlantirish uchun tashkil qilingan, keyin esa xalqaro savdoning rivojlanishiga qo'shilish maqsadida tashkil qilingan. «Erkin portlar» Genuyada (1595 y.), Venetsiyada (1661 y.), Marselda

¹⁶ Андрианов В.Д. Россия: экономический и инвестиционный потенциал. – М.: «Экономика», 1999. – Стр. 467.

(1669 y.), Rossiyada-Odessada (1817 y.), Vladivostokda (1862 y.), Batumida (1878 y.) tashkil qilingan¹⁷. Ular porto-franko nomi bilan mashhur. «XX asrning boshlarida porto-frankolar Maltada, Sulinda, Singapurda, Adeneyada mavjud edi. Ikkinchi Jahon urushigacha 26 mamlakat va zonalar ishtiroki bilan 75 ta erkin portlar va erkin savdo zonalar tashkil qilingan»¹⁸.

EIHLarning ikkinchi bor tug'ilishi, paydo bo'lishi XX asrning ikkinchi yarimiga to'g'ri keldi. Ular rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqala boshlagan, ularning izidan esa, anchagina kechikishlar bilan o'tish iqtisodiyotida bo'lgan mamlakatlarda tuzila boshladi. Bunga mustamlaka tuzumlarining qulashi natijasida iqtisodiy rivojlanish yo'liga yuzga yaqin mustaqil davlatlarning qo'shilishi; o'nlab integratsiya uyushmalarining tashkil topishi; yangi industrial mamlakatlarning jahon xo'jaligiga faol qo'shilishi; jahon sotsialistik tuzumining qulashi; ilmiy-texnika inqilobi rivojlanishi, dunyoda raqobatning va iqtisodiy jarayonlar erkinlashuvining kuchayishi kabi omillar sabab bo'lgan.

EIZ haqida tushuncha birinchi marta 1973 yil 18 maydagi Kioto konvetsiyasida (bojxonani tartibga solish muammolariga bag'ishlangan konvetsiya) berilgan. Unga ko'ra erkin iqtisodiy zona deb – mamlakatning bir qismini, ya'ni tovarlar importi va eksportini, bojxona va soliq cheklovlarisiz olib kirish mumkin bo'lgan hududga aytiladi¹⁹.

EIHLar 1950 yillarning oxiri va 1960 yillarning boshlarida ko'pgina mamlakatlarda paydo bo'ldi. 1990 yillarga kelib statistik ko'rsatkichlarga ko'ra, dunyo bo'yicha 1000 dan ortiq erkin iqtisodiy hududlar mavjud bo'lgan. «Dunyo bo'yicha xalqaro tovaralmashinuvining 1/10 qismi erkin iqtisodiy hududdan o'tgan, u erda esa 3 milliondan ortiq ishchi ishlagan»²⁰. 2004 yilga kelib dunyo bo'yicha 2500 dan ortiq turli xildagi erkin iqtisodiy hudud faoliyat

¹⁷ <http://www.vlasovaandpartners.ru/ru/pub>. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

¹⁸ Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч. пос. – М.: «Юнити», 2005. – Стр. 6.

¹⁹ Ливенцев Н.Н. Международное движение капитала: (инвестиционная политика зарубежных стран): учебник для вузов / – М.: «Экономистъ», 2004. – Стр. 159.

²⁰ Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч. пос. – М.: «Юнити», 2005. – Стр. 3.

ko'rsatdi, ulardan 1500 tasini erkin tadbirkorlik zonalari, 700 tasini eksport-ishlab chiqarish va erkin savdo zonalari, taxminan 450 tasi ilmiy-ishlab chiqarish zonalari va 700 tasini maxsus zonalar tashkil etadi²¹. Hozirgi kunga kelib ularning soni 5000 tadan oshadi va kundan-kunga ularning soni ortib bormoqda²². EIHlarning mintaqalar bo'ylab tarqalganligini quyidagi 1.1-jadvalda ko'rishimiz mumkin:

1.1-jadval

Erkin iqtisodiy zonalarning mintaqalar bo'ylab tarqalishi²³

Mintaqalar	Mintaqadagi jami erkin iqtisodiy zonalar soni	Shu jumladan, mamlakatdagi erkin iqtisodiy zonalar
Shimoliy Amerika	320	AQSh – 213; Meksika – 107
Osiyo	225	Xitoy – 124; Indoneziya – 26
Evropa	81	Bolgariya – 8; Sloveniya – 8
Afrika	47	Keniya – 14; Misr – 11
Karib havzasi	43	Dominikana Respublikasi – 27
Markaziy Amerika	41	Gonduras – 15
Janubiy Amerika	41	Braziliya – 8; Kolumbiya – 11
O'rta va Yaqin Sharq	39	Turkiya – 14
Avstraliya va Okeaniya	2	Avstraliya – 1

Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda EIHlarga 30 xilga yaqin ta'rif berilmoqda. Chunki, na xorijiy adabiyotlarda, na mahalliy adabiyotlarda EIHning ko'pchilik tomonidan qabul qilingan umumiy belgilari yoki umumiy ko'rsatkichlari ko'rsatib o'tilmagan. Ularga turli davrlarda EIHning mohiyatidan kelib chiqqan holda turlicha ta'rif berilmoqda. Masalan, iqtisodchilardan V.Andrianov EIHga shunday ta'rif beradi: «Erkin iqtisodiy zona mamlakat hududining xo'jalik masalalarini hal qilishda nisbatan mustaqil bo'lgan qismidir»²⁴. Yoki, shunga o'xshash tushunchani N.Igoshinning ta'rifida uchratish mumkin: «Erkin iqtisodiy zona milliy iqtisodiy tizimning shunday qismiki, u erda mamlakatning boshqa zonalarida amal qilmaydigan maxsus imtiyoz va rag'batlantirishlardan foydalaniladi, ularning mohiyati esa, imtiyozli

²¹ Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч. пос. – М.: «Юнити», 2005. – Стр. 3.

²² www.rg.ru. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

²³ Ливенцев Н.Н. Международное движение капитала: (инвестиционная политика зарубежных стран): учебник для вузов / – М.: «Экономистъ», 2004. – Стр. 60.

²⁴ Андрианов В.Д. Россия: Экономический и инвестиционный потенциал. – М.: «Экономика», 1999. – Стр. 467.

bojxona va soliq tizimlarida ko'zga tashlanadi»²⁵.

EIHlarning mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o'ynashini hisobga olgan holda O'zbekistonda ham 1996 yilda «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi Qonun qabul qilingan. Unga ko'ra erkin iqtisodiy zona – «mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan zonadir»²⁶.

EIHda yuridik shaxslar va fuqarolar xo'jalik, moliyaviy va boshqa faoliyatning istalgan turi bilan shug'ullanishlari mumkin, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida man etilgan faoliyat turi bundan mustasno.

Mamlakatimiz iqtisodchilardan A.Vahobov va boshq. EIZga quyidagicha ta'rif berilgan: «Erkin iqtisodiy zonalar – shunday geografik hududki, unda mamlakatda qabul qilingan xo'jalik faoliyati tartibiga qaraganda imtiyozli soliq to'lash tartibi joriy etiladi. Boshqacha ifodalaganda, ushbu zonada davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamaytiriladi va bu milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo'lib, mamlakatning boshqa zonalarida qo'llanilmaydigan ma'lum imtiyozlar tizimi joriy etiladi»²⁷.

Xalqaro tashkilotlar hisobotlarida va ilmiy nashryotlarda turli xildagi zonalarining mohiyatini yoritishda «erkin iqtisodiy zona» terminidan foydalanadilar. Biroq bu termin uning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. U erda qo'llaniladigan iqtisodiy qoidalar, maxsus ma'muriy qonunlar, shu zonada faoliyat yuritadigan tadbirkorlarni aniq belgilangan huquqiy va xo'jalik rejimlaridan butunlay ozod qilmaydi, balki ularni engillashtiradi, ma'lum imtiyozlar beradi. Shuning uchun ham EIHni «erkin» emas, maxsus iqtisodiy zona deb atash o'rinli bo'lar edi.

1970-80 yillarda butun dunyoda, xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda

²⁵ Игошин Н.В. Инвестиции. Организация управление и финансирование. – М.: «Экономика», 2000. – Стр. 45.


²⁶ O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 apreldagi «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi Qonuni.

²⁷ Vaxabov A.V. va boshq. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya», 2010. 56-b.

eksport-ishlab chiqarish zonalarini keng tarqala boshlandi. Bu holda import o'rnini bosa oladigan modelini faqat tashqi bozorga ixtisoslashgan tovarlarni ishlab chiqaradigan sohalarni rivojlantirish yo'li bilan eksportga mo'ljallangan modelga almashtirishning umumiy tendentsiyasini aks etadi. Janubiy-Sharqiy Osiyoda joylashgan yangi industrial mamlakatlarda tashkil qilingan bunday zonalarining ko'payishi sanoatda qayta ishlab chiqariluvchi mahsulotlarning keskin darajada o'sishiga va iqtisodiyotining ko'tarilishiga olib keldi. Bu zonalar ularning ko'pchiligiga dunyodagi eng katta eksportchi mamlakatlarga aylanishiga yordam berdi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat hududidagi maxsus iqtisodiy rejimga ega bo'lgan, davlat aralashuvi kamaytirilgan, ayni paytda davlatning nazoratidan butkul ozod etilmagan, balki davlat tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning erkin faoliyat yuritishi uchun mamlakatning boshqa zonalarida amal qilmaydigan imtiyoz va rag'batlantirishlar beriladigan zonaga erkin iqtisodiy zona deyiladi.

EIZlarning keng tarqalganlari: erkin savdo, erkin bojxona, erkin ishlab chiqarish, erkin ilmiy-texnik zonalaridir. Bularning har biri erkin iqtisodiy zona toifasiga kirgani bilan o'z funksiyasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi²⁸.



1.1-rasm. Jahon iqtisodiy tizimida erkin iqtisodiy zonalarining mezonlar bo'yicha tasniflanishi²⁹

²⁸ Колесов В.П., Кулаков М.В. Международная экономика: Учебник. – М.: «ИНФРА-М», 2008. – Стр. 474.

²⁹ Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. – T.: «BMA», 2012. 9-b

Anklav hududlar, odatda, mamlakat hududidan tabiiy ravishda ajralgan joylarda tashkil etiladi (orollar, yarim orollar, dengiz ko'rfazlari va boshqalar), lekin shaharlar ichida yoki hududlar ichida ham tuzilishi mumkin. Har qaysi holda ham anklavning tashkil etilishi hududning yuridik mustaqilligini nazarda tutmaydi.

Integratsiyalashgan EIZlarning o'ziga xos belgisi shundan iboratki, ular mamlakatning ichki iqtisodiyoti, uning ichki hududlari bilan yaqin iqtisodiy aloqalarga ega bo'ladi. Eksport salohiyatini rivojlantirish muammolarini hal etishdan tashqari, bu zonalar mahalliy sanoatning texnologik darajasini, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini oshirish vazifalarini ham hal qiladi.

Tashkil etish usuliga qarab, ikki turdagi hududlar farqlanadi: hududiy va funktsional EIHlar. Hududiy – ajratilgan hududlar bo'lib, u erda faoliyat yurituvchi rezident kompaniyalar faoliyat turidan qat'iy nazar xo'jalik yuritishning imtiyozli tartibidan foydalanadi. Funktsional – imtiyozli tartib hududi bo'lib, ma'lum turdagi faoliyatga qo'llaniladi (korxonaning mamlakat hududida joylashishidan qat'iy nazar). Masalan, nuqtaviy hududlar, Karib havzasidagi alohida korxonalardan iborat ofshor markazlari, turistik hududlar, Meksikadagi Makiladoras tipidagi korxonalar.


Egalik turiga qarab EIZlarni davlat, xususiy va aralash turlariga bo'lish mumkin. Jahon iqtisodiy tizimida eng ko'p qo'llaniladigan egalik shakli bu aralash turdagi EIZdir.

Funktsional vazifasiga qarab, EIZlarni quyidagi turlarini farqlash mumkin: savdo hududlari; savdo-ishlab chiqarish hududlari; texnik-tatbiq etish hududi; xizmat ko'rsatuvchi hududlar; kompleks hududlar.

EIHni rivojlanishining muhim sharti bu investorlar uchun mavjud imtiyozlardir. Chunki ular kapital qo'yishdan avval ularga berilayotgan imtiyozlarni obdon o'rganadilar. Soliq imtiyozlari – eng keng tarqalgan usul bo'lib, u kapitalning jamlanishiga, ishlab chiqarishning zamonaviy sohalarining rivojlanishiga, milliy iqtisodiyotda progressiv o'zgarishlarga erishishga yordam

beradi. Davlat soliq imtiyozlari berish orqali ham mahalliy, ham chet el kapitali investitsiyasini rag'batlantiradi. Bunda yangi qayta ishlash sohalari, qoloq va olis hududlar, yangi texnika va texnologiyalarning qo'llanilishi, sermashaqqat va ilm-fanga asoslangan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish ta'minlanadi. Lekin shuni ta'kidlab o'tish kerakki, EIHlar uchun beriladigan imtiyozlar tizimi natijasida davlat zarar ko'rmaydi. Aksincha, bu ilmiy-texnik potentsialni o'stirish, yangi boshqaruv usullarini va tadbirkorlik shakllarni joriy etish, xizmat ko'rsatishning jahon standartlariga o'tish uchun to'lanadigan narxdir.

Har bir mamlakat yoki uning u yoki bu hududi EIHlar tashkil etish jarayonida o'zining imtiyoz va rag'batlantiruvchi omillarini tanlaydi. Tajriba ko'rsatishicha, hududlarda o'rnatiladigan imtiyozlar tizimi turlicha bo'lib, uning hududida amalga oshirilayotgan dastur va loyihalarga bog'liq. 1.2-rasmda EIHlarda qo'llaniladigan imtiyoz turlari ko'rsatib o'tilgan. EIZlarda qo'llaniladigan imtiyozlarning turlari esa dissertatsiyaning 1-ilovasida keltirilgan:



1.2-rasm. Erkin iqtisodiy hududlardagi imtiyozlarning turlari³⁰

EIH mamlakatning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvining tezlashishida muhim omillardan bo'lib hisoblanadi. EIHni tashkil qilish, uni tashkilotchilari tomonidan ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshiruvchi muhim bo'g'in sifatida qoraladi. EIHda iqtisod tashqi dunyo bilan yuqori darajada aloqada

³⁰ Nazariy ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi.

bo'lish imkoniga ega bo'ladi, bojxona, soliq va investitsiya rejimlari ichki hamda tashqi investitsiyalar uchun ijobiy hisoblanadi.

1.2. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalar jalb qilishning tashkiliy-huquqiy asoslari

Ma'lumki, har qanday soha taraqqiyoti uning huquqiy asosiga bog'liq bo'ladi. Milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va uning ko'lamini kengaytirish maqsadida EIZlarni tashkil etish bilan bog'liq O'zbekiston Prezidentining ko'plab Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari qabul qilindi.

Mamlakatimizda maqbul iqtisodiy muhitni yaratish, bozor iqtisodiyoti institutlari va xususiy tadbirkorlar sinfini shakllantirishga alohida e'tibor berildi. Shu tariqa iqtisodiy tizim va undagi xususiy sektor dunyodagi yirik investorlar bilan aynan mamlakat iqtisodiyoti uchun samarali yo'sinda, ya'ni yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi ishlab chiqarish sohalarida to'laqonli hamkorlik qila oladigan holga keltirildi. O'z vaqtida EIZlarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishi hisobga olingan holda, 1996 yil 25 aprelda «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi³¹. Ushbu qonun asosida mamlakatimizda EIZlar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar tartibga solinadi. U uch qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda umumiy qoidalar, ikkinchi qismda EIZlarning huquqiy tartiboti, uchinchi qismda esa EIZni boshqarish yoritib o'tilgan.

O'zbekistonning 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan va 2000 yil 26 mayda o'zgartirish kiritilgan «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonunning 28-moddasida EIZga e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasining hududida EIZlar uchun tashqi iqtisodiy faoliyatning alohida tartibi (bojxona, valyuta, soliq va boshq.) o'rnatilishi mumkin bo'lib, u EIZlar to'g'risidagi qonun hujjatlari

³¹ Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan: O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni, O'zR 14.12.2005 y. O'RQ-11-son Qonuni, O'zR 10.10.2006 y. O'RQ-59-son Qonuni, O'zR 23.09.2009 y. O'RQ-224-son Qonuni.


bilan tartibga solinishi qayd etilgan.

Oliy Majlis Senatining o'n to'qqizinchi yalpi majlisida ma'qullangan ««Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonun bilan esa amaldagi qonunning EIZlarni tashkil etish tartibi, ularning turlari, mazkur zonalar ishtirokchilariga qo'shimcha imtiyoz va preferentsiyalar berish mexanizmi, erkin zonalar hududida amalga oshiriladigan faoliyat turlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Mazkur qonun, mohiyat e'tiboriga ko'ra, mamlakatimizning dunyo bozoriga integratsiyalashuvida muhim hujjat bo'lib, uning «Erkin iqtisodiy zonani tuzish» deb nomlangan 3-moddasiga EIZ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tashkil etilishi, EIZning maqomi, shuningdek uning qancha muddatga tashkil etilishi mazkur zonani tashkil etish to'g'risidagi qaror bilan belgilanishi, EIZning faoliyat ko'rsatish muddatini uzaytirish belgilangan muddat tugashidan kamida uch yil oldin Prezident qarori bilan amalga oshirilishi kiritildi. 4-moddada esa EIZning maqomi uni tashkil qilish to'g'risidagi qarorda belgilangan muddat tugaganda, uni tashkil etish to'g'risidagi qarorda nazarda tutilgan vazifalar bajarilmaganda tugatilishi belgilandi.

Albatta, erkin ishlab chiqarish zonalarida iqtisodiyotning ustun tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb qilish orqali istiqbolli texnologiyalar joriy etiladi, pirovardida mahalliy xom ashyo asosida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqariladi. EIZning mazkur turi bugungi kunda Osiyoning 20 ga yaqin davlatida. EIZning boshqa turlaridan farqli o'laroq, bu hududda alohida imtiyozli bojxona, valyuta va soliq rejimlari davlat tomonidan ta'minlanadi. Eng muhimi, uning hududidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining asosiy yo'nalishi zamonaviy, xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar hamda modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko'lamda ishlab chiqarishdan iborat. Shu bois, qonunning 7-moddasida EIIZ ham erkin ishlab chiqarish zonolari turlaridan biri sifatida belgilandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimizda EIZlarda qo'llaniladigan imtiyozlar va rag'batlantirish omillarini quyidagicha tasvirlash mumkin:



1.3-rasm. O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarda qo'llaniladigan imtiyozlar, kafolatlar va rag'batlantirish omillari³²

³² O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 apreldagi «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi Qonuni asosida ishlab chiqildi.

Amaldagi qonunchilikni iqtisodiy zonalarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi tajribasi bilan muvofiqlashtirish maqsadida qonunning «Erkin iqtisodiy zonaning byudjeti» nomli 17-moddasiga ham tegishli o'zgartishlar kiritildi. Unga ko'ra, EIZning byudjeti EIZning Ma'muriy kengashi boshqaruvi va foydalanuvida bo'lgan er, bino va inshootlarni ijaraga berishdan, xizmatlar ko'rsatishdan keladigan tushumlardan shakllantirilishi belgilandi.

EIZ hududiga chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning kirishi, undan chiqishi va shu hududda bo'lishining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan soddalashtirilgan tartibi o'rnatilganini inobatga olib, qonunning 18-moddasiga EIZ hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning kirish, chiqish va shu hududda bo'lishining soddalashtirilgan tartibi qonun hujjatlarida belgilanishi qayd etildi.

EIZlarni tashkil etishning muhim maqsadi ma'lum hudud yoki ishlab chiqarish sohasini iqtisodiy rivojlantirishni rag'batlantirish, shuningdek bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida EIZlardan iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning hududiy uslubi sifatida foydalanishdir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, bugun EIZlardan, nafaqat, sarmoyalarni jalb qilish, balki hududiy iqtisodiy siyosat vositasi sifatida ham foydalaniladi. Mamlakatimizda ushbu maqsadlarga erishish, shuningdek EIZlar faoliyatidagi xalqaro tajribalar afzalliklarini iqtisodiy tuzilmaga joriy qilish maqsadida Prezidentimizning 2008 yil 2 dekabrda «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil qilish to'g'risida»gi Farmoniga asosan «Navoiy» EIIZsi tashkil etildi.

Prezidentimiz farmoniga ko'ra, ushbu zonaning faoliyat ko'rsatish muddati 30 yilni tashkil etadi, bu muddat keyinchalik uzaytirilishi mumkin. EIIZ faoliyatini muvofiqlashtirish va davlat boshqaruvi funktsiyasini amalga oshirish, shuningdek tezkor boshqarish maqsadida Ma'muriy kengash va EIIZ Direktsiyasi tashkil etilgan.

Mazkur hujjatning jahon iqtisodiy inqirozi butun dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlarga ham sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir

paytda imzolangani esa yurtimizda yaratilgan iqtisodiy poydevorning nihoyatda mustahkamligini ham tasdiqlaydi.

«Navoiy» EIIZ mamlakatimizning markaziy hududida barpo etilgani shubhasiz, mazkur hududning iqtisodiy-industrial o'sishiga ham salmoqli hissa qo'shdi. Shuningdek, mazkur EIIZ «Navoiy» xalqaro aeroporti bilan tutash ravishda barpo etilgani havo transportidan keng foydalanishga imkon berish barobarida jahondagi etuk avia hamda yuk tashuvchi kompaniyalarning nazariga ham tushdi va davlatimizning yana bir yo'nalish bo'yicha mavqei oshishiga olib keldi. O'tgan davr mobaynida «Navoiy» EIIZga xorijiy kompaniyalar tomonidan bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Ayni paytda bu erda Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur, Hindiston, Birlashgan Arab Amirligi va boshqa bir qator davlatlar bilan hamkorlikda 20 dan ortiq loyihalar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbarining yuqoridagi Farmoniga muvofiq, «Navoiy» EIIZsi faoliyatini tezkor boshqarish Direktsiya tomonidan amalga oshirilishi belgilangani bois, qonunning 20-moddasiga ham tegishli o'zgartishlar kiritildi. Bu EIIZ faoliyatini muvofiqlashtirish davlat organlari vakillaridan tashkil etiladigan va shaxsiy tarkibini Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan Ma'muriy kengash tomonidan amalga oshirilishi belgilangani haqidagi norma bo'lib, qonunda EIIZning Ma'muriy kengashi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tuzilishi belgilab qo'yildi.

Shuningdek, mazkur Farmonda belgilangan EIIZlarni tashkil etish va faoliyat ko'rsatish tajribasi talablariga qonunning «Erkin iqtisodiy zona hududida xo'jalik faoliyati qatnashchilarini ro'yxatdan o'tkazish» nomli 25-moddasi qoidalarini muvofiqlashtirish hamda qonunchilik hujjatlarini bir xil talqin qilishni ta'minlash maqsadida mazkur moddaga ham bir qator aniqliklar kiritilganini ta'kidlash joiz.

Yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, shuningdek Toshkent

viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish, shu asosda yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida 2012 yil 13 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ««Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi PF-4436-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmoniga muvofiq, O'zbekistonda ikkinchi EIZga asos solindi.

«Angren» MIZsining faoliyat yuritish muddati 30 yilni tashkil etadi va bu muddat keyinchalik uzaytirilishi mumkin. «Angren» MIZ faoliyat yuritadigan muddat mobaynida uning hududida maxsus soliq tartibi va bojxona imtiyozlari amal qiladi. Ayni shu yo'nalishda to'plangan tajribani hisobga olib, o'tgan yilning mart oyida Jizzax viloyatida «Jizzax» maxsus industrial zonasi tashkil etilib³³, Sirdaryo viloyatida bu zonaning filiali faoliyat ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda «Jizzax» MIZ hududida transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. 2013 yilda mazkur zona hududida Xitoy kompaniyalari ishtirokida 100 ming dona mobil telefon ishlab chiqarish, shuningdek chorva mahsulotlarini qayta ishlash va ozuqa tayyorlash bo'yicha umumiy qiymati qariyb 6 million dollar bo'lgan dastlabki 3 ta loyiha amalga oshirildi.

Yurtboshimizning 2008 yil 2 dekabrda «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida»gi, 2012 yil 13 aprelda «Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi hamda 2013 yil 18 martdagi «Jizzax» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi Farmonlarida qator imtiyozlar nazarda tutilgan (1.2-jadval).

Shuni alohida qayd etish lozimki, EIZlarni tashkil qilish va ular faoliyatini tartibga solishga qaratilgan milliy qonun hujjatlaridan tashqari, ushbu munosabatlarni tartibga solishga xalqaro huquqiy hujjatlar ham bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

³³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 18 martdagi «Jizzax» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi Farmoni.

1.2-jadval

O'zbekistonda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarda amal qiladigan imtiyozlar

Ko'rsatkichlar	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrda PF-4059 sonli «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 aprelda PF-4436 sonli ««Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi Farmoni	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 18 martda PF-4516 sonli ««Jizzax» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida» Farmoni
Investitsiya miqdoriga qarab imtiyozlar-ning amal qilish muddati	– 3 mln.dan 10 mln. evrogacha – 7 yil; – 10 mln. dan 30 mln.evrogacha – 10 yil, keyingi 5 yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi hajmi amaldagi stavkadan 50 foiz miqdorida belgilanadi; – 30 mln. evrodan ortiq bo'lganda – 15 yil, keyingi 10 yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi amaldagi stavkadan 50 foiz miqdorida belgilanadi	– 300 mingdan 3 mln. AQSh dollarigacha – 3 yil; – 3 mln.dan 10 mln. AQSh dollarigacha – 5 yil; – 10 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil.	– 300 mingdan 3 mln. AQSh dollarigacha – 3 yil; – 3 mln.dan 10 mln. AQSh dollarigacha – 5 yil; – 10 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil.
Soliq va majburiy to'lov imtiyozlari	«Navoiy» EIIZda ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yagona soliq to'lovi, foyda, er, mol-mulk hamda obodonchilik va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliqlari va majburiy to'lovlardan (Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmadan tashqari) ozod etiladi.	«Angren» MIZ qatnashchilari foyda, mol-mulk, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi va Respublika yo'l jamg'armasiga ajratmalar to'lashdan ozod etiladi.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, ularning mol-mulkiga solinadigan soliqlar, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lashdan, kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi, shuningdek Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod etiladi.
Bojxona imtiyozlari	EIIZda faoliyat ko'rsatadigan butun muddatga eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish maqsadida olib kelinayotgan asbob-uskunalar, xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlar bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'imlardan tashqari) ozod qilinadi.	«Angren» MIZ hududiga Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha olib kiriladigan uskunalar, butlovchi buyumlar va materiallar boj to'lovlari (bojxona yig'imlaridan tashqari) to'lashdan ozod qilinadi.	Respublikada ishlab chiqarilmaydigan, loyihalarni amalga oshirish doirasida «Jizzax» MIZ hududiga Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha olib kiriladigan uskunalar, butlovchi buyumlar va materiallar boj to'lovlari (bojxona yig'imlaridan tashqari) to'lashdan ozod qilinadi.

Xususan, EIZni o'ziga xos tashqi savdo anklavi sifatida ta'riflagan 1973 yilgi Kioto konventsiyasi qabul qilinganidan buyon EIZlar ko'plab mamlakatlarga tarqaldi³⁴. Ushbu xalqaro huquqiy hujjatlar va mamlakatlarning har birini o'ziga xos rivojlanish yo'llarini, hududiy-jo'g'rofiy va boshqa

³⁴ <http://21asr.uz/biznes/erkin-i-tisodii-zonalar>. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

qulayliklarini inobatga olgan holda Xitoy, AQSh, Frantsiya, Janubiy Koreya, Irlandiya, Meksika, Vengriya, Bolgariya kabi mamlakatlarda EIZlar tashkil etilgan.

Xalqaro tashkilotlar bergan ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunda dunyoda 3,5 mingdan ziyod EIZlar bo'lib, ular 140 taga yaqin mamlakatda joylashgan. Butun dunyodagi EIZlarda salkam 70 million kishi mehnat qiladi. Ularning yillik savdo aylanmasi esa 500 mlrd. dollardan ziyoddir³⁵. Ayni paytda EIZlarning juda ko'p turlari bo'lib, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi hamda globallashuv jarayonining ta'siri natijasida ular ham miqdor, ham sifat jihatidan o'zgarib va ko'payib bormoqda.

EIZlarni tashkil qilish va ular faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ishlab chiqilayotganligi mamlakatimizni modernizatsiya qilish va aholi bandlik darajasini yanada oshirishning muhim omili sifatida jahon standartlariga javob beradigan va dunyo bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarish, xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1.3. Iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilishda Angren erkin iqtisodiy hududining o'rni va ahamiyati

Jahon amaliyotidan ma'lumki, har qanday davlat o'z iqtisodiyotiga chet el sarmoyalarini, investitsiyalarni jalb qilmasdan turib taraqqiy eta olmaydi. Ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish, asosiy fondlarni yangilash, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, zamonaviy texnika-texnologiyalar asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash xorijiy investitsiyalar orqali ta'minlanadi.

³⁵ <http://www.minjust.uz>. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

Shu boisdan mustaqillik yillarida mamlakatimizda investitsiya muhiti barqarorligini va jozibadorligini oshirish borasida qator chora-tadbirlar ko'rildi, tegishli qonunchilik hujjatlari qabul qilindi, xorijiy investorlarga bir qator moliyaviy imtiyozlar yaratildi.

Ta'kidlash joizki, respublika iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni keng ko'lamda jalb qilishning zarurligi quyidagi holatlardan kelib chiqadi:

- ishlab chiqarish quvvatlarining jismoniy va ma'naviy eskirganligi, ularning qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga yoki umuman, yangilashga oid bo'lib qolganligi;

- sanoat tarmog'ida moddiy-texnika bazasining o'ta pastligi va ko'pgina zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarning mavjudligi;

- respublika milliy daromadida jamg'arish bilan iste'mol o'rtasidagi nisbatning iste'mol tomonga og'ishi ustunligi va buning natijasida jamg'arishning investitsiya manbai sifatida hanuz kamligi;

- O'zbekistonning tabiiy boyliklarga boyligi va bu erda ko'plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish imkoniyatining mavjudligi;

- aholi sonining o'sib borayotganligi (mehnat resurslari) va kichik zamonaviy ixcham korxonalarni barpo etish, ularni mehnat resurslarining manbai bo'lmish qishloq hududlarida barpo etishning muhimligi;

- respublika eksportida xom ashyo salmog'ini kamaytirish va sifatli, yuqori talablarga javob beradigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish zarurligi va boshqalar.

Yuqoridagi holatlar xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb qilish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasiga asosan chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiyalarni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jismoniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, banklar,

sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarning ustav jamg'armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo'shib qatnashish;

- chet ellik investorlarga to'liq qarashli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarini, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarni barpo etish va rivojlantirish;

- mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini sotib olish;

- intellektual mulkka, shu jumladan mualliflik huquqlari, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xauga, shuningdek ishchanlik nufuziga (gudvillga) huquqlar kiritish;

- kontsessiyalar, shu jumladan, tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan kontsessiyalar olish;

- savdo va xizmat ko'rsatish sohalari ob'ektlariga, turar joy binolariga ular joylashgan er uchastkalari bilan birgalikda mulk huquqini, shuningdek erga egalik qilish va undan foydalanish hamda tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarini sotib olish orqali.

Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiyalarni amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shakllarda ham amalga oshirishlari mumkin. «Chet el investitsiyalari» birlamchi yoki takroran amalga oshirilayotgan shakllarining o'zgartirilishi ularning investitsiya sifatidagi mohiyati o'zgarishiga olib kelmaydi. Biroq, hozirgi kunda xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilishning muhim shakllaridan biri EIZlar tashkil etish hisoblanadi. Biz dissertatsiya ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, faqat Angren MIZ xususida fikr yuritamiz.

Yuqorida ham ta'kidlab o'tkanimizdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni³⁶ bilan Toshkent viloyatida «Angren» maxsus industrial

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 apreldagi ««Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi PF-4436-sonli Farmoni.

zonasi tashkil etildi³⁷. Farmonga ko'ra, zona yuqori qiymatga ega bo'lgan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, shuningdek Toshkent viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish, shu asosda yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida tashkil etildi.

Xo'sh, mamlakat nega aynan Toshkent viloyatida «Angren» MIZsini tashkil etdi? Buning, albatta, o'ziga xos sabablari bor:

- birinchidan, Toshkent viloyati O'zbekistonda eng sanoatlashgan hududlardan biri bo'lib, yangi MIZ hududning ushbu salohiyatidan yanada samarali foydalanish imkoniyatini beradi;

- ikkinchidan, sir emas, bugungi kunda Toshkent viloyatining Angren shahri respublikada qayta tiklanishga, rivojlantirishga juda katta ehtiyoj sezayotgan shaharlardan hisoblanadi. Maxsus zona esa shaharning bir paytlardagi nufuzi va farovonligini tiklash, shaharda aholi, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi;

- uchinchidan, Farg'ona vodiysi viloyatlari bilan bog'laydigan transport yo'laklaridan biri aynan Qamchiq dovoni orqali, ya'ni Angren shahri hududidan o'tadi. Ma'lumki, Tojikiston bilan munosabatlarning yaxshi emasligi vodiylariga etkazib beriladigan barcha turdagi yuklarning Qamchiq dovoni orqali jo'natishga to'g'ri keladi. Bu vazifani hozircha «Angren» logistika³⁸ markazi bajarmoqda. Yuklar, avvalo, logistika markazida yig'iladi va

³⁷ «Angren» maxsus industrial zonasi Angren va Ohangaron shaharlari hududlarini, «Toshkent – Andijon» avtomobil yo'lining 78 kilometridan 101 kilometrigacha bo'lgan shimoliy qismini o'z ichiga olgan.


³⁸ O'zbekistonning geografik joylashuvi zamonaviy ombor komplekslari va logistika markazlari tarmog'ining rivojlanishida strategik muhim jihat bo'lib, yuklarni tashish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish hamda ishlab chiqarish va savdo kompaniyalari logistikasini samarali tashkil etish imkonini berishi mumkin. Bu jihatdan 2009 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusiga ko'ra Angren logistika markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi, ushbu markaz Angren maxsus industrial zonasining logistik tarkibiy qismini ta'minlashga, shuningdek respublika yagona logistika halqasining uzluksiz ishlashini ta'minlovchi yagona bo'g'in bo'lib xizmat qilishga mo'ljallangan.

u erdan og'ir yuk tashuvchi avtomobillarga yuklanib, vodiylariga jo'natilmoqda.

Qolaversa, shu borada to'plangan tajribani va Toshkent viloyatidagi ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan foydalanish, Farg'ona vodiysidagi korxonalar bilan barqaror iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishning kelajakda muhim ahamiyatga ega ekanini hisobga olgan holda, «Angren» MIZ tashkil etildi.

«Angren» MIZ – yirik shaharlargacha masofa: Toshkent – 80 km; Farg'ona – 240 km; Samarqand – 220 km. Yaqin joylashgan hududlar: Andijon viloyati; Namangan viloyati; Farg'ona viloyati; Sirdaryo viloyati; Jizzax viloyati.

«Angren» MIZsiga investitsiya kiritishning ustuvorligi, bizning fikrimizcha, quyidagilardan iborat:



1.4-rasm. «Angren» maxsus industrial zonasiga investitsiya kiritishning ustuvorligi³⁹

Umuman, O'zbekistonda tashkil etilayotgan iqtisodiy zona to'g'ridan-to'g'ri xorij investitsiyasini jalb qilish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirish hamda yangi ish o'rinlarini tashkil qilishga xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, bir paytlar «konchilar», «nurchilar» shahri bo'lgan Angrenni

³⁹ Nazariy ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi.

rivojlantirish uchun ayni muddaodir. 2014 yilning o'zida 2,6 million tonna yuk tashilgani ushbu hududning ahamiyatini ko'rsatadi⁴⁰.

«Angren» MIZ Angren va Ohangaron shaharlari hududlarini, «Toshkent – Andijon» avtomobil yo'lining 78 kilometridan 101 kilometrigacha bo'lgan shimoliy qismini o'z ichiga olgan. Hozirgi kunda bu erda qiymati 216,2 million AQSh dollarilik 11 investitsiya loyihasi hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Xususan, shakar zavodini qurish, ishlatilgan avtomobil moylarini qayta ishlash, teriga ishlov berish, turli o'lchamdagi mis quvurlari, ko'mir briketi va sanitar-keramikalar tayyorlash hamda boshqa yo'nalishlar bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rilayotir.

Ana shu istiqbolli loyihalar «O'zbekneftgaz» Milliy xolding va «O'zqurilishmateriallari» aktsiyadorlik kompaniyalari, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, «O'zbekcharmpoyabzali» va Oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmalari tashabbusi hamda Janubiy Koreya, Singapur, Avstriya, Buyuk Britaniya, Bolgariya, Hindistonning etakchi firma va kompaniyalari hamkorligida ro'yobga chiqarilmoqda.

Ta'kidlash joizki, mazkur industrial zonada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarga keng ko'lamli soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferentsiyalar berildi, ularning infratuzilma ob'ektlari va kommunikatsiyalarga kafolatli ravishda ulanishi ta'minlanmoqda.

«Angren» MIZning transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish va maxsus zona hududida faoliyat yurituvchi jadal rivojlanayotgan korxonalarni zarur infratuzilma bilan ta'minlash maqsadida Hukumat tomonidan 2013-2015 yillarga mo'ljallangan maxsus rivojlanish dasturi tasdiqlandi. Dastur umumiy summasi taxminan 60 million AQSh dollari miqdorida infratuzilmani rivojlantirishni, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutadi⁴¹:

– elektr ta'minoti;

⁴⁰ <http://www.minjust.uz>. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

⁴¹ www.sizangren.uz. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

- gaz ta'minoti;
- suv ta'minoti va oqovalarni chiqarib tashlash;
- temir yo'l infratuzilmasi;
- avtomobil yo'llari.

Angren logistika markazi Farg'ona vodiysi bo'ylab va O'zbekiston Respublikasining boshqa mintaqalariga «eshikdan eshikkacha» printsipli bo'yicha yuklarni qabul qiluvchiga etkazib berish, shu jumladan:

- avtomobil va temir yo'l transportida xalqaro va mahalliy yo'nalishlar bo'yicha distributsiya;

- tashish uchun barcha turdagi xatarlarga qarshi foydali sug'urta polisini olishga ko'maklashish;

- yuk joylashgan joy to'g'risida tez xabardor qilish;
- qatnash yo'lida yuklarni kuzatish va muhofaza qilish;
- yuklar bojxona nazorati ostida tashilishini tashkil etish;
- eksport va import yuklarni «eshikdan eshikkacha» etkazib berish tizimi;
- tovarning muvofiqlik sertifikatlarini olish;
- barcha turdagi yuklarni ortish, tushirish va saqlash;
- eksport-import yuklarni maxsus bojxona omborlarida saqlash bo'yicha

to'liq xizmatlar ko'rsatadi.

«Angren» MIZning asosiy vazifalari va yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- jahon bozorida raqobatbardosh va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

- to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish borasida qulay shart-sharoitlar yaratish;

- mineral xom ashyo resurslarini yanada chuqurroq qayta ishlash bo'yicha yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish;

- MIZ va respublika korxonalari o'rtasida mustahkam kooperatsion aloqalar o'rnatish hamda mahalliy xom ashyolar negizida yuksak texnologiyali mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish.

«Angren» MIZda tashkil etiladigan istiqbolli ishlab chiqarish sohalari quyidagilardan iborat: kimyo va neftkimyo sanoati; qurilish materiallari sanoati; farmatsevtika va tibbiyot vositalari sanoati; terini qayta ishlash va charm sanoati; oziq-ovqat sanoati.

«Angren» MIZsi xo'jalik yurituvchi sub'ektlari faoliyatining asosiy yo'nalishi MIZga kiruvchi mintaqaning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan samarali foydalangan holda jahon bozorlarida raqobatbardosh yuqori qo'shilgan qiymatga ega keng ko'lamli yuqori texnologik mahsulot ishlab chiqarish sifatida belgilab qo'yilgan.

«Angren» MIZ hududida minreal xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha korxonalarni rivojlantirish, mahalliy xom ashyo bazasida yuqori texnologik mahsulot va yaqin kooperatsiya aloqalari o'rnatish asosida materiallar ishlab chiqarish hamda MIZ korxonalari o'rtasida va umuman respublika bo'yicha sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

«Angren» MIZni tashkil etish kontseptsiyasidan va tanlangan mezonlardan kelib chiqqan holda maxsus zona hududida quyidagi tarmoqlar va yo'nalishlardagi korxonalar joylashtirilmoqda: elektrotexnika; mashinasozlik; kimyo va neft-kimyo; farmatsevtika; oziq-ovqat sanoati va meva-sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlash; zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish; konchilik sanoati va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, «Angren» MIZda belgilangan chora-tadbirlar mamlakatimizda amaliyotga izchil tatbiq etilayotgan oqilona va yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy strategiyaning ajralmas qismi bo'lib, Angren va Ohangaron shaharlarining bugungi kunda isloh etilayotgan sanoat tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy texnologiyalar asosida qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishini ta'minlaydi. Bu bilan ushbu MIZ Toshkent viloyatidagi ikkita yirik hudud – Angren hamda Ohangaron shaharlari va ular atrofida istiqomat qilayotgan aholi farovonligini oshirishga ham munosib ulush qo'shmoqda.

Xullas, erkin zonalar tashkil etilishi mintaqaviy rivojlanishni yanada maqbullashtirish, tashqi bozorlarga yo'naltirilgan yuqori samarali ishlab chiqarishlarni joylashtirish, logistika va transport infratuzilmasining zamonaviy tizimlarini joriy etish siyosatini amalga oshirish yo'lidagi yangi qadamdir.

Birinchi bob bo'yicha xulosa:

– mamlakat hududidagi maxsus iqtisodiy rejimga ega bo'lgan, davlat aralashuvi kamaytirilgan, ayni paytda davlatning nazoratidan butkul ozod etilmagan, balki davlat tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning erkin faoliyat yuritishi uchun mamlakatning boshqa zonalarida amal qilmaydigan imtiyoz va rag'batlantirishlar beriladigan zonaga erkin iqtisodiy zona deyiladi;

– ta'kidlash joizki, EIZlarni tashkil etish mamlakat ichki bozoridagi iqtisodiy jarayonlarni faollashtirishga yo'naltirilgan chet el sarmoyasini jalb qilish bilan birga: innovatsion faoliyatni rivojlantirish; ilg'or texnologiyalarni joriy qilish; eksport, shuningdek transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish; sanoat mahsulotlari eksportini qo'llab-quvvatlash va valyuta tushumini ko'paytirish; mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish; to'liq tsiklda mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat (eksport) zonalarini tashkil etish; mahalliy mahsulot va xizmatlarning ichki va tashqi bozorlarda xalqaro sifat, sertifikatlashtirish, qadoqlash talablarini joriy etish orqali raqobatdoshligini oshirish; xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarish; va nihoyat, yangi ish joylarini barpo etish, malakali ishchi-muhandislar, xo'jalik va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, malakasini oshirish kabi bir qator muhim masalalarni hal qilish imkonini beradi;

– EIZlarni tashkil etishning muhim jihati ma'lum hudud yoki ishlab chiqarish sohasini iqtisodiy rivojlantirishni rag'batlantirish, shuningdek bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida EIZlardan iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning hududiy uslubi sifatida foydalanishdir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, bugun EIZlardan, nafaqat, sarmoyalarni jalb qilish, balki hududiy iqtisodiy siyosat vositasi sifatida ham unumli foydalanilmoqda;

– EIZlar mamlakatni xalqaro mehnat taqsimoti jarayonlariga yanada chuqurroq jalb qilish, ya'ni eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish hamda shu orqali valyuta tushumini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, EIZlar mamlakat ichki bozorlarini import o'rnini bosuvchi mahsulotlar bilan ta'minlash hamda shu hududda chet el sarmoyasi yordamida yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish imkonini beradi;

– «Angren» MIZga investitsiya kiritishning ustuvorligi quyidagilardan iborat: «Angren» MIZ hududida alohida soliq rejimi amal qiladi; O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan import qilinadigan asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar va materiallarga bojxona imtiyozlari mavjud; transport-kommunikatsiya aloqasi rivojlangan, «Angren» xalqaro logistika markazi mavjud; ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi mavjud; qulay geografik joyda joylashgan; Markaziy Osiyo va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi bozoriga kirish mumkin.

II BOB. ANGREN ERKIN IQTISODIY HUDUDIDA INVESTITSIIYA LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH AMALIYOTI TAHLILI

2.1. O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi va ularning faoliyati tahlili

Ma'lumki, O'zbekiston davlati Evro-Osiyo Iqtisodiy Hamkorlik tashkilotining a'zosi hisoblanadi. Bu tashkilotga a'zo mamlakatlar o'rtasida savdo va iqtisodiy aloqalarni, hech qanday to'siqlar va cheklovlarsiz eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish, bojxona ittifoqi va EIZlar tashkil etilishini, qolaversa, ikki tomonlama yoki barcha a'zo mamlakatlar o'rtasida imtiyozli savdo shartnomalari tuzilishi va amalga oshirilishini ko'zda tutadi. Shu hisobdan olib qaraganda, O'zbekistonning ham a'zo mamlakat sifatida ushbu maqsadlarga hamohang tarzda harakat qilishi, ilgari surilayotgan imtiyozli shartlar asosida tuzilayotgan istiqbolli shartnomalarda ishtirok etishi, ishtirokchi mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirishni talab etadi. Mamlakatimizda EIZlarni tashkil etish va rivojlantirish oson kechishi, tabiiy. Chunki, ular bilan bog'liq har qanday jarayon qonuniy jihatdan mustahkamlanib qo'yilgan. Amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar qatoriga, faqat mavjud qonunlarning amalga tatbiqini ta'minlash, EIZlarni tashkil etish, xorijiy investorlarni keng jalb etish, chet el kapitali va ilg'or zamonaviy texnologiyalarni yurtimizga olib kirilishini qo'llab-quvvatlash hamda ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilishidan iborat. Bu borada O'zbekistonning qulay strategik geografik joylashuvi, Markaziy Osiyo mamlakatlariga har tomonlama qulay joylashganligi uning investitsiya imkoniyatlarini yanada oshirishi, tabiiydir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan investitsiya siyosatida EIZlarni tashkil etish va rivojlantirish muhim o'rin egallamoqda va unga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrda qabul qilingan «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish

to'g'risida»gi Farmoniga⁴² ko'ra, Navoiy shahrining xalqaro aeroporti hududida «Navoiy» EIIZ tashkil etilgan bo'lsa, 2012 yil 13 apreldagi «Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi farmoniga ko'ra, Toshkent viloyatida MIZ tashkil etildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 18 martdagi «Jizzax» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonlarda qator imtiyozlar nazarda tutilgan. Ushbu zonalar uchun zarur tashqi muhandislik va transport infratuzilmasi to'liq respublikamiz mablag'lari hisobidan barpo etilmoqda.

Ushbu hududlarning faoliyat ko'rsatish muddati 30 yilni tashkil etib, keyinchalik uzaytirilishi mumkin. Mazkur hududlarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad belgilab olindi va ularga kiritiladigan investitsiyalar miqdoriga qarab alohida soliq, bojxona imtiyozlari belgilab qo'yildi. «Angren» MIZsida taqdim etilayotgan imtiyozlar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda kuchli rag'batlantirish tizimiga ega bo'ladi.

«Navoiy» EIIZda faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlariga alohida huquqiy tartib, ya'ni ularning hududga kirishi, hududda bo'lishi va chiqib ketishi, shuningdek ular tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishlari uchun ruxsatnomalar olishning soddalashtirilgan tartibi joriy etildi. Bu imtiyozlarning barchasi faqat EIIZ hududida faoliyat ko'rsatayotgan va EIIZ Direktsiyasi tomonidan ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun taalluqli ekanligi belgilab qo'yildi. EIIZ rezidentlari tomonidan kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiya miqdoriga qarab imtiyoz berildi.

O'tgan yillarda Investitsiya dasturi doirasida 150 dan ziyod ishlab chiqarish yo'nalishidagi loyihani amalga oshirish ishlari nihoyasiga etkazildi. Bular qatorida Toshkent issiqlik elektr markazida kogeneratsion gaz turbinali texnologiyani joriy etish; Janubiy O'rtabuloq-Muborak gazni qayta ishlash zavodi gaz quvurini va kompressor stantsiyasini barpo etish orqali Somontepa va Janubiy O'rtabuloq konlarini to'liq jihozlash; «Angren» konini

⁴² www.lex.uz/home. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

modernizatsiya qilish orqali Yangi Angren issiqlik elektr stantsiyasining 1-5-energiya bloklarini yil davomida ko'mir bilan ishlashga o'tkazish; «Angren» MIZ hududida «Ohangaron» podstantsiyasini rekonstruktsiya qilish, «Bekobod tsement» ochiq aktsiyadorlik jamiyatida yangi liniya qurish hisobidan faoliyat ko'rsatayotgan tsement ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish, «Quyuv-mexanika zavodi» shu'ba korxonasida metall quyishni rekonstruktsiya qilish va boshqa yirik loyihalar borligini alohida qayd etish lozim.

Buning amaliy tasdig'ini «Navoiy» va «Angren» industrial zonolari faoliyati misolida ko'rish mumkin. «Navoiy» EIIZ tashkil etilganidan buyon uning hududida umumiy qiymati 100 million dollardan ziyod bo'lgan 19 ta investitsiya loyihasi bo'yicha ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirildi. Jumladan, yuksak texnologiyalar asosida modem va televizorlar uchun pristavkalar, elektron hisoblagichlar, yuqori kuchlanishga chidamli kabellar, issiqlik va suv isitish qozonlari, mobil va statsionar telefon apparatlari, tayyor dori vositalari va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

2013 yilda maxsus zonadagi korxonalar tomonidan qiymati 100 milliard so'mdan ziyod mahsulot ishlab chiqarildi va bu boradagi o'sish sur'ati 2012 yildagiga nisbatan 25,8 foizni tashkil etdi.

«Angren» MIZsi hududida qisqa muddatda umumiy qiymati qariyb 44 million dollar bo'lgan 5 ta loyiha asosida energiyani tejaydigan diodli yorug'lik lampalar, turli kattalikdagi mis quvurlar, ko'mir briketlari kabi yuksak texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, shakar ishlab chiqarish bo'yicha yangi zavod va boshqa korxonalar tashkil etildi.


Ayni shu yo'nalishda to'plangan tajribani hisobga olib, o'tgan yilning mart oyida Jizzax viloyatida «Jizzax» MIZsi tashkil etilib, Sirdaryo viloyatida bu zonaning filiali faoliyat ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda «Jizzax» MIZsi hududida transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. O'tgan yilning o'zida mazkur zona hududida Xitoy

kompaniyalari ishtirokida 100 ming dona mobil telefon ishlab chiqarish, shuningdek chorva mahsulotlarini qayta ishlash va ozuqa tayyorlash bo'yicha umumiy qiymati qariyb 6 million dollar bo'lgan dastlabki 3 ta loyiha amalga oshirildi.

Navoiy viloyati anchagina tabiiy boyliklarga boy, uning hududida Navoiy kon metallurgiya kombinati, «Navoiyazot», «Qizilqumtsement», «Amantaytau Goldfields» va boshqa shular kabi yirik sanoat ob'ektlari joylashgan. Viloyat yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi ko'rsatkichi bo'yicha esa mamlakatda etakchilik qiladi⁴³. Viloyat eng sanoatlashgan mintaqaga hisoblanadi.

Navoiy viloyatiga kiritilgan umumiy to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tahlili natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, «Navoiy» EIIZda joylashgan Karmana tumaniga 2009 yidan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib kelish hajmi oshgan (2.1-rasm).



2.1-rasm. Navoiy viloyati tumanlariga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (mln. so'mda)⁴⁴

⁴³ www.gazeta.uz. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

⁴⁴ Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida magistr tomonidan tuzildi. (<http://karmana.uz/>; <http://ru.wikipedia.org/wiki/>; <http://www.navoi.uz/ru/>).

EIIZ tashkil etilgandan so'ng, 2009 yilda viloyatga kirib kelgan jami to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 13,2%, 2013 yilda esa, 90% aynan Karmana tumaniga kiritilgan. Navoiy viloyatining 2014 yilgi «To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish dasturi» quyidagi 2.1-jadvalda keltirilgan:

2.1-jadval


Navoiy viloyatining 2014 yilgi «To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish dasturi»⁴⁵

Loyiha nomi, tashabbuskori va manzili	Shahar/ tuman nomi	Xorijiy hamkor/ kreditor nomi	Loyihaning umumiy qiymati
Viloyat bo'yicha jami			29472,5
«Navoiy progres servis» MChJ negizida avtomobil ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish va issiqxona tashkil qilish	Navoiy shahri	«WAN XAR» (Xitoy Xalq Respublikasi)	1000,0
«ATSM» OAJ negizida aholi transport vositalariga gaz qo'yish shaxobchasini tashkil etish	Navoiy shahri	«Koa C&D Co.Ltd» (Janubiy Koreya)	1282,5
«Baxt Tekstil» qo'shma korxonasida kalava ip ishlab chiqarish bo'yicha modernizatsiya loyihasi	Navoiy shahri	«Tdel» MChJ (Rossiya)	3000,0
«Xosil Garova Ishonchi» xususiy korxonasi tomonidan har xil turdagi tayyor mato va gazlamalar ishlab chiqarish	Navoiy shahri	Izlanmoqda	1040,0
«So'g'diyona» MChJda muzqaymoq ishlab chiqarish	Zarafshon shahri	«Guangzhou Fortuna Impex Trading Co. Ltd.» (Xitoy Xalq Respublikasi)	160,0
«Zilola» MChJda temir beton mahsulotlari ishlab chiqarish	Navbahor tumani	Kitayskaya kreditnaya liniya kompanii «Uzbeklizing»	400,0
«Zafar Granit» MChJ negizida marmar harsanglarini qazib olish va qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi qo'shma korxona tashkil etish	Nurota tumani	«Hingiang technology» (Xitoy Xalq Respublikasi)	155,0
«NUROTA TEXTILE» MChJ da tayyor tikuv mahsulotlari ishlab chiqarish	Nurota tumani	«Tdel» MChJ (Rossiya)	151,0
«Konchi» kichik korxonasida marmar xarsanglarini qazib olish va qayta ishlash	Nurota tumani	«Vichuga» MChJ (Rossiya)	151,0
«Marziyaxonim» MChJ tomonidan trikotaj mato ishlab chiqarishni tashkil etish	Karmana tumani	Xitoy kredit liniyasi	1032,0
«Qizilqum Vuulteks» qo'shma korxonasi negizida junni bo'yash va to'qishni tashkil qilish	Konimex tumani	Xitoy kredit liniyasi	1650,0
«Ipakchi» MChJ tomonidan ipak tolasi ishlab	Qiziltepa	«Bedil menirel	324,0

⁴⁵ <http://www.navoi.uz/uz/aboutnavoi/potential/programm/>. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

chiqarish	tumani	treding» LLC (Birlashgan Arab Amirligi)	
«Rustam Doston Tuz» MChJ tomonidan tuzni qayta ishlashni tashkil qilish	Uchquduq tumani	Izlanmoqda	350,0
«Ravshan Gulshan Ravnaki» MChJ tomonidan tuzni qayta ishlashni tashkil qilish	Uchquduq tumani	Izlanmoqda	700,0
«Xatirchi ip-gazlama» MChJda mayin tolali kalava ip ishlab chiqarish 1-bosqichi	Xatirchi tumani	Izlanmoqda	17177,0
«Sayfiddin Savdo Invest» MChJga qarashli bo'sh turgan binida tayyor kiyim kechak tikishni tashkil qilish	Xatirchi tumani	Izlanmoqda	900,0

2009-2014 yillarda O'zbekistondagi EIZlarda umumiy qiymati 43346,7 mln AQSh dollarini tashkil etgan 40 ta loyiha moliyalashtirildi. Bunda Navoiy EIIZga jami loyihalarning 47,5 foizi, moliyalashtirish hajmlarining esa 64,5 foizi to'g'ri keladi (2.5-rasm). Ushbu loyihalar tarkibida «UzEraeCable», «GM-Uzbekistan», «SamAuto», «UzKoje», «Landi Renzo S.p.A.», «Avtosanoat – Landi Renzo», «EGL-NUR», «EG Lightings», Hangzhou zhongwu electronic meters co.Ltd kabi xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarni alohida tilga olish mumkin.



2.2-rasm. 2009-2014 yillarda O'zbekistonda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshirilgan loyihalar soni va moliyalashtirish hajmlari⁴⁶

O'zbekistonda EIZlarning rivojlanishi zarur iqtisodiy, ijtimoiy va geografik omillarning mavjudligiga va birligiga bog'liq bo'ladi. Ular jumlasiga

⁴⁶ http://uzbekistan.org.ua/ru/news/economical_news/3390.html; UzDaily.uz. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

mamlakatdagi iqtisodiy kon'yunkturaning umumiy holati, ichki xo'jalik mexanizmining EIZ mexanizmi bilan mos kelish darajasi, infratuzilma, zarur tabiiy va mehnat resurslarining mavjudligi va holati kiradi.


Mamlakatimizda EIZlar faoliyatining rivojlanishi, o'z navbatida, yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmi va sanoat ishlab chiqarishning ham taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, 2014 yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti hajmi 144867,9 mlrd. so'mni tashkil etdi, bu 2013 yilning shu davridagi ko'rsatkichdan 8,1 foizga yuqoridir. Joriy davrda sanoatdagi o'sish 8,3 foizni tashkil etdi, bu yalpi ichki mahsulot o'sishining asosiy omillaridan biridir.

2010-2014 yillarning yanvar-dekabr oylarida yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning o'rtacha o'sishi yiliga 8,2 foizni tashkil etdi, ayni paytda sanoatda ishlab chiqarish hajmi sustroq o'sib, 8,1 foizni tashkil etdi. Agar 2010-2012 yillar davomida yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari sanoatdagi o'sish sur'atlaridan muntazam oshgan bo'lsa, so'nggi 2 yilda sanoatdagi ishlab chiqarish o'sish sur'atlari yalpi ichki mahsulot bilan solishtirganda yuqoriroq bo'lgan. 2014 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot hajmi 2010 yil yanvar-dekabr oylaridagi hajmdan 36,8 foizga oshdi, sanoat mahsulotlari hajmi esa 36,3 foizga yuqori bo'ldi.

2014 yilda qora metallurgiya (ishlab chiqarish hajmi 2013 yilgi ko'rsatkich bilan solishtirganda 116,5 foizni tashkil etdi), engil sanoat (116,1 foiz), mashinasozlik va metallga ishlov berish (113,5 foiz), yog'ochni qayta ishlash va tsellyuloza-qog'oz sanoati (112,3 foiz) hamda qurilish materiallari sanoati (110,7 foiz) kabi sanoatning tuzilma hosil qiluvchi tarmoqlari dinamik rivojlanishi ta'minlandi.

2011-2014 yillar davomida ishlab chiqarish hajmining o'rtacha yillik o'sishi mashinasozlik va metallga ishlov berish (16,1 foiz), yog'ochni qayta ishlash va tsellyuloza-qog'oz sanoati (13,6 foiz), qurilish materiallari sanoati (12,6 foiz) hamda engil sanoat (11,2 foiz) singari tarmoqlarda yuqori bo'ldi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida mashinasozlik va metallga ishlov berish eng katta ulushga ega. 2014 yil yanvar-dekabr oylarida tarmoq ulushi umumiy hajmda 19,7 foizni tashkil etdi (2013 yil yanvar-dekabr oylarida 18,8 foiz). Oziq-ovqat (16,0 foiz), engil (14,0 foiz) va yoqilg'i (13,1 foiz) sanoati ham katta ulushga ega.



2.3-rasm. Sanoatda ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, 2011-2014 yillarning yanvar-dekabr oylarida⁴⁷

Respublikada EIZ tashkil etish va rivojlantirishda ularni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni aniqlashtirib olish lozim. Bizning fikrimizga, bunday shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- transport aloqalarining qulayligi, masalan, xalqaro aeroportlarga yaqin joylashganligi, EIZga kerakli texnika, mashina, asbob-uskunalar, xom ashyo va materiallarni o'z vaqtida qabul qilish imkonini beradi;
- bozorga yaqinlik, transport va sug'urta xarajatlarini kamaytirish imkoniyatini beradi;
- tabiiy resurslarning mavjudligi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish natijasida tovarlar raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi;
- yuqori malakali va nisbatan arzon ishchi kuchining mavjudligi.

⁴⁷ www.stat.uz sayti ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

Albatta, mazkur omillar xorij investitsiyalarini jalb qilishda asosiy omillardan biri bo'la oladi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda EIZni tashkil etishning muhim sharti, bu mamlakatimizning geografik joylashuvidir. O'zbekiston hududi ko'pgina mamlakatlar bilan keng chegaraga ega, bu esa uning jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtirish uchun sharoit yaratadi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekistonning qulay geografik joylashuvi, uning ko'pgina mamlakatlar bilan olib boradigan faoliyat sohalarini kengaytirishga va jahon bozoriga yaqinlashishiga, buning natijasida esa, transport xarajatlarini kamaytirishga imkon yaratadi.

O'zbekiston O'rta Osiyoning markazida joylashgan bo'lib, undan ikki katta daryo Amudaryo va Sirdaryo oqib o'tadi. O'zbekiston Shimol va Shimoliy-G'arbda Qozog'iston bilan 2,203 km uzunlikda, janubiy G'arbda Turkmaniston bilan 1,621 km uzunlikda, shimoliy Sharqda Qirg'iziston bilan 1,099 km uzunlikda, janubiy Sharqda Tojikiston bilan 1,161 km uzunlikda, janubda esa Afg'oniston bilan 137 km uzunlikdagi chegaralar bilan o'ralgan. Chegaraning umumiy uzunligi 6221 km ni tashkil etadi⁴⁸.

O'zbekiston xorijiy investorlarni kutib olish va ularga xizmat ko'rsatishi uchun bir qancha xalqaro aeroportlarga ega. O'zbekiston aeroportlar tarmog'i davlat transport infratuzilmasining muhim qismi bo'lib, respublika ichidagi shaharlar va xorijiy mamlakatlar o'rtasida tezkor aloqalarni o'rnatadi. «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi tarkibiga 12 ta aeroport kiradi. Ulardan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Urgench, Termiz aeroportlari xalqaro aeroportlardir⁴⁹.

Davlatimizda transport infratuzilmasini, birinchi navbatda, avtomobil va temir yo'llarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston avtomobil yo'lining umumiy uzunligi – 184,9 ming km, shu jumladan, umumiy foydalanishda bo'lgan yo'llar uzunligi – 42,5 ming km, xalqaro ahamiyatga ega

⁴⁸ <http://ru.wikipedia.org/wiki/Uzbekistan>. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

⁴⁹ www.uzairways.com/index.aspx. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

bo'lgan yo'llar – 3626 km, davlat ahamiyatidagi yo'llar – 16909 km. ni tashkil etadi.

Bugungi kunda O'zbekiston xorijiy avto yuk tashuvchilari uchun ochiq. Bu erda 36 ta tranzit marshrutlari yo'lga qo'yilgan, Qo'ng'irod-Beynou avtomagistrali bitgach bu mashrutlar soni yana 8 taga ko'payadi. Ular Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Afg'oniston va Qozog'iston janubidagi chegaralardan o'tadi. Ayni paytda o'zbek yuk tashuvchilari yuklarni Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari bo'ylab, Evropa, Qora dengiz portlari, Boltiq bo'yi dengizi, O'rta er dengizi (Istanbul, Mersin), Fors ko'rfazi (Bender Abbas) bo'ylab tashimoqdalar. Qirg'iziston orqali Xitoyga va Afg'oniston orqali Chaxbaxo (Eron) va Karachi (Pokiston) portlariga transport koridorlari qurilish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda⁵⁰.

O'zbekistonda Osiyo va Evropani birlashtiradigan, Buyuk ipak yo'li-transport koridorini qayta tiklashga qaratilgan yangi avto trassalar qurish rejalashtirilgan. Respublikaning butun hududini kesib o'tuvchi tezkor milliy Andijon-Toshkent-Nukus-Qo'ng'irod E-40 avtomagistrali qurilishi rejalashtirilgan. Bu yo'lning umumiy uzunligi 2294 km.ni tashkil etadi, xalqaro tranzit va ichki xo'jaliklar uchun zarur bo'lgan yuk tashuvlarning asosiy qismi shu yo'l orqali tashiladi, mamlakatni Sharqiy qismini shimoliy-g'arb qismi bilan tutashtiruvchi eng qisqa yo'l bo'ladi⁵¹. Bundan ko'rinib turibdiki mazkur transkontinental magistral Xitoyni Kaspiy dengizi portlari bilan bog'laydi. Taxminlarga qaraganda, 2014-2015 yillarga mo'ljallangan dasturlar amalga oshirilsa, respublikamizda xalqaro va tranzit yuk tashuvlari o'rta hisobda 50%ga, respublika ichida avtomobil transportlari orqali yuk va passajir tashuvi o'rta hisobda 60-70% ga oshadi⁵².

O'zbekiston Sharq va G'arb o'rtasidagi bog'lovchi vosita hisoblanadi. Shu bois respublikada yangi transport kommunikatsiyalarni (xususan, temir yo'llar)

⁵⁰ <http://www.ciriuc.ru>. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

⁵¹ <http://www.ciriuc.ru>. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

⁵² http://portnews.ru/news_list. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

qurish juda dolzarb masalalardan biridir. «O'zbekiston temir yo'llari» Davlat aktsiyadorlik kompaniyasi 1994 yil 7 noyabrda O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sobiq O'rta Osiyo temir yo'llari negizida tashkil etilgan. Kompaniyaning asosiy yo'llarining umumiy uzunligi bugungi kunda 3645 kilomterga yaqinni tashkil etadi. Kompaniyada 50 mingdan ziyod kishi ishlaydi. Kompaniyaning yillik yuk aylanmasi barcha turdagi transport yuk aylanmasining 90 foizga yaqinini tashkil etadi⁵³.

O'zbekiston xilma-xil tabiiy resurslarga juda boydir. Ular ishlab chiqarish tarmoqlarini va noishlab chiqarish sohalarini rivojlanishini ta'minlab berishga qodir. Respublika tog'-kon sanoatini rivojlanishida muhim bo'lgan mineral xom ashyo bazasi zahirasi ega. Er ostida mineral xom ashyoning 94 turi bo'yicha 850 ta kon ochilgan⁵⁴. O'zbekiston foydali qazilmalarining asosiy turlari bo'yicha Markaziy Osiyoda etakchilik qiladi.

O'zbekistonda asosiy energetika resursi bo'lib tabiiy gaz hisoblanadi. Uning zahirasi 2 trln m³, shundan Sho'rtan koni - 0,5 trln m³ va Olon - 0,2 trln m³ koni, eng ko'p zahira Urga koni (1,5 trln m³), ko'mir (Angren ko'mir koni 1,9 mlrd tonna qo'ng'ir ko'mir zahirasi ega), uran rudalarining zahirasi (umumiy 230 ming t. Uran, shulardan eng yirigi Uchquduq konidir) va gidroenergiya (Chirchiq, Oxangaron, Angren), Surxondaryo daryolari va ko'pgina kichik daryolar)⁵⁵.

O'zbekistonda infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda, biroq, O'zbekistonda EIZni tashkil etishga to'sqinlik qilayotgan yana bir qancha muammolar bor. EIZni tashkil etishda asosiy to'siqlar xom ashyoga va haddan tashqari ishchi kuchiga boy bo'lgan mintaqalarda xorijiy investorlarni jalb qilishda kerakli bo'lgan transport tizimining, aloqa vositalarining etarli darajada rivojlanmaganligi, ularga xizmat ko'rsatadigan mehmonxona majmualarining kamligi, maishiy xizmat ko'rsatish darajasining

⁵³ www.railway.uz. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

⁵⁴ www.uznature.uz. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

⁵⁵ www.uznature.uz. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

pastligidir. Shuning uchun EIZ hududida, birinchi navbatda, xorij investitsiyasi yordamida injenerlik infratuzilmasi bilan bog'liq yangi ob'ektlarni qurishdan boshlash kerak: suv, aloqa tizimi, elektroenergiya, transport tizimi kabilar.

O'zbekistonda transport infratuzilmasini yanada yaxshilash va rivojlantirish uchun, bizning fikrimizcha, kelajakda istiqbolli yo'nalishlar sharoitida quyidagilarni o'z ichiga qamrab olishi kerak:

- zamonaviy yo'l transport majmuini shakllantirish va rivojlantirish;
- mamlakat transport tizimining jahon transport tizimiga integratsiyalashuvi, jahonning transport-tranzit kommunikatsiyasidagi tajribasini hisobga olgan holda yagona transport yo'llarini shakllantirish, transport majmualarining barcha sektorlarini yangi texnikalar bilan ta'minlash;
- xalqaro transport yo'lakchasi tarkibiga kiruvchi, transport potentsiali ta'minlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- xorijiy investitsiyalarni avtomobil yo'llarini reabilitatsiyalashga, temir yo'llarning ta'mirlanishi, xalqaro transport yo'llariga kiruvchi aeroportlarni qayta qurish va rekonstruktsiya ishlarini olib borish;
- xalqaro talablarni hisobga olgan holda transport majmuasining barcha tarmoqlarida faoliyat yurituvchi ishchi, texnik va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash.

2.2. Angren erkin iqtisodiy hududida amal qiluvchi imtiyozlar va rag'batlantirish omillari tahlili

Hozirgi iqtisodiy sharoitda mamlakatga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda imtiyozlar, kafolatlar va rag'batlantirish omillari muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning qonunchilik hujjatlarida chet ellik investorlar uchun ko'plab imtiyozlar va rag'batlantirish omillari mavjud. Xususan, «Boj tarifi to'g'risida»gi Qonunning 33-moddasi hamda «Chet el investitsiyalari to'g'risida» gi Qonunning 12-moddasida ustav fondida chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

tomonidan ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil davomida o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan mol-mulk boj undirishdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ozod qilinadi. Chet ellik investorlarning va chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqarolarining shaxsiy ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkdan boj undirilmasligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi «To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4434-son Farmoniga asosan xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSh dollaridan kam bo'lmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligida o'zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish aylanmasi), mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi, shuningdek Respublika yo'l jamg'armasiga hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashning mazkur korxonalar davlat ro'yxatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yorlari va qoidalarini qo'llanilishi mumkinligi belgilandi.

«Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi Qonunning 10-moddasiga muvofiq chet el investitsiyalari bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq nizo (investitsiyaga oid nizo), taraflar kelishuviga ko'ra, ular o'rtasidagi maslahatlashuvlar orqali hal etilishi mumkin. Agar taraflar kelishilgan hal qiluvga erisha olmasalar, bunday nizo O'zbekiston Respublikasining xo'jalik sudi tomonidan yoxud hakamlik vositasida investitsiyaga oid nizolarni hal etishga doir O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro shartnomalarning (bitimlar va konventsionalarning) qoidalari

va tartibotiga muvofiq hal etilishi lozim. Investitsiyaga oid nizoga jalb etilgan taraflar o'zaro kelishuvga ko'ra bunday nizoni ko'rib chiquvchi organi, shuningdek investitsiyaga oid nizo bo'yicha hakamlik sudlovini amalga oshiruvchi mamlakatni aniqlashlari mumkin. Chet ellik investorlarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi investitsiya faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan nizolarni O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi, shartnomada nizolarni hal qilishning xalqaro huquq normalariga muvofiq o'zga tartibi nazarda tutilgan hollar bundan mustasnodir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 20 avgustdagi 357-son qarori bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida»gi Nizomning 5-bandiga asosan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligida va viloyatlar adliya boshqarmalarida davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik uchun xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalardan – eng kam oylik ish haqining besh baravari, shuningdek 500 AQSh dollari miqdorida davlat boji to'lanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda tashkil etilgan EIHlarda imtiyozlarning keng ko'lami yaratildi. Jumladan, Angren MIZda ham investorlarning erkin faoliyat yuritishlari, ishlab chiqarishni intensiv asosda rivojlantirish, og'ir va engil sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qancha Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari qabul qilindi.

Yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, shuningdek Toshkent viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish, shu asosda yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 apreldagi «Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi PF-

4436-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon asosida «Angren» MIZ faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari, zonaning faoliyat yuritish muddati, maxsus soliq tartibi va bojxona imtiyozlari belgilab berildi.

Jumladan, «Angren» MIZ faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- ichki va jahon bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni barpo etish va ularning samarali faoliyat yuritishi uchun investitsiyalar, eng avvalo to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish borasida qulay shart-sharoitlarni shakllantirish;


- MIZga kiruvchi mintaqaning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash, mineral-xom ashyo resurslarini yanada chuqurroq qayta ishlash bo'yicha yangi ishlab chiqarishlarni barpo etish;

- MIZ va umuman respublika korxonalari o'rtasida mustahkam kooperatsion aloqalar o'rnatish hamda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida mahalliy xom ashyo va materiallar negizida yuksak texnologiyali mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

- transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hamda samarali foydalanish, «Angren» logistika markazi salohiyatini, yuklarni avtomobil va konteynerlarda tashish borasida yaratilgan tizimni yanada rivojlantirish hamda ulardan keng ko'lamda foydalanishni ta'minlash.

Yuqoridagi Farmonga ko'ra «Angren» MIZning faoliyat yuritish muddati 30 yilni tashkil etadi va bu muddat keyinchalik uzaytirilishi mumkin. «Angren» MIZsi uchun zarur tashqi muhandislik va transport infratuzilmasi to'liq respublikamiz mablag'lari hisobidan barpo etilmoqda. Ushbu omil ham, albatta, investorlar uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki zarur tashqi muhandislik va transport infratuzilmasi investorlarning investitsiyalarni amalga oshirish samarasiga bevosita bog'liqdir.

«Angren» MIZda amal qiluvchi imtiyozlarni quyidagicha tasvirlash mumkin:



2.4-rasm. «Angren» maxsus industrial zonasi qatnashchilariga berilgan imtiyozlar va rag'batlantirish omillari⁵⁶

Shuningdek, O'zbekistonda EIZlarni tashkil etish va ular faoliyatini rag'batlantirishning qo'shimcha omillari dissertatsiyaning 2-ilovasida aks ettirilgan.

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 apreldagi «Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi PF-4436-sonli Farmoni asosida shakllantirildi.

Bizning fikrimizcha, Angren MIZda kichik biznes sub'ektlari eng kamida 300 ming AQSh dollariga teng miqdorda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni kiritilgan taqdirda yagona soliq to'lovidan imtiyozlarga ega bo'ladilar. Biroq, yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyoz olishning minimal miqdorining yuqoriligi MIZda kichik biznes sub'ektlarining iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirishga to'sqinlik qiladi. Shunga ko'ra hamda O'zbekistonda kichik biznes sub'ektlarining mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda Angren MIZda ular faoliyatini rivojlantirish maqsadida yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozlarni qo'llashda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining eng kam miqdorini 150 ming AQSh dollariga ekvivalent etib belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu esa, nafaqat yirik korxonalar, balki bu yirik korxonalarga xizmat ko'rsatuvchi kichik biznes sub'ektlarining investitsiyalarini jalb qilishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 29 maydagi «Angren» maxsus industrial zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 146-sonli qarori asosida «Angren» maxsus industrial zonasi to'g'risida»gi Nizom ishlab chiqildi. Ushbu Nizomda «Angren» MIZsi⁵⁷, «Angren» MIZning Ma'muriy kengashi⁵⁸, «Angren» MIZ direksiyasi⁵⁹, investor⁶⁰, «Angren» MIZ hududida investitsiyalash to'g'risidagi bitim⁶¹, «Angren» MIZ xo'jalik faoliyati qatnashchisi⁶², er uchastkasidan foydalanish to'g'risidagi shartnoma⁶³, «Angren» MIZ hududidagi faoliyat⁶⁴ kabi tushunchalar izohi hamda zona faoliyati tartiboti belgilab berildi.

⁵⁷ «Angren» maxsus industrial zona Ma'muriy kengashining qarorlariga binoan chegaralar bilan O'zbekiston Respublikasi Toshkent viloyati hududining bir qismi.

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan «Angren» maxsus industrial zona faoliyatini muvofiqlashtirish va davlat tomonidan boshqarish funktsiyasini amalga oshiradigan, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari vakillaridan tuziladigan kollegial organ.

⁵⁹ «Angren» maxsus industrial zona faoliyatini tezkor boshqarish uchun tashkil etiladigan davlat unitar korxonasi shaklidagi yuridik shaxs.

⁶⁰ Belgilangan tartibda tanlovdan o'tgan hamda «Angren» maxsus industrial zona hududida investitsiyalashni amalga oshiradigan investitsiya faoliyati sub'ekti.

⁶¹ Direksiya bilan investor o'rtasida tuziladigan, ularning huquqlari, majburiyati va javobgarligini belgilaydigan bitim.

⁶² Belgilangan tartibda «Angren» maxsus industrial zona hududida ro'yxatdan o'tkazilgan va Direksiya tomonidan «Angren» maxsus industrial zona qatnashchilari reestriga kiritilgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

⁶³ Toshkent viloyati hokimligi bilan «Angren» maxsus industrial zona qatnashchisi o'rtasida tuziladigan «Angren» maxsus industrial zona hududida er uchastkasidan muddatli foydalanish to'g'risidagi shartnoma.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 17 avgustdagi «2013-2015 yillarda «Angren» maxsus industrial zonasining transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 247-sonli qarori MIZ taraqqiyotda muhim o'rin tutadi. Chunki MIZ hududida yangi korxonalar barpo etish, o'z navbatida, transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishni talab qiladi. Bu omil investorlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Har yili Angren shahridagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini uch ming nafardan ortiq yigit-qiz bitiradi. Yangi korxonalarning ishga tushirilishi shahar aholisini, ayniqsa, bitiruvchi yoshlarni ish bilan ta'minlash, daromadini ko'paytirish, hududni obodonlashtirish imkonini bermiqda.

Ushbu qaror hamda aholi farovonligini ta'minlash maqsadida Angrenda milliy an'analar va zamonaviy shaharsozlik talablariga muvofiq, shahar arxitekturaviy qiyofasini tubdan yaxshilash hamda obodonlashtirish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish yuzasidan ko'plab qurilish, ta'mirlash va rekonstruktsiya ishlari amalga oshirilmoqda. Farg'ona vodiysi bilan Toshkent shahrini o'zaro bog'lovchi ko'prik hisoblanuvchi Angren shahrida yo'l-transport tizimi yaxshilandi, qariyb, 7 km markaziy ko'chalar joriy ta'mirlandi.

Ta'kidlash joizki, Angren MIZsi rezidentlariga xom ashyo, ehtiyot va butlovchi qismlar etkazib beruvchi mahalliy korxonalarga maxsus imtiyozlar va rag'batlantirish omillarini joriy etilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday holat Angren MIZda faoliyat yuritayotgan chet el kompaniyalari bilan mahalliy korxonalar o'rtasida aloqalar o'rnatilishi, o'z navbatida, mahalliy ishlab chiqarishlarda eksportga yo'naltirilganlik, aholini ish bilan ta'minlash kabilarga olib keladi.

⁶⁴ «Angren» maxsus industrial zona qatnashchisining «Angren» maxsus industrial zona hududi doirasida investitsiyalash to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan tovarlar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda qayta ishlash, shuningdek ularni sotish bo'yicha xo'jalik faoliyati.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 3 oktyabrda
«Investitsiya loyihalarini tanlab olish va «Angren» maxsus industrial zonasi
qatnashchilarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash
haqida»gi 282-sonli Qarori asosida «Investitsiya loyihalarini tanlab olish va
«Angren» maxsus industrial zonasi qatnashchilarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi
to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi. Unga ko'ra «Angren» MIZda amalga oshirish
uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish ikki bosqichda amalga oshiriladi.
Birinchi bosqichda investor Direktsiyaga «Angren» MIZ hududida ishlab
chiqarishni joylashtirish yuzasidan, Ma'muriy kengash tomonidan
tasdiqlanadigan shakl bo'yicha to'ldirilgan investitsiya buyurtmanomasini
taqdim etadi. Ikkinchi bosqichda ishchi organ investitsiya buyurtmanomalarini
Ma'muriy kengashga ko'rib chiqish uchun belgilangan tartibda kiritadi.

Mis xom ashyosini yanada chuqur qayta ishlash hamda ichki va tashqi
bozorlarda raqobatbardoshli, yuqori qo'shilgan qiymatli, sanoatning yuqori
texnologiyali tarmoqlarida barqaror ravishda talab qilinadigan tayyor
mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 29 maydagi «Angren» maxsus industrial zona
hududida turli diametrli mis quvurlar ishlab chiqarishni tashkil etish»
investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 146-sonli
qarori asosida 35,48 mln AQSh dollariga teng bo'lgan miqdordagi texnik-
iqtisodiy asoslashi ishlab chiqildi va u vakolatli organlarda belgilangan tartibda
ekspertizadan o'tkazildi. Ushbu loyihani moliyalashtirish manbalari bo'lib:
«Olmaliq KMK» OAJning 10,28 mln AQSh dollariga teng summadagi o'z
mablag'lari, jumladan maxsus investitsiya hisob raqamlari mablag'lari; «Ipoteka
bank» ATIBning 7 yil muddatga, shu jumladan 3 yildan iborat imtiyozli davrga,
6,0 yillik foiz stavkasi bilan berilayotgan 12,27 mln AQSh dollari summasidagi
kredit; «Ipoteka bank» ATIBning 7 yil muddatga, shu jumladan 3 yildan iborat
imtiyozli davrga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta

moliyalashtirish stavkasidan oshmaydigan foiz stavkasi⁶⁵ bo'yicha berilayotgan 12,93 mln AQSh dollariga teng summada milliy valyutadagi krediti.

Ushbu hujjat ijrosi doirasida «Angren quvur zavodi» unitar korxonasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Hududda mis quvurlari ishlab chiqarishni tashkil etish, eksportini yo'lga qo'yish, tayyorlanayotgan shu tur mahsulot nomenklaturasini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, mis mahsulotida yuqori qo'shimcha qiymatni ta'minlash kabi maqsadlarda tashkil etilgan mazkur korxona yiliga sakkiz ming tonna turli o'lchamdagi mis quvurlari ishlab chiqarish quvvatiga ega. Ayni kunda korxona mahsulotining 90 foizi eksport qilinmoqda. Ta'kidlash joiz, «Angren quvur zavodi» uchun zarur bo'ladigan xomashyoning asosiy qismi «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» OAJdan olinmoqda.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi va avtomobil shinalari, konveyer lentalarini ishlab chiqarilishini tashkil etish va shuning asosida respublikaning yuqori texnologiyali sanoat korxonalarini raqobatbardosh mahsulotlar bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash va daromadini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda ««Angren» erkin industrial zonasi hududida rezinotexnika buyumlari zavodi qurilishini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2269-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda «Angren» EIZ hududida konveyer lentalarini, qishloq xo'jaligi va avtomobil shinalari ishlab chiqarishni tashkil etish» loyihasini moliyalashtirish manbalari belgilab berildi, xususan, «Angren» MIZ hududida konveyer lentalarini, qishloq xo'jaligi va avtomobil shinalari ishlab chiqarishni tashkil etish» loyihasini amalga oshirish doirasida:

– respublikada ishlab chiqarilmaydigan uskunalar, mashina va mexanizmlar, butlovchi buyum va uzellar, ehtiyot qismlar, xom ashyo va materiallar, texnologik jihozlar, shuningdek «Poly Technologies Inc.» kompaniyasi va uning yordamchi pudratchi tashkilotlari O'zbekiston

⁶⁵ Bunda inflyatsiya darajasi, pul massasi va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning maqsadli parametrlaridan kelib chiqib, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 2014 yilning 1 yanvaridan yillik 12 foizdan 10 foizga tushirildi va yil davomida o'zgartirilmagan holda saqlab turildi. 2015 yilning 1 yanvaridan ushbu stavka 9 foiz qilib belgilandi.

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar asosida olib keladigan yoqilg'i-moylash mahsulotlari va metall prokat uchun 2020 yilning 1 yanvariga qadar boj to'lovlari (bojxona yig'imlaridan tashqari) to'lashdan;

– 2018 yilning 1 yanvarigacha Direktsiya va «Poly Technologies Inc.» kompaniyasi hamda uning yordamchi pudratchi tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar asosida o'zlarining doimiy muassasalari orqali vaqtincha olib keladigan uskunalar, maxsus texnika, mashina va mexanizmlar uchun davriy to'lanadigan boj to'lovlaridan;

– yordamchi pudratchi transport kompaniyalari – O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga kirish yig'imini to'lashdan va O'zbekiston Respublikasining umum foydalanadigan avtomobil yo'llaridan og'ir yukli va yirik gabaritli transport vositalarining yurishi uchun to'lovlardan;

– O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan bajariladigan ish (xizmat)lar, shuningdek mahalliy ta'minotchi va yordamchi pudratchi tashkilotlarning «Poly Technologies Inc.» kompaniyasiga amalda O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqilmasdan sotadigan tovar (ish, xizmat)lar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan;

– «Poly Technologies Inc.» kompaniyasi va uning yordamchi pudratchi tashkilotlari, chet el moliya institutlari va konsalting kompaniyalari, shuningdek ularning doimiy muassasalari – O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan barcha soliqlardan (shu jumladan to'lov manbaidan undiriladigan foyda solig'ini to'lashdan);


– O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar – loyihani amalga oshirish doirasida olinadigan jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lashdan;

– ko'rsatilayotgan xizmatlar, olib kelinayotgan tovarlar, uskunalar, mashina va mexanizmlar, butlovchi buyum va uzellar, ehtiyot qismlar, xom ashyo, materiallar va texnologik jihozlarni O'zbekiston Respublikasining vakolatli

organlarida litsenziyalash va sertifikatlash uchun yig'imlar, davlat bojlari va to'lovlar to'lashdan;

– respublikada tegishli akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari bo'lmagan taqdirda, import qilinadigan uskunalar, asboblari, xom ashyo va materiallar, istisno tariqasida, majburiy sertifikatlash jarayonidan ozod etildi.

Ko'rib turganingizdek, chet ellik sarmoyadorlarga ana shunday imtiyozlarning berilishi, albatta, jami investitsiyalar hajmida xorijiy investitsiyalar ulushining o'sib borishini ta'minlaydi. Agar statistik ma'lumotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2014 yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSh dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2010 yilda 9 milliard 700 million AQSh dollarini tashkil etgan edi. 2014 yilda jami kapital qo'yimlarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rt dan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir (2.5-rasm).



2.5-rasm. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami investitsiyalar hajmidagi salmog'i, foizda⁶⁶

Prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, 2015 yilda ko'zda tutilayotgan kapital qo'yimlar hajmi AQSh dollari hisobida 15 milliard 960 million dollarni yoki 2014 yilga nisbatan 110,1 foizni tashkil etadi. Uning yalpi ichki mahsulotdagi

⁶⁶ www.stat.uz. sayti ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

ulushi esa 23,1 foizga etadi. Ushbu mablag'larning 74,5 foizga yaqini ishlab chiqarish ob'ektlari qurilishiga, 43,1 foizi asbob-uskunalar sotib olishga yo'naltiriladi. Chet el investitsiyalari hajmi 3,5 milliard dollardan oshib, ularning umumiy kapital qo'yilmalar hajmidagi ulushi 22,1 foizni tashkil etadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi esa 11,2 foizga ko'payadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Angren MIZda amal qiluvchi imtiyozlar va rag'batlantirish omillari, o'z navbatida, Angren MIZsi hududida tashkil etiladigan korxonalar va ishlab chiqarishlar yuqori texnologiyali bo'lishi hamda mintaqaning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanilishini, mineral-xom ashyo resurslarining yanada chuqur qayta ishlanishini, yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan, ichki bozorlarda va jahon bozorlarida raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarilishini, ishlab chiqariladigan mahsulotning ma'lum qismini eksportga etkazib berilishini ta'minlaydi.

Bir so'z bilan aytganda, yangi maxsus markaz bu borada ham muhim rol egallashi turgan gap. Umuman, O'zbekistonda tashkil etilgan iqtisodiy zona to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirish hamda yangi ish o'rinlarini tashkil etishga xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, Angren shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

2.3. Angren erkin iqtisodiy hududida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining amaldagi holati tahlili

Ma'lumki, «Angren» MIZ yuqori qiymatga ega bo'lgan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, shuningdek Toshkent viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali

foydalanish, shu asosda yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida tashkil etildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

Mavjud tartibga muvofiq birinchi bosqichda investor «Angren» MIZ Direktsiyasiga «Angren» MIZ hududida ishlab chiqarishni joylashtirishga to'ldirilgan investitsiya buyurtmasini taqdim etadi. Unga quyidagilar ilova qilinadi: yuridik shaxs ro'yxatdan o'tkazilgan joy bo'yicha savdo reestridan muassis to'g'risida ko'chirma yoki ushbu yuridik shaxsning faoliyatini tasdiqlaydigan boshqa hujjat; taklif etiladigan loyihaning biznes-rejasi⁶⁷; yuridik shaxsning tegishli sohada ish tajribasi mavjudligini tasdiqlaydigan ma'lumotlar, shuningdek tegishli sohada amalga oshirilgan shunga o'xshash loyihalar to'g'risidagi ma'lumotlar; oxirgi uch yil uchun moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik tashkilotining xulosasi; investorning vakolatli shaxslari imzolari namunalarini tasdiqlaydigan hujjat.

Barcha hujjatlar investorlar tomonidan Direktsiyaga taqdim etiladi. Ularning belgilangan tartibda tasdiqlangan davlat tiliga yoki rus tiliga qilingan tarjimasi ilova qilinishi kerak. Investor taqdim etiladigan ma'lumotlar va hujjatlarning ishonchliligi uchun javob beradi.

Hozirgi kunda ushbu zonada qiymati 216,2 million AQSh dollarilik 11 investitsiya loyihasi hayotga izchil tatbiq etilmoqda⁶⁸. Xususan, shakar zavodini qurish, ishlatilgan avtomobil moylarini qayta ishlash, teriga ishlov berish, turli

⁶⁷ Biznes-rejaga qo'yiladigan talablar: ishlab chiqarish rejalashtirilayotgan mahsulotning nomi, hajmi va turi; ishlab chiqariladigan mahsulotning taxminiy narxlar va u sotiladigan bozorlar, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmlari; taklif etilayotgan loyihani sotish uchun zarur infratuzilmaviy va muhandislik inshootlari; ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish uchun «Angren» MIZ hududi uchastkasining taxminiy o'lchami; loyihani amalga oshirish davrida xom ashyo bazasining hamda xom ashyo va materiallar bilan ta'minlashning kafolatlangan imkoniyati mavjudligi; ekologik talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish mo'ljallangan texnologiyaning ta'rifi; foydalanish mo'ljallangan savdo rusumi to'g'risida axborot; iqtisodiy samaradorlik hisob-kitoblari, shuningdek loyihani amalga oshirishning eng samarali texnik, tashkiliy va iqtisodiy echimi; taxmin qilingan investitsiyalarning hajmi va turi, qarzga olingan mablag'lar jalb etilgan holda moliyalashtirish manbalari va taxmin qilingan garov bilan ta'minlash; mahalliy lashtirish darajasi va dastlabki 4 belgidan biri darajasida chiqariladigan xom ashyoga taqqoslash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi kodi bo'yicha pirovard mahsulot tovar pozitsiyasining o'zgarishi; ishlab chiqarishda foydalanishga mo'ljallangan texnologik asbob-uskunaning xususiyati, uning zamonaviy sifat standartlariga muvofiqligi, loyihada xalqaro standartlarga mos keladigan sifatni boshqarish tizimining mavjudligi; tashkil etiladigan ish o'rinlari soni; tashkil etilayotgan korxonaning xodimlari shtatini jalb etilgan xodimlar umumiy sonining kamida 95 foizini O'zbekiston Respublikasi fuqarolari orasidan to'ldirish, ularga tajriba va malaka oshirish imkoniyatini berish.

⁶⁸ <http://uz.ca-news.org>. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

o'lchamdagi mis quvurlari, ko'mir briketi va sanitar-keramikalar tayyorlash hamda boshqa yo'nalishlar bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rilayotir. Ana shu istiqbolli loyihalar «O'zbekneftgaz» Milliy xolding va «O'zqurilishmateriallari» aksiyadorlik kompaniyalari, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, «O'zbekcharmpoyabzali» va Oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmalari tashabbusi hamda Janubiy Koreya, Singapur, Avstriya, Buyuk Britaniya, Bolgariya, Hindistonning etakchi firma va kompaniyalari hamkorligida ro'yobga chiqarilmoqda.

Bugungi kunda «Angren» MIZda zamonaviy, eksportga yo'naltirilgan yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, mavjud korxonalarni texnik va texnologik modernizatsiya qilishga qaratilgan 22 ta investitsiyaviy loyihani amalga oshirish ishlari boshlangan. Xususan, 2013 yilda qiymati 216 million AQSh dollariga teng 11 ta loyiha yakuniga etkazilib, ishga tushirildi.

Hozirda bir qator investitsiya loyihalarning qurilishi amalga oshirilmoqda, jumladan loyiha qiymati 108,5 million AQSh dollariga teng, kuniga 1000 tonna shakar ishlab chiqarish quvvatiga ega zavod qurilishi, loyiha qiymati 15 million AQSh dollariga teng, ishlatilgan texnik moylarni qayta ishlash zavodi qurilishi, loyiha qiymati 35,8 million AQSh dollariga teng turli xil o'lchamdagi mis quvurlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan zavod qurilishi, mamlakat aholisining ko'mirga bo'lgan bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida loyiha qiymati 3,1 million AQSh dollariga teng briket ishlab chiqarishga mo'ljallangan korxonalar barpo etilishi shular jumlasidandir.

Shunisi muhimki, «Angren» MIZda qatnashuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun «O'zbekenergo» DAK, «O'ztransgaz» kompaniyalari va Toshkent viloyat hokimligi tomonidan investitsiya loyihalari uchun zarur bo'lgan muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini ishlab chiqarish maydonchalariga tutashtirgan holda ulanishi ta'minlangan.

Qayd etish joizki, «Olmaliq tog'-metallurgiya kombinati» OAJ «Angren» MIZsi hududida mis quvurlari ishlab chiqaruvchi zavodni ishga tushirdi. Yangi zavodni qurilishi natijasida diametri 4,5 millimetrdan 50 millimetrgacha bo'lgan

mis quvurlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Ishlab chiqariladigan mahsulotning 90-95 foizi eksportga jo'natiladi. Loyi haning qiymati 35,48 million AQSh dollarini tashkil qilib, korxonaning 10,28 million AQSh dollarlik o'z mablag'lari va ATIB «Ipoteka bank»ning 25,2 million AQSh dollarlik kredit mablag'lari xisobiga moliyalashtirildi.

Xitoyning «Jiangsu Xingrong High Tech» Co., Ltd kompaniyasi texnologik dastgohlarni olib kelib o'rnatish, yig'ish va ishga tushirish ishlarini olib borgan bo'lsa, elektrotexnika bo'yicha kompleks ishlarni esa «TOSHELECTROAPPARAT» MChJ xorijiy korxonasi amalga oshirdi. Birlashgan arab amirligining «SAM Building Contracting» LLC kompaniyasi esa ishlab chiqarish binosi uchun metal va devor konstruksiyalarni hamda ular uchun dastgohlarni etkazib berish va o'rnatish ishlarini olib bordi.

Bugungi kunda «Angren» MIZ hududida xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan bir qator ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yuritib, belgilangan tartibda soliq va bojxona imtiyozlaridan foydalanmoqda. Jumladan:

– «Angren» MIZning 2013 yil 23 maydagi №02-02/1-251-sonli bayonnomasiga asosan Angren maxsus industrial zona dasturiga «Egl-nur» va «Uz-shindong silicon» mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo'shma korxonalar, «Angren quvur zavodi» unitar korxonasi, «Prista recuculing» qo'shma korxonasi, «Tiat keramik» xorijiy korxonasi 2013 yil 17 iyul oyidan kiritilgan va soliq hamda majburiy ajratmalardan imtiyoz berilgan⁶⁹;

⁶⁹ «Egl-nur» qo'shma korxonasi – ta'sischilari Yangi Angren issiqlik elektr stantsiyasi OAJ va «Eg Lightings» Co. LTD (Koreya). Korxonaning ustav kapitalida Yangi Angren issiqlik elektr stantsiyasi OAJ ulushi 49% va «Eg Lightings» Co.LTD ulushi 51%. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar xajmi 510,0 AQSh dollari. Asosiy faoliyat turi – ko'cha yoritish lampalarini ishlab chiqarish. 1 yillik loyiha quvvati – 48,0 ming dona ko'cha yoritish lampalarini ishlab chiqarish. Loyiha miqdori – 1,0 million AQSh dollari. 2013 yilda kiritilgan investitsiya summasi – 1,0 million AQSh dollari. 2013 yil avgust oyidan ish faoliyatini boshlagan. Ishlab chiqariladigan mahsulot eksport hajmi 1-yilda – 0 foiz, 2-yilda – 30 foiz, 3-yilda – 30 foizni tashkil etadi. Yaratilgan yangi ish o'rinlari – 23 ta. Berilgan imtiyoz muddati – 3 yil.

«Uz-shindong silicon» mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo'shma korxona – ta'sischilari Goskomgeologiya, OAJ «Uzmetkombinat» va «Shindong Enercominc» (Koreya). Korxonaning ustav kapitalida Goskomgeologiya ulushi 25%, OAJ «Uzmetkombinat» ulushi 25% va «Shindong Enercominc» ulushi 50%. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi 2,430,0 AQSh dollari. Asosiy faoliyat turi – texnik kremnya ishlab chikarish. 1 yillik loyiha quvvati – 5,0 ming tonna texnik kremnya ishlab chiqarish. Loyiha miqdori – 8,67 million AQSh dollari. 2013 yilda kiritilgan investitsiya summasi – 4,47 million AQSh dollari. 2013 yil iyun oyidan ish faoliyatini boshlagan. Ishlab chiqariladigan mahsulot eksport hajmi 1-yilda –100 foiz,

– O'zbekiston Respublikasi «Angren» MIZning 2013 yil 17 oktyabrda
№02-02/1-251-sonli bayonnomasiga asosan MIZ dasturiga «Bricket coal
standard» sho'ba korxonasi, «Jun long industrial» xususiy korxonasi,
«Tashkent sheke industru» MChJ, «Hamkor nur savdo» MChJ, «Ohangaron
kombikorm» MChJ 2013 yil noyabr oyidan kiritilgan va soliq xamda majburiy
ajratmalardan 3 yilga imtiyoz berilgan⁷⁰.

2-yilda – 100 foiz, 3-yilda – 100 foizni tashkil etadi. Yaratilgan yangi ish o'rinlari – 119 ta. Berilgan imtiyoz muddati – 3 yil.

«Angren quvur zavodi» unitar korxonasi - ta'sischisi Olmaliq tog'-metallurgiya kombinati. Korxonaning ustav kapitalida uning ulushi -97,5%. Asosiy faoliyat turi – mis trubalari ishlab chiqarish. 1 yillik loyiha quvvati – 8,0 ming donna mis trubalari ishlab chiqarish. Loyiha miqdori – 36,78 million AQSh dollari. 2013 yilda kiritilgan investitsiya summasi – 36,78 million AQSh dollari. 2013 yil to'rtinchi chorakdan ish faoliyatini boshlagan. Ishlab chiqariladigan mahsulot eksport hajmi 1-chi yilda – 95 foiz, 2-chi yilda – 95 foiz, 3-chi yilda – 95 foizni tashkil etadi. Yaratilgan yangi ish o'rinlari – 168 ta. Berilgan imtiyoz muddati – 7 yil.

«Tiat keramik» xorijiy korxonasi – ta'sischisi «Ttiot fs» co. ltd (Koreya). Korxonaning ustav kapitalida «Ttiot fs» co. ltd ulushi - 100 %. Asosiy faoliyat turi – sanitar keramik mahsulotlari ishlab chiqarish. 1 yillik loyiha quvvati 1-bosqichda – 510,0 ming mahsulot, 2-bosqichda – 700,0 ming mahsulot ishlab chiqarish. Loyiha miqdori – 28,8 million AQSh dollari. 2013 yilda kiritilgan investitsiya summasi – 0,5 million AQSh dollari. 2014 yilda kiritiladigan investitsiya summasi – 10,0 million AQSh dollari, 2015 yilda kiritiladigan investitsiya summasi – 18,3 million AQSh dollari. 2014 yil to'rtinchi chorakdan ish faoliyatini boshlagan. Ishlab chiqariladigan mahsulot eksport hajmi 1-chi yilda – 50%, 2-chi yilda – 50%, 3-chi yilda – 50%ni tashkil etadi. Yaratilgan yangi ish o'rinlari – 300 ta. Berilgan imtiyoz muddati – 3 yil.

«Prista recucling» qo'shma korxonasi – ta'sischisi «O'zneftmahsulot» aksiyadorlik jamiyati va «Prista recucling» ead (bolgariya). Korxonaning ustav kapitalida AJ Uzneftmahsulot ulushi 49% va «Prista recucling» korxonasi ulushi – 51 %. Asosiy faoliyat turi – texnik moylarni qayta ishlab chiqarish. 1 yillik loyiha quvvati – 43,0 ming tonna texnik moylarni ishlab chiqarish. Loyiha miqdori – 15,0 million AQSh dollari. 2013 yilda kiritilgan investitsiya summasi – 15,0 million AQSh dollari. 2013 yil dekabr oyidan ish faoliyatini boshlagan. Ishlab chiqariladigan mahsulot eksport hajmi 1-chi yilda – 40%, 2-chi yilda – 40%, 3-chi yilda – 40%ni tashkil etadi. Yaratilgan yangi ish o'rinlari – 49 ta.

⁷⁰ «Bricket coal standard» – ta'sischisi «Edenburg investment limited (Beliz). Korxonaning ustav kapitalida «Edenburg investment limited» ulushi 100%. Asosiy faoliyat turi – ko'mir briketlarini ishlab chiqarish. 1 yillik loyiha quvvati – 4,0 ming tonna ko'mir briketlarini ishlab chiqarish. Loyiha miqdori – 0,5 million AQSh dollari. 2012 yil to'rtinchi chorakdan ish faoliyatini boshlagan. Yaratilgan yangi ish o'rinlari – 25 ta. Berilgan imtiyoz muddati – 3 yil.

«Jun long industrial» xususiy korxonasi – ta'sischisi «Jun long industrial» (Xitoy). Korxonaning ustav kapitalida «Jun long industrial» ulushi 100%. Asosiy faoliyat turi – ko'mir briketlarini ishlab chiqarish. 1 yillik loyiha quvvati – 150,0 ming tonna ko'mir briketlari ishlab chiqarish. Loyiha miqdori – 3,2 million AQSh dollari. 2013 yilda kiritilgan investitsiya summasi – 0,6 million AQSh dollari. 2012 yil to'rtinchi chorakdan ish faoliyatini boshlagan. Yaratilgan yangi ish o'rinlari – 120 ta. Berilgan imtiyoz muddati – 3 yil.

«Tashkent sheke industru» mas'uliyat cheklangan jamiyati – ta'sischisi «Tashkent sheke industru». Korxonaning ustav kapitalida «Tashkent sheke industru» ulushi 100%. Asosiy faoliyat turi – charm mahsulotlarini ishlab chiqarish. 1 yillik loyiha quvvati – 30,0 mln. kv.dm charm mahsulotlarini ishlab chiqarish. Loyiha miqdori – 2,0 million AQSh dollari. 2013 yilda kiritilgan investitsiya summasi – 1,0 million AQSh dollari. 2014 yilda kiritiladigan investitsiya summasi – 1,0 million AQSh dollari. 2014 yil to'rtinchi chorakdan ish faoliyatini boshlagan. Ishlab chiqariladigan mahsulot eksport hajmi – 50%. Yaratilgan yangi ish o'rinlari – 74 ta. Berilgan imtiyoz muddati – 3 yil.

«Hamkor nur savdo» mas'uliyati cheklangan jamiyat – ta'sischisi «Hamkor nur savdo». Korxonaning ustav kapitalida «Hamkor nur savdo» ulushi 100%. Asosiy faoliyat turi – charm mahsulotlarini ishlab chiqarish. 1 yillik loyiha quvvati – 18,7 mln.kv.dm charm mahsulotlarini ishlab chiqarish. Loyiha miqdori – 1,2 million AQSh dollari. 2013 yilda kiritilgan investitsiya summasi – 0,4 million AQSh dollari. 2014 yilda kiritiladigan investitsiya summasi – 0,8 million AQSh dollari. 2014 yil to'rtinchi chorakdan ish faoliyatini boshlagan. Ishlab chiqariladigan mahsulot eksport xajmi – 50%. Yaratilgan yangi ish o'rinlari – 40 ta. Berilgan imtiyoz muddati – 3 yil.

– O‘zbekiston Respublikasi «Angren» MIZning 2014 yil 15 yanvardagi №02-02/1-251-sonli bayonnomasiga asosan MIZ dasturiga «Angren elektrodleri» va «Angren ko‘mir briket» qo‘shma korxonalari, «Vollen tex» MChJ, «Original gold keramik» xorijiy korxonasi, «Olmaliq gishtchisi» MChJ 2014 yil yanvar oyidan kiritilgan va soliq hamda majburiy ajratmalardan imtiyoz berilgan⁷¹.

Bunday loyihalarning ishga tushirilishi natijasida respublikamizda 2013-2015 yillarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish o‘rtacha yillik hajmi 110-112%, sanoat ishlab chiqarish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2015 yilda 28% ga etkazish va umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmidagi sanoat mahsulotlari eksportining 2015 yilda 63,2% gacha o‘sshi ta‘minlanadi.

«Ohangaron kombikorm» - ta‘sischisi «Ohangaron kombikorm» mas‘uliyati cheklangan jamiyati. Korxonaning ustav kapitalida «Ohangaron kombikorm» ulushi 100%. Asosiy faoliyat turi – omuxta em mahsulotlarini ishlab chiqarish. 1 yillik loyiha quvvati – 192,0 ming tonna omuxta em ishlab chiqarish. Loyiha miqdori – 11,9 million AQSh dollari. 2013 yilda kiritilgan investitsiya summasi – 3,0 million AQSh dollari. 2014 yilda kiritiladigan investitsiya summasi – 8,9 million AQSh dollari. 2014 yil ikkinchi chorakdan ish faoliyatini boshlagan. Ishlab chiqariladigan mahsulot eksport hajmi – 30 foiz. Yaratilgan yangi ish o‘rinlari – 52 ta. Berilgan imtiyoz muddati – 3 yil.

⁷¹ «Angren elektrodleri» korxonasi asosiy faoliyat turi – elektrodler ishlab chiqarish. 1 yillik loyiha quvvati – 1400 tonna elektrodler ishlab chiqarish. Loyiha miqdori – 2,61 million AQSh dollari. 2014 yilda kiritiladigan investitsiya summasi – 2,6 million AQSh dollari. 2014 yil birinchi chorakdan ish faoliyatini boshlagan. Ishlab chiqariladigan mahsulot eksport hajmi 1-chi yilda – 40 foiz, 2-chi yilda – 40 foiz, 3-chi yilda – 40 foizni tashkil etadi. Yaratilgan yangi ish o‘rinlari – 18 ta. Berilgan imtiyoz muddati – 3 yil.

«Vollen tex» mas‘uliyati cheklangan jamiyati – ta‘sischisi «Vollen tex». Korxonaning ustav kapitalida «Vollen tex» ulushi – 100 %. Asosiy faoliyat turi – gips kukunlari va gipsokarton ishlab chiqarish. 1 yillik loyiha quvvati – 20,0 ming tonna, 2,0 mln.kv.metr gips kukunlari va gipsokarton ishlab chiqarish. Loyiha miqdori – 2,59 million AQSh dollari. 2013 yil 2,59 million AQSh dollari investitsiya kiritgan. 2014 yil birinchi chorakdan ish faoliyatini boshlagan. Ishlab chiqariladigan mahsulot eksport hajmi 1-chi yilda – 32/90%, 2-chi yilda – 32/90%, 3-chi yilda – 32/90%ni tashkil etadi. Yaratilgan yangi ish o‘rinlari – 40 ta. Berilgan imtiyoz muddati – 3 yil.

«Angren ko‘mir briket» qo‘shma korxonasi – ta‘sischilari «Bradmax limited» (Velikobritaniya) va Nuriev N. Korxonaning ustav kapitalida «Angren Pola Bradmax Limited» ulushi – 99,9 % va Nuriev N. ulushi – 0,1 %. Asosiy faoliyat turi – ko‘mir briketlari ishlab chiqarish. 1 yillik loyiha quvvati – 45,4 ming tonna ko‘mir briketlar ishlab chiqarish. Loyiha miqdori – 3,1 million AQSh dollari. 2012 yil to‘rtinchi chorakdan ish faoliyatini boshlagan. Ishlab chiqariladigan mahsulot eksport hajmi 1-chi yilda – 10%, 2-chi yilda – 20%, 3-chi yilda – 30%ni tashkil etadi. Yaratilgan yangi ish o‘rinlari – 49 ta. Berilgan imtiyoz muddati – 3 yil.

«Original gold keramik» xorijiy korxonasi ta‘sischisi «Euro ceramic tradee llp». Korxonaning ustav kapitalida «Euro ceramic tradee llp» ulushi -100%. Asosiy faoliyat turi – pardoz uchun g‘isht mahsulotlari ishlab chiqarish. 1 yillik loyiha quvvati – 25,0 mln.dona g‘isht ishlab chiqarish. Loyiha miqdori – 3,4 million AQSh dollari. 2013 yilda kiritilgan investitsiya summasi – 3,18 million AQSh dollari, 2014 yilda kiritiladigan investitsiyasi summasi – 0,22 million AQSh dollari. 2014 yil iyun oyidan ish faoliyatini boshlagan. Ishlab chiqariladigan mahsulot eksport hajmi 1-chi yilda – 50%, 2-chi yilda – 50%, 3-chi yilda – 50%ni tashkil etadi. Yaratilgan yangi ish o‘rinlari – 72 ta. Berilgan imtiyoz muddati – 3 yil.

Keramik g‘ishtlari ishlab chiqarish korxonasi. Ta‘sischisi «Olmaliq gishtchisi» va «O zbekkomir». Korxonaning ustav kapitalida «Olmaliq gishtchisi» ulushi - 90% va «Ozbekkomir» ulushi - 10%. Asosiy faoliyat turi – keramik g‘ishtlari ishlab chiqarish. 1 yillik loyiha quvvati – 30,0 million dona g‘isht ishlab chiqarish. Loyiha miqdori – 4,5 million AQSh dollari. 2014 yilda kiritilgan investitsiyasi summasi – 2,5 million AQSh dollari, 2015 yilda kiritiladigan investitsiyasi summasi – 2,0 million AQSh dollari. 2015 yil to‘rtinchi chorakda ish faoliyatini boshlaydi. Ishlab chiqariladigan mahsulot eksport hajmi 1-chi yilda – 60%, 2-chi yilda – 60%, 3-chi yilda – 60%ni tashkil etadi. Yaratiladigan yangi ish o‘rinlari – 120 ta. Berilgan imtiyoz muddati – 5 yil.

2012-2013 yillarda Angren MIZsida bir qator loyihalar amalga oshirilganligini 2.2-jadval jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

2.2-jadval

2012-2013 yillarda «Angren» maxsus industrial zonasida amalga oshirilgan investitsiya loyihalari⁷²

Tashabbus ko'rsatuvchi va loyihaning nomi	Chet ellik hamkor	Loyihaning qiymati, mln. AQSh dollari
«O'zkimyosanoat» DAK		
Tugatilgan «Rezinotexnika» OAJ bazasida avtomobil shinalarini ishlab chiqaruvchi korxona	–	180,0
Yiliga 2 ming tn. quvvatga ega kremniy dioksidini (oq qurum) ishlab chiqaruvchi korxona (avtoshinalar ishlab chiqarish uchun to'ldirgich)	–	4,5
Yiliga 5 ming tn. quvvatga ega tseolitlar ishlab chiqaruvchi korxona (sintetik yuvadigan moddalar ishlab chiqarish uchun komponent)	–	3,3
«O'zavtosanoat» AK		
Quyish ishlab chiqarishini tashkil etish (tormoz diskleri, barabanlar, tsilindrlar bloklari)	–	0,8
Tormoz tizimlarni ishlab chiqaruvchi korxona (tormoz kuchaytirgichi, orqako'priknig tormoz barabana, oldingi ko'priknig supporteri)	«Erae Cs. Ltd», «KDAC» (Koreya)	25,0
«O'zeltexsanoat» uyushmasi		
Shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqaruvchi korxonani tashkil etish	«Prescient Systems» (Singapur)	0,8
Oziq-ovqat sanoati korxonalarining uyushmasi		
Yiliga 1,0 ming tn. quvvatga ega quyiltirilgan sut ishlab chiqaruvchi korxona	–	0,5
Yiliga 5,6 ming tn. quvvatga ega bo'lgan atir sovun va kir sovun ishlab chiqaruvchi korxona	–	0,6
«O'zfarmosanoat» DAK		
Tibbiyotda qo'llaniladigan flakonlar uchun tiqinlagich buyumlarni ishlab chiqaruvchi korxona	«Huaian Rich Int. Trading Co.» (Xitoy)	2,4
Farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun mutlaq (suvsiz) etil tibbiy spirt ishlab chiqaruvchi korxona	«Huaian Rich Int. Trading Co.» (Xitoy)	1,2
Bronx-o'pka kasalliklari uchun preparatlar ishlab chiqaruvchi korxona	«Kumning Pharmaceutical Corp» (Xitoy)	0,9
Savdo-sanoat palatasi		
Yiliga 2 ming ta quvvatga ega quyosh batareyalarini to'plovchi korxona (fotoelektr modullar) («Energiya ko LTD»)	–	0,6
Organik va noorganik pigmentlar va bo'yoqlar ishlab chiqaruvchi korxona («Delvita Trade» MChJ)	–	0,8

⁷² www.sizangren.uz. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

Yuvadigan va tozalaydigan vositalar ishlab chiqaruvchi korxona («Adama Production Group» MChJ)	–	0,8
Toshkent viloyati hokimligi		
Briket ko'mir va pechka ishlab chiqaruvchi korxona	–	3,2
Polipropilen qoplar ishlab chiqaruvchi korxona («Hayot I.R.J.O»)	–	1,0
Polimer-kompozit bloklar va plitalar ishlab chiqaruvchi korxona	–	5,3
Liftlar ishlab chiqaruvchi korxona («ASMOT ELEKTRIK» MChJ)	«New Yapi», «ABB Gida» (Turtsiya)	4,8
Plastik materiallar ishlab chiqaruvchi korxona (organik oyna, fomeks) («Hilton Trade»)	–	1,3
PET butilkalarni qayta ishlashni va olingan sintefondan to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish («Toshpolistekst» MChJ)	–	3,6

Izoh: «Angren» MIZ loyihalarini joylashtirish to'g'risidagi yakuniy qaror «Angren» MIZ Ma'muriy kengashi tomonidan investitsiya arizasi kiritilishi va ko'rib chiqilishiga qarab qabul qilinadi

Jadvaldan ko'rinishicha, o'tgan qisqa davrda «Angren» MIZda Janubiy Koreya, Singapur, Avstriya, Buyuk Britaniya, Bolgariya, Hindiston kabi davlatlarning etakchi firma va kompaniyalari bilan hamkorlikda turli o'lchamdagi mis quvurlar, texnik kremniy, tejamkor lampalar, ko'mir briketlari va zamonaviy qurilish-pardozlash materiallari, shuningdek shakar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar ishga tushirildi. Natijada mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi.

2.3-jadval

«Angren» maxsus industrial zonasida amalga oshirilayogan investitsiya loyihalari⁷³

№	Loyiha va tashabbus ko'rsatuvchining nomi	Xorijiy investor	Quvvati	Loyihaning qiymati (mln. doll.)	
				Jami	shu jumladan xorijiy investitsiyalar
1	«Rezinotexnika» OAJ bo'sh quvvatlar bazasida qayta ishlangan texnik moylardan bazaviy moylarni ishlab chiqaruvchi korxonani tashkil etish («Uz-Prista Recycling» qo'shma korxonasi)	«Prista Oyl» (Bolgariya)	43,0 ming tn.	15,0	7,7
2	Yangi zamonaviy shakar zavodini barpo etish («Angren shakar» mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi xususiy korxona)	«Velton International Enterprises», «Kio Investitsionniy Pte. Ltd»	bir sutkada 1000 tonna	108,5	108,5

⁷³ www.sizangren.uz. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

		(Singapur), «SEID Xandelsgez.m.b.X «(Avstriya)			
3	Ko'chani yoritish uchun energiyasini tejaydigan svetodiod chiroqlarni ishlab chiqaruvchi korxonani tashkil etish («EGL-NUR» qo'shma korxonasi)	«EG Svetilniki Co. Ltd» (Koreya)	48 ming dona	1,0	0,51
4	Turli diametrdagi mis quvurlarni ishlab chiqaruvchi korxonani tashkil etish	–	8,0 ming tn.	35,48	-
5	Texnik kremniy ishlab chiqaruvchi korxonani tashkil etish («Uz-Shindong Silicon» qo'shma korxonasi)	"Shindong Enercom Inc" (Koreya)	5,0 ming tn.	8,67	4,7
6	Terini kayta ishlash («Tashkent Sheyk Indastri» korxonasi)	–	30 mln. kv.dm	2,0	
7	Terini kayta ishlash («Xamkor Nur Savdo» korxonasi)	–	18,7 mln. kv. dm	1,2	
8	Baliq, parranda va qoramollar uchun qumoklangan kombikorm ishlab chiqarish («Ohangaron KOMBIKORM» korxonasi)	–	192,0 ming tonna	11,9	
9	Ko'mir briketlar ishlab chiqarish («Iyun Dlinnie Promishlennnie» xususiy korxonasi)	«Sintszyan Hengrui» (Xitoy)	150,0 ming tonna	3,2	3,2
10	Ko'mir briketlar ishlab chiqarish («Bricket Ugol Standart»)	«Edenburg Investment Limited» (Belize davlati)	4,0 ming tonna	0,5	0,5
11	Payvandlash elektrodlarini ishlab chiqarish («Angren elektrodleri» qo'shma korxonasi)	Assotsiatsiya «NovEl» (Ukraina)	1,4 ming tonna	2,61	0,08
12	Gips kukunlari va gips kartonlarini ishlab chiqarish («Vollen TEX» korxonasi)	–	20,0 ming tonna, 2 mln.kv.m	2,59	
13	Ko'mir briketlarini ishlab chiqarish («Angren ko'mir briket» qo'shma korxonasi)	«Bradmax Limited» (Buyuk Britaniya)	45,0 ming tonna	3,1	3,0
14	Xar xil turdagi arxitektura g'ishtlarini ishlab chiqarish («ORIGINAL zolotogo keramicheskoy» qo'shma korxonasi)	«Keramika evro treyd too» (Buyuk Britaniya)	25,0 mln. dona	3,4	1,4
15	Keramik g'ishtlarni ishlab chiqarish («Olmaliq Gishtchisi» korxonasi)	–	30,0 mln. dona	4,5	
16	Keramogranit va keramik plitkalar ishlab chiqarish	«Gulf Cable Trading Company» (Xitoy)	4,5 mln.kv.	21,1	20,9
17	Dekorativ keramik plitkalar va sanitar fayanslar ishlab chiqarish	«Hong Kong ZRSC Technology Co., Ltd.» (Xitoy)	3,5 mln. kv. 200 ming dona	7,35	7,35
18	Armatura va izolyatorlar ishlab chiqarish	«Armaturno-izolyatorniy zavod» qo'shma korxonasi	255 ming dona	4,98	3,22
19	Plastik materiallar ishlab chiqarish	–	8136 tonna	3,30	

	(«HILTON TRADE» xususiy korxonasi)				
20	Kompozit armaturalar ishlab chiqarish («JAYRON» xususiy firmasi)	–	1628 tonna	0,3	
21	Terini kayta ishlash («Toshkentim Korkim» korxonasi)	–	2,5 mln.kv dm	1,2	
22	Qishloq xo'jaligi va avtomobil shinalari, konveyer lentalarini ishlab chiqarish	«O'zkiyosanoat» DAK, «O'zavtosanoat» AK, «Olmaliq KMK» AJ va «Navoiy KMK» DK	–	183,9	
	JAMI			425,7	153,27

Jadvaldan ko'rinishicha, «Angren» MIZda rivojlangan davlatlar kompaniyalari bilan hamkorlikda yangi zamonaviy shakar zavodini barpo etish, energiya tejovchi chiroqlar ishlab chiqarish, turli hajmdagi mis quvurlarini ishlab chiqarish, terini kayta ishlash, kombikorm ishlab chiqarish, elektrodlar ishlab chiqarish, arxitektura g'ishtlarini ishlab chiqarish va plastik materiallar ishlab chiqarish muhim o'rin egallaydi. Bunda jami moliyalashtirish tarkibida mablag'larning 36 foizi xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshirilayotganligini ijobiy baholash mumkin.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa:

– O'zbekistonda EIZlarning rivojlanishi zarur iqtisodiy, ijtimoiy va geografik omillarning mavjudligiga va birligiga bog'liq bo'ladi. Ular jumlasiga mamlakatdagi iqtisodiy kon'yunkturaning umumiy holati, ichki xo'jalik mexanizmining EIZ mexanizmi bilan mos kelish darajasi, infratuzilma, zarur tabiiy va mehnat resurslarining mavjudligi va holati kiradi;

– respublikada EIZ tashkil etish va rivojlantirishda ularni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar tarkibida transport aloqalarining qulayligi, bozorga yaqinlik, tabiiy resurslarning hamda yuqori malakali va nisbatan arzon ishchi kuchining mavjudligi muhim o'rin egallaydi;

– 2009-2014 yillarda O'zbekistondagi EIZlarda umumiy qiymati 43346,7 mln AQSh dollarini tashkil etgan 40 ta loyiha moliyalashtirildi. Bunda Navoiy EIIZga jami loyihalarning 47,5 foizi, moliyalashtirish hajmlarining esa 64,5

foizi to'g'ri keladi. Bunday holat, hozircha, Navoiy EIIZda investitsiya loyihalarining faol amalga oshirilayotganligini va zona faoliyatining taraqqiyotini ko'rsatadi;

– Angren MIZda faoliyat ko'rsatadigan korxonalarga kiritiladigan investitsiyalar hajmiga qarab 3 yildan 7 yilgacha bo'lgan muddatga keng ko'lamli soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferentsiyalar qo'llaniladi. Ularning infratuzilma ob'ektlari va kommunikatsiyalarga kafolatli ulanishi ta'minlanadi. Bunday imtiyoz va imkoniyatlar, Angrenga temir yo'l borgan va uning elektrlashtirilgani, vodiylar viloyatlariga eltuvchi avtomobil yo'lining talab darajasiga keltirilgani, Angrenning poytaxtga yaqinligi va bu erdan Toshkent shahriga kirmasdan Sirdaryo, Jizzax va boshqa viloyatlarga o'tish imkoniyati mavjudligi sarmoyadorlarning «Angren» MIZga bo'lgan qiziqishini tobora oshirmoqda;

– Angren MIZ hududida amal qiluvchi imtiyozlar va rag'batlantirish omillari, o'z navbatida, Angren MIZsi hududida tashkil etiladigan korxonalar va ishlab chiqarishlar yuqori texnologiyali bo'lishi hamda mintaqaning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanilishini, mineral-xom ashyo resurslarining yanada chuqur qayta ishlanishini, yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan, ichki bozorlarda va jahon bozorlarida raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarilishini, ishlab chiqariladigan mahsulotning ma'lum qismini eksportga etkazib berilishini ta'minlaydi;

– «Angren» MIZning tashkil etilishi shaharda bu boradagi ishlar ko'lamini kengaytirish, sanoat va infratuzilmani yanada rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratishga, pirovardida, mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

III BOB. ANGREN ERKIN IQTISODIY HUDUDIDA INVESTITSIIYA LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1. Erkin iqtisodiy hududlarga investorlarni jalb qilishdagi o'ziga xos muammolar

EIHLarni rivojlantirish jamiyatning turli doiralarida bunday hududlarni tashkil etishning maqsadga muvofiqligi, ularning vazifalari va maqsadlari, joylashtirish mintaqalari va boshqalar to'g'risida qizg'in bahslarni keltirib chiqaradi. Ushbu muhokamalar tabiiy, zaruriy va mamlakat hayotidagi yangi hodisani tasdiqlash jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ilg'or siyosiy va ijtimoiy tashkilotlar, hukumat, alohida siyosiy arboblardan va ishbilarmonlik doiralari vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlash mamlakatda EIHLar kontseptsiyasiga ham hayotiylik, ham ishchanlikni bag'ishlashi mumkin.

Istalangan tashkil etilayotgan zona ishlab chiqilgan kompleks rivojlanish rejasiga, ya'ni barcha xo'jalik ob'ektlarini rivojlantirish, iqtisodiy aloqalarda teng huquqli ishtirok etuvchi xar xil mulkchilik (davlat, kooperativ, aktsiyadorlik, qo'shma, yakka tartibdagi) shakllariga asoslangan yangi ishlab chiqarish munosabatlarini vujudga keltirish rejasiga ega bo'lishi zarur. Dasturning asosiy maqsadi davlat, tijorat va xorijiy kapitaldan, aholi mablag'laridan kompleks foydalanish, ishbilarmonlik, moliyaviy va huquqiy tuzilmalarni faollashtirish asosida zonani dinamik iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishdan iborat bo'lishi zarur⁷⁴.

Amaliyot ko'rsatishicha, istalangan zonaning xaqiqiy faoliyat ko'rsatishi uchun quyidagi tuzilmalarning mavjud bo'lishi zaruratga aylangan:

– dasturning ijrosi uchun mas'ul va boshqaruv organini – zona kengashini shakllantiruvchi yirik aktsiyadorlik jamiyati (davlat ishtirokiga ega);

⁷⁴ Абдурахманов К.Х. Абдуллаев А.М., Дадабаев Ш.Х. Региональная экономика и управление. – Т.: 2007. – Стр. 739.

- MIZ vazifalarini hal etish uchun investitsiyalarni jalb qiluvchi sug'urta investitsion fondi (sug'urta jamiyati);

- MIZ byudjetini shakllantiruvchi, byudjet va kredit mablag'larini ishlatilishini va respublika byudjeti bilan o'zaro munosabatlarni nazorat qiluvchi zona markaziy banki;

- soliqqa tortish, litsenziyalash, bank faoliyati, garov huquqi, kontsessiyalarni taqdim qilish, mehnat va ijtimoiy masalalarni tartibga soluvchi zonaviy qonunchilik.

1991 yilda zonalarni boshqarish, qonuniy-me'yoriy baza va moliyaviy-xo'jalik infratuzilmasini yaratish, loyihalarni amalga oshirish usullarini ishlab chiqish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida EIH Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasining (EIHARA) ta'sis etilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. U 100 dan ortiq ta'sischilarga (viloyatlar, respublikalar, banklar, shaharlar, institutlar) ega.

EIHARA rahbarlarining fikriga ko'ra, EIHlarni tashkil etish va yaxshi faoliyat yuritishi uchun quyidagi dastlabki shart-sharoitlarni ta'minlash zarur:

- katta kapitalga ega, o'z zimmasiga zonani yaratish dasturining ijrosi uchun to'liq moddiy mas'uliyatni oluvchi yirik aksiyadorlik jamiyatlarining (davlat kapitali ishtirok etgan) mavjudligi;

- zonani rivojlantirish vazifalarini hal etish uchun zaruriy hajmda valyuta tushumlarini jalb qilishni ta'minlovchi maxsus garov-sug'urta investitsion fondi (sug'urta jamiyati)ni tashkil qilish;

- zona byudjetini shakllantirishni ta'minlovchi, byudjet va kredit mablag'larini ishlatilishini nazorat qiluvchi, davlat byudjeti bilan o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi zona markaziy bankini yaratish;

- mintaqaviy va davlat darajalarida maxsus zonaviy qonunchilikni ishlab chiqish;

- litsenziyalash, bank faoliyati, garov huquqi, kontsessiyalarni taqdim qilish, mehnat va ijtimoiy masalalarni tartibga solishi;

– zona rahbariyati (masalan, zona kengashi) va mahalliy (mintaqaviy) xokimiyat organlari o'rtasida funktsiyalarni ajratish, ular o'rtasida mulkka egalik va uni taqsimlash, narxni shakllantirish masalalarini hal qilish, soliqqa tortish, litsenziyalash, turli imtiyozlarni taqdim etish tartibi muammolari bo'yicha shartnomaviy munosabatlarni o'rnatish (qabul qilish);

– respublika organlari tomonidan aniq iqtisodiy zonalarini rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash; ushbu dasturlarda EIH tomonidan respublika manfaatlari nuqtai nazaridan hal etiluvchi masalalar ko'zda tutish, davlat kapital qo'yilmalari va subsidiyalari hajmini aniqlash, imtiyozlar va ularni olish muddatlarini o'rnatish;

– mintaqaviy va mahalliy xokimiyat tuzilmalari tomonidan o'zlari ega bo'lgan ma'lum bir huquqlarni, eng avvalo moliyaviy-xo'jalik faoliyat sohasidagi huquqlarni EIHLarni boshqarish organlariga, shuningdek zonalarda joylashgan alohida ishlab chiqarishlar, korxonalar, firmalarga topshirilishi.

EIH tashkil etishda ularning ishtirokchilari – xorijiy va milliy investorlar to'g'risidagi masalani hal etish muhim hisoblanadi. Aynan ishtirokchilar tarkibi mamlakat iqtisodiy hayotida ushbu yangi xo'jalik yuritish shaklining muvaffaqiyatini yoki omadsizligini belgilab beradiki, ular eng avvalo hududlarga sarmoya kiritmoqchi bo'lgan investorlarning reaksiyasiga bog'liq. Jahon tajribasi ko'rsatishicha, EIHLarning loyihachilari, nafaqat, xorijiy va milliy investorlar uchun rag'batlantiruvchi omillarning farqlanishi bilan bog'liq qiyinchiliklarga, balki bunday rag'batlantirishlarning teskari, ba'zan esa o'zaro qarama-qarshi tavsifi bilan bog'liq murakkabliklarga ham duch keladilar. Xorijiy sarmoyador uchun asosiy rag'bat bo'lishi mumkin bo'lgan holat (masalan, ichki bozorga chiqish imkoniyati) milliy sarmoyadorlar uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

EIHLarni tashkil etuvchilarning faoliyatini murakkablashtiruvchi yana bir omil shundan iboratki, ular xorijiy va milliy investorlar tomonidan rag'batlar va qiziqtiruvchi sabablar har xil tushunilishi mumkinligini tasavvur eta olmaydilar. Masalan, hududlarda yaxshi rivojlangan infratuzilma mahalliy investorlar uchun

kapital qo'yilmalar kiritish uchun katta rag'batlantiruvchi kuchga ega bo'lishi mumkin, xorijiy investor uchun esa bunday «rag'bat» zonaga investitsiyalarni kiritish bo'yicha qaror qabul qilishning majburiy dastlabki sharti bo'lib hisoblanadi. Bunda xorijiy investor uchun boshlang'ich qadam bo'lib, hududdagi infratuzilma darajasi emas, balki o'z mamlakatida yoki boshqa xorijiy mamlakatlardagi infratuzilma darajasi va sifati hisoblanadi. Mahalliy investorlar ma'lum bir aniq zonada tashkil etilgan shart-sharoitlarni juda ilg'or va texnik jihatdan zamonaviy deb (masalan, boshqaruv tizimi) qabul qilishlari mumkin bo'lsa, ayni vaqtda xorijiy investorlar ancha keskin qarashlarga ega bo'lishi mumkin. Ushbu ziddiyat engib bo'lmas holat bo'lib, zonalar loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda uni e'tiborga olish zarur⁷⁵.

EIHLarning jozibadorligini baholashdagi tafovutlar xorijiy investorlar bilan «konsensus» imkoniyatini inkor etmaydi. Xorijiy investorni zonada ishtirok etishga qiziqtiruvchi omil bo'lib, infratuzilmaning sifati (bu faqatgina dastlabki shartdir), tovarlar va xizmatlarning boj to'lovisiz import qilinishi, soliqlardan ozod qilish va boshqa imtiyozlar emas, balki ichki bozorga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyati hisoblanadi. Ular uchun, zonada o'z faoliyati natijasida olinadigan mablag'lar hajmi va ulardan foydalanish imkoniyati ham juda muhim ahamiyatga ega. Bu erda muammo foydani, shu jumladan, aylanmadagi mavjud aktsiyalar bo'yicha dividendlarni ham xorijga o'tkazish zaruriyatidan iborat. Ko'pgina firmalar ushbu masalani hal etmasdan turib, EIHLarga jiddiy kapital qo'yilmalar kiritishdan o'zlarini tiyib turadilar.

EIHLarga to'g'ridan-tug'ri xorijiy investitsiyalarni xorijiy firmalarning asta-sekin milliy iqtisodiyotga integratsiyalashuv usuli sifatida qarash mumkin. Shu sababli EIHni rejalashtirish bosqichidayoq chet el firmalarining mahalliy tadbirkorlar bilan bevosita va teskari aloqalarini o'rnatish imkoniyatlarini ko'zda tutish zarur. Bunday aloqalar mahalliy xom ashyo tovarlarini, komponentlarni, yarimfabrikatlarni, majmuaviy asbob-uskunalarni va xizmatlarni olish

⁷⁵ Mahmudov N.M., Eshov M.P va boshqalar. Jahon iqtisodiyotiga integratsiya. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2011. 200-b.

imkoniyatini ta'minlashi zarur. Mahalliy resurslarga ega bo'lish imkoniyati xorijiy investorlar uchun muhim stimul hisoblanadi. Biroq zonada faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy investorlar uchun bunga amalda erishish ancha qiyin bo'lishi va katta vaqtni talab etishi mumkin. Mazkur omilga katta e'tibor bergan holda, zona loyihachilari quyidagi jihatlarni hisobga olishga urinadilar:

– birinchidan, xorijiy investorlar tomonidan xarid qilinishi mumkin bo'lgan ko'pgina mahalliy resurslar mamlakatda kamyob hisoblanadi. Xorijiy investorlarning bozorga kirib kelishi natijasida talabning o'sishi esa vaziyatni yanada keskinlashtirishi mumkin. Agar gap yaqin istiqbol to'g'risida ketayotgan bo'lsa, xorijiy investorlar o'z shaxsiy manfaatlariga bo'ysunib, resurslar evaziga yuqoriroq narxlar to'lab, ushbu tanqislikni bartaraf etishlari mumkin. Lekin bu inflyatsiya jarayonlari rivojlanishini tezlashtirishi va mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan boshqa firmalar uchun resurslar tanqisligi muammosini keskinlashtirishi mumkin. Uzoq muddatli rejada zonada faoliyat yuritayotgan firmalar tomonidan qo'shimcha talab mahalliy tovar etkazib beruvchilarni ushbu yangi talabni qondirish uchun ishlab chiqarish quvvatlarini ko'paytirishga majbur etadi. Lekin bunday jarayon bir necha yil davom etadi;

– ikkinchidan, mahalliy resurslarning sifati va texnologik darajasi xorijiy firmalar tomonidan ushbu resurslarga bildirilayotgan standartlarga mos kelmasligi mumkin. Ushbu muammoga xorijiy investorlar mahalliy resurslardan foydalangan barcha hollarda duch keladilar. Vaqt o'tishi bilan mahalliy tovar etkazib beruvchilar asta-sekin o'z ishlab chiqarishining texnologik darajasini ko'tarib boradilar. Biroq ushbu texnologik takomillashtirish avtomatik ravishda ro'y bermaydi. Agar texnologiya darajalari o'rtasidagi tafovut katta bo'lsa, xorijiy investorlar mahalliy tovar etkazib beruvchilar bilan aloqalarni uzishga va zonadagi faoliyatini o'zining an'anaviy etkazib beruvchilariga tayangan holda davom ettirishga qaror qilishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, erkin zonalaridagi xorijiy firmalar va undan tashqarida faoliyat yuritayotgan mahalliy korxonalar o'rtasida iqtisodiy va texnologik aloqalarni o'rnatish usullari, stimullari va tashkiliy shakllari tizimi zarur;

– uchinchidan, erkin zonalarida faoliyat yuritayotgan xorijiy firmalar va mahalliy korxonalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni o'rnatish uchun kerakli xarajatlar miqdori va darajasini hisobga olish zaruriyati. Mahalliy firmalar o'ylamasdan xorijiy firmalarni, xaridorning texnik standarlariiga mos keluvchi va etarli miqdorda mavjud bo'lgan tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlaydi, degan fikrga borish noto'g'ridir. Bunday vaziyat kamdan-kam uchraydi. Bu esa zonadan tashqrida faoliyat yurituvchi mahalliy korxonalarni ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga va texnologik darajasini ko'tarishga, shuningdek ushbu korxonalar va zonada faoliyat yuritayotgan xorijiy firmalar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarini ta'minlashga jiddiy sarmoyalar kiritish zarurligini anglatadi. Bunday investitsiyalar butun iqtisodiyotga foyda keltiradi (agar shunday yo'l bilan rivojlangan firmalar tovarlar va xizmatlarni mahalliy bozorga ham etkazib bersa). Ushbu muammoni hal qilish, balki avval ko'zda tutilmagan moliyaviy xarajatlarni talab etadi, bu esa EIHlarni tashkil qilishga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini ko'paytiradi.

Yuqorida ko'rsatilgan muammolarning mavjudligi – xom ashyo resurslari va moliyalashtirishning etishmasligi, mahalliy korxonalarning past texnik darajasi, mahalliy tovarlar va xizmatlarning past sifati erkin zonada faoliyat yuritayotgan xorijiy firmalar va undan tashqaridagi mahalliy korxonalar o'rtasida aloqalarni o'rnatish masalasini hal etishning murakkabligini belgilaydi. Bundan kelib chiqadiki, dastlabki bosqichlarda mahalliy bozorlarga kirish imkoniyati potentsial xorijiy investorlar uchun kuchli sabab bo'la olmaydi. Shunga qaramay, uzoq muddatli istiqbolda mahalliy resurslarga ega bo'lish imkoniyati ular uchun muhim omil bo'lishi mumkin.

EIHLarda xorijiy firmalarni mahalliy resurslar bilan ta'minlashni rivojlantirish uzoq muddatli tadbirlar toifasiga kiradi va potentsial investorlarning xech bo'lmaganda kamchiligi bunday resurslarni ishlab chiqishda ishtirok etishga hozirligiga shubha qilmaslik kerak. Zonalarning loyihachilari ko'pincha EIHLarning xorijiy ishtirokchilari uchun asosiy ustunliklardan biri bo'lib, EIH tashkil qiluvchi mamlakat hukumati tomonidan

berilgan moliyaviy yoki boshqa stimullar darajasi hisoblanadi, deb o'ylaydilar. Haqiqatan ham birinchi EIHlarni tashkil etishda shunday bo'lgan edi. Biroq o'tgan o'n yilliklar mobaynida jahonda zonalarining soni shunchalik ko'payib ketdiki, xorijiy investorlar uchun nisbiy ustunliklar (soliq imtiyozlari, subsidiyalar, importni bojxona to'lovlaridan ozod qilish, qisman bojsiz eksport qilish va boshqalar) ko'p hollarda, balki butunlay o'zining rag'batlantiruvchi xususiyatlarini yo'qotdi⁷⁶.

EIHlar mavjud bo'lgan yoki ularni tashkil qilish istagida bo'lgan barcha mamlakatlar deyarli bir xil imtiyozlar berar ekan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun ushbu imtiyozlardan asosiy rag'bat sifatida foydalanmoqchi bo'lgan mamlakat boshqa mamlakatlarga nisbatan ko'proq imtiyozlar berishi kerak. Bu moliyaviy jihatdan mamlakat uchun shunchalik qiyin bo'ladiki, ushbu zonalarini tashkil qilishning umumiy iqtisodiy va moliyaviy maqsadga muvofiqligini shubha ostiga qo'yadi. Zonalarda taqdim etiladigan imtiyozlarni ikkita guruhga ajratish mumkin.

1. Umumiy imtiyozlar (odatda, barcha mamlakatlar tomonidan taqdim etiladi):

- tovarlar va xizmatlarning bojxona to'lovisiz import qilinishi;
- 15 yillik davrgacha soliqlar to'lashdan ozod qilish;
- bilvosita subsidiya sifatida firma tasarrufiga obodonlashtirilgan hududni berish.

2. Maxsus imtiyozlar (aniq mamlakat tomonidan taqdim etiladi):

- foyda solig'idan foizli chegirma (50 % gacha);
- firmalarga mamlakat tashqarisidagi xarajatlarini qoplash uchun maxsus subsidiyalar;
- xorijiy firmalarga mahallliy ishlab chiqarilgan asbob-uskunalar xaridi uchun chegirma.

⁷⁶ Рыбаков С.А. Особые экономические зоны в России. Налоговые льготы и преимущества. – М.: «Вершина», 2006. – Стр. 248.

Umumiy imtiyozlar guruhidagi ko'pgina imtiyozlar amalda shunchaki hisoblanadi va miqdoriy jihatdan nolga teng. Masalan, soliq to'lash bo'yicha 10 yillik imtiyozli davrning berilishi davlat byudjeti uchun moliyaviy yo'qotish hisoblanmaydi, chunki bunday imtiyoz bo'lmaganda, investorni balki zona qiziqtirib qolmasdi. Tajriba ko'rsatishicha, maxsus imtiyozlar xorijiy firmalarning zonalarda ishtirok etish to'g'risidagi qaror qabul qilish jarayonida faqat ikkinchi darajali rolni o'ynaydi. Juda yaxshi holatlarda bunday imtiyozlar juda kam, ko'pincha amalga oshirilmaydigan qo'shimcha foyda keltiradi. Shu bilan birga, maxsus imtiyozlarni joriy qilish uchun xarajatlar salmoqli bo'lishi mumkin, chunki ulardan ko'p sonli potentsial firmalar foydalanishi mumkin.

Jahon EIHlar bozoridagi raqobatda ishtirok etmoqchi bo'lgan mamlakat jahon talablari darajasida yoki undan ham yuqori darajada stimullar va imtiyozlar taqdim etishi zarur. Jahon zonalar bozorida bunday yondashuv zonalardagi mavjud iqtisodiy ustunliklarga nisbatan ham qo'llaniladi⁷⁷.

Jahon tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, hech bir zona tegishli infratuzilmasiz, ya'ni obodonlashtirilgan hudud, telkommunikatsiya tarmog'i, suv, elektroenergiya, aeroportga chiqish, mahalliy va xorijiy xodimlar uchun uy-joy sharoitlarisiz muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata olmaydi. Investorlar tomonidan 15-20 yil oldin nisbiy ustunlik deb baholangan sharoitlar (yaqin joylashgan xalqaro aeroport, yaxshi telefon aloqasi) hozirgi paytda boshlang'ich shartlar hisoblanadi, ular qondirilmagan hollarda xorijiy firma zonada ishtirok etish masalasini xatto ko'rib chiqmaydi ham. Moddiy va iqtisodiy imtiyozlarni asta-sekin o'rtacha ko'rsatkichlarga keltirish shuni tasdiqlaydiki, taqdim etilayotgan ikki guruh imtiyozlari zonalarga xorijiy investorlarni jalb qilish uchun uzoq vaqt jiddiy sabab bo'la olmaydi. Ular investor tomonidan sarmoyalar kiritish yoki kelgusida sarmoyalar kiritish to'g'risidagi ijobiy qaror qabul qilish uchun faqat dastlabki shart bo'la oladi. Kapitalni zonaga kiritish

⁷⁷ Рыбаков С.А. Особые экономические зоны в России. Налоговые льготы и преимущества. – М.: «Вершина», 2006. – Стр. 248.

to'g'risidagi oxirgi qaror investorning taktik va strategik fikr-mulohazalariga bog'liq bo'ladi.

Agar avval boshidanoq zonalar, ularda ham xorijiy, ham mahalliy korxonalarni joylashtirishga yo'naltirilishiga tayanadigan bo'lsak, zonalarga milliy firmalarni va investorlarni jalb qilish shartlarini ham ishlab chiqish zarur. Birinchi qaraganda, milliy investorlarni jalb qilish unchalik qiyin emasday ko'rinadi, chunki ular zonada taqdim etilgan rivojlangan infratuzilmadan va imtiyozlardan foydalanishdan manfaatdor. Biroq amaliyot ko'rsatishicha, butunlay boshqacha holat ham bo'lishi mumkin. Milliy investorlar ko'pincha kutishni, yoki dastlabki vaqtlarda qiziqish bildirib, so'ngra zonada ishtirok etishdan voz kechishi mumkin. Buni shunday tushuntirish mumkinki, ular uchun zonada mahalliy firmalarga notanish bo'lgan ish sharoitlarida faoliyat yuritish qiyinchiliklari zonaning real afzalliklaridan ustun kelishi mumkin. Ular uchun o'zlari foydalanib turgan ishlab chiqarishni tashkillashtirish va boshqarish usullaridan yangi ishlab chiqarish, texnologik va tashkiliy sharoitlarda ishlash usullariga o'tish juda qiyin kechishi mumkin.

Shunday qilib, EIHlar loyihasini ishlab chiqishda, mazkur EIHda muvaffaqiyatli ish faoliyati yuritishi mumkin bo'lgan mahalliy korxonalarni jalb qilish masalasiga etarlicha e'tibor berish zarur⁷⁸.

Jahon iqtisodiy tizimida EIZlarni tashkil qilinishi va faoliyat ko'rsatishi bo'yicha to'plangan ulkan tajribaga qaramay, amaliyot tasdiqlashicha, hozirgi vaqtga qadar bunday o'ziga xos milliy-xalqaro xo'jalik tuzilmalarining universal iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqilmagan. Bu eng avvalo, EIHlarni tashkil qilish turli maqsadlarga egaligi tufayli ularda turli iqtisodiy sharoitlar va cheklovlar mavjudligiga asoslanadi. Ayni vaqtda jahonning turli mintaqalarida o'nlab va yuzlab EIHlar shakllantiriladi. Ob'ektiv ravishda ular orasida zonalararo raqobat yuzaga keladi va qulay investitsion muhitni tashkil qilish va ushbu zonalarga

⁷⁸ Nazarova G.G., Xalilov X.X. va boshqalar. Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. T.: TDIU, 2011. 68-b.

xorijiy va milliy investorlarni jalb qilish maqsadida stimullar va soliq imtiyozlarni unifikatsiya qilish tendentsiyasini namoyon etadi.

3.2. Angren erkin iqtisodiy hududida investitsiya loyihalarini amalga oshirish istiqbollari

Muqaddirlar yillarida mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, pirovardida iqtisodiyotni modernizatsiyalash, taraqqiy ettirish, makroiqtisodiy barqaror rivojlanishiga erishish hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita bog'liqdir. Biz buni dunyoning rivojlangan davlatlarida xududlar taraqqiyoti orqali yuqori ko'rsatkichlarga erishayotganligini xorijiy tajribalarni o'rganish jarayonida ko'rishimiz mumkin.

Mamlakat, xususan, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti asosan ularning sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish evaziga taminlanadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan bir sharoitda hududlarda yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek hududning ishlab chiqarish va resurslar salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish, shu asosda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi daromadlarini yanada ko'paytirish bugungi kunning dalzarb masalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda Toshkent viloyatining barcha hududlari va Angren MIZda yangi sanoat korxonalarni barpo etish, mavjudlarini qayta tiklash bo'yicha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni samarali joylashtirish natijasida eksportbop tovarlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish borasidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2013-2015 yillarda Toshkent viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish Dasturi to'g'risida»gi qarorini samarali bajarilishiga ta'sir etuvchi omillar va moliyaviy resurslardan unumli foydalanish borasidagi masalalar to'liq tahlil etilmagan.

Mamlakatimizda sanoat korxonalarini rivojlantirish bo'yicha barcha xuquqiy-me'yoriy asoslar yaratilgan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 15 dekabrda «2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 21 dekabrda «2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirish to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 29 iyunda «2011-2013 yillarda sanoat kooperatsiyasi negizida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27 dekabrda «Yangi turdagi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishini kengaytirish va o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 18 noyabrda «O'zbekiston Respublikasining 2015 yil investitsiya dasturi to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2013-2015 yillarda Toshkent viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi qarori, hudud va tarmoqlarni taraqqiy ettirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ko'pgina qarorlari va sohaga oid O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining ko'plab qarorlari qabul qilinganligini ta'kidlash mumkin.

Natijada 2014 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi. 2014 yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSh dollari hisobida 14,6 milliard dollarni tashkil etdi. Jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig'i

ishlab chiqarish sohasiga va qariyb 40 foizi mashina va uskunalar xarid qilishga sarflandi⁷⁹.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyati mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo'lmoqda. 2014 yilda iqtisodiyotimizning etakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4 milliard 200 million dollarga teng bo'lgan 154 ta yirik ob'ekt foydalanishga topshirildi.

Yuqorida keltirilgan dalil va raqamlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va xukumatimiz tomonidan yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy siyosatni naqadar to'g'riligidan dalolat beradi.

Qayd etish joizki, Toshkent viloyatida iqtisodiyotimizning etakchi tarmog'i bo'lmish sanoat sohasi yuqori darajada rivojlangani hammamizga yaxshi ma'lum. Bugungi kunda viloyatning mamlakatimiz sanoatidagi ulushi, Toshkent shahri bilan qo'shib hisoblaganda, 33,5 foizni tashkil etishi ham shuni tasdiqlab beradi. Umuman olganda, mamlakatimiz bo'yicha yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning 9,6 foizi, sanoat mahsulotlarining 12,4 foizi, xizmatlarning 9,4 foizi aynan Toshkent viloyati hissasiga to'g'ri kelishi uning katta ishlab chiqarish salohiyatiga ega ekanini ko'rsatadi.

Vohada yoqilg'i-energetika majmuasi, kimyo va neft-kimyo, qurilish industriyasi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha iqtisodiyotimizning lokomotivi bo'lgan yirik ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yuritmoqda. Bunga misol qilib, AQShning mashhur «Jeneral Motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda barpo etilgan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hududida noyob hisoblangan avtomobil dvigatellari ishlab chiqaradigan zamonaviy zavodni, Chirchiq, Olmaliq, Bekobod shaharlaridagi yirik sanoat

⁷⁹ <http://uza.uz>. sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

majmualarini keltirish mumkin. Bu korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni, nafaqat, mintaqamiz, balki chet ellarda ham xaridorlar yaxshi biladi va tan oladi.

Angren MIZ faoliyatini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2013-2015 yillarda Toshkent viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish Dasturi to'g'risida»gi qarori⁸⁰ muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu dastur ijrosi asosida viloyatdagi ishlab chiqarish salohiyati va mavjud resurslardan samarali foydalanilmoqda, sanoatni barqaror o'sishini ta'minlash maqsadida ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beruvchi yuqori texnologiyali sanoat shakllantirilmoqda. Sanoati kam rivojlangan Bekobod, Quyichirchiq, Yuqorichirchiq, O'rtachirchiq, Bo'ka, Pskent va Oqqo'rg'on tumanlarida ishlab chiqarish jadal rivojlantirilmoqda. Faoliyat yuritmayotgan, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan mavjud sanoat korxonalarini sog'lomlashtirish yoki faoliyat turini o'zgartirish hisobiga to'liq quvvatda ishlashi ta'minlanmoqda.

Shuningdek, «Angren» MIZda ishlab chiqarishni rivojlantirish hisobiga barcha tarmoqlarda, ayniqsa, mashinasozlik, metallurgiya, qurilish materiallari, elektrotexnika, kimyo va neft sohasida yangi quvvatlarni tashkil etish, mavjud sanoat korxonalarini modernizatsiyalash va kengaytirish maqsadida investitsiyalar, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilmoqda. Raqobatbardosh bo'lgan nooziq-ovqat iste'mol tovarlari, ayniqsa to'qimachilik, tikuv, trikotaj, charm-poyabzal va farmatsevtika mahsulotlarini keng assortimentda ishlab chiqarish hisobiga sanoat mahsulotlaridagi tayyor mahsulotlar ulushi ko'paytirildi. Dasturda ommaviy savdolarida tanlov asosida «nol» qiymatda sotilishi, shuningdek belgilangan tartibda buzilishi mo'ljallangan davlat tasarrufidagi bo'sh turgan va foydalanilmayotgan ob'ektlar bo'yicha chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirilishi orqali:

⁸⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 12 iyuldagi «2013-2015 yillarda Toshkent viloyati sanoat salohiyatini oshirish Dasturi to'g'risida»gi PQ-2000-sonli Qarori.

– birinchidan, viloyat sanoatida 2,2 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalar, shu jumladan, 602 million AQSh dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar jalb etish hisobiga 302 ta investitsiya loyihalari amalga oshiriladi va 11040 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi;

– ikkinchidan, faoliyat yuritmayotgan, past rentabelli 36 ta sanoat korxonalari va bo'sh turgan binolar faoliyati qayta tiklash uchun viloyat iqtisodiyotiga 18,8 million AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritilib, 915 ta yangi ish o'rinlari vujudga keladi.

– uchinchidan, davlat tasarrufidagi 94 ta bo'sh turgan ob'ektlarni ommaviy savdolarida «nol» qiymatda sotish, shuningdek 28 ta ob'ektni belgilangan tartibda buzish hisobiga yuqori texnologiyali va energiyani tejovchi zamonaviy dastgohlarga ega bo'lgan sanoat korxonalari tashkil etiladi.

Dasturni amalga oshirish natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2015 yilda 2012 yilga nisbatan 24,3 foizga o'sadi, shuningdek nooziq-ovqat iste'mol tovarlari 44,2 foizga, qurilish materiallari ishlab chiqarish 38,9 foizga, sanoat-texnikaviy yo'nalishdagi korxonalar mahsuloti 18,5 foizga o'sishi ta'minlanadi.

Angren MIZda loyiha qiymati 155,3 million AQSh dollariga teng bo'lgan 8 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Bu mingdan ziyod ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Ayniqsa, kelgusida Angren-Pop yo'nalishida yangi temir yo'l qurilishi, nafaqat, Agren MIZsi, balki butun Toshkent viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi eng kuchli omillardan biri bo'ladi.

Rejalashtirilgan investitsiya loyihalarini, nafaqat, sanoat markazlarida, balki ishlab chiqarish kam rivojlangan, tog'li chekka qishloq tumanlarida amalga oshirishga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, Bo'stonliq tumanidagi «Bo'stonliq Plasteks» korxonasi negizida loyiha qiymati 14,5 million AQSh dollariga teng, yiliga 7 ming tonna ip kalava ishlab chiqarishga mo'ljallangan zamonaviy korxonani ishga tushirish natijasida 350 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi. Loyihani amalga oshirish uchun Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining 10 million AQSh dollari kredit mablag'lari va 4,5 million AQSh

dollari korxonaning o'z mablag'lari jalb etildi. Pskent tumanidagi «Toxirjon qurilish savdo» korxonasi negizida loyiha qiymati 1,2 million AQSh dollariga teng, yiliga 2 million dona trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan zamonaviy korxona ishga tushiriladi. Buning uchun Aloqabankning 450 ming AQSh dollari kredit mablag'lari, korxonaning 300 ming AQSh dollari o'z mablag'lari hamda 450 ming dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilib, 420 ta yangi ish o'rinlarini yaratish ko'zda tutilgan. Yuqorichirchiq tumanidagi «TTG» xorijiy korxonasi negizida 40,0 mln. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya jalb etilib, yiliga 7,5 mln. kv. metr mato va 5 mln. dona tikuv mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan zamonaviy korxona ishga tushiriladi. Natijada mahalliy aholidan yana 200 kishi ish bilan band bo'ladi. O'rtachirchiq tumanidagi «To'ytepa metall qurilmalari» korxonasining o'z mablag'laridan 4,2 million AQSh dollari sarflanib, quvvati yiliga 5 ming dona metall konstruksiyalari ishlab chiqarish darajasiga etkaziladi va qo'shimcha 250 kishi ish bilan ta'minlanadi. Ohangaron tumanidagi «TIAT Ceramic» xorijiy sho'ba korxonasi negizida loyiha qiymati 17,6 million AQSh dollariga teng bo'lgan va yiliga 510 ming dona sanitar-keramika mahsulotlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan zamonaviy korxona 100 foiz xorijiy investitsiyalar jalb qilish xisobiga ishga tushiriladi va 300 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Angren shahrida 35,5 million AQSh dollariga teng bo'lgan va yiligi 8 ming tonna har xil turdagi mis trubalar ishlab chiqarishga mo'ljallangan zamonaviy korxona ishga tushirilishi munosabati bilan 183 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi. Ushbu loyihani amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarning 10,3 million AQSh dollari Olmaliq kon-metallurgiya kombinati hamda 25,2 million AQSh dollari Ipotekabankining kredit mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Hozirgi kunda ushbu korxona qurib bitkazilib, ishga tushirildi va 100 dan ortiq aholi ish bilan band bo'ldi.

Ana shulardan kelib chiqib, mamlakatimizda hududlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, EIZning boshqa turlarini ham tashkil etish foydadan holi emas. Masalan, Angren hududida texnoparklarning tashkil etilishi

faqatgina yuqori texnologik ishlab chiqarishlarning paydo bo'lishiga olibgina kelmasdan, balki O'zbekiston eksportining diversifikatsiyalanishini ham ta'minlagan bo'lar edi. Chet el kapitali ishtirokidagi texnoparklar katta xalq xo'jalik samarasini berishi mumkin: yuqori texnologik mahsulotni eksporti hisobiga qo'shimcha valyuta mablag'lari oqimini ta'minlash; milliy sanoatni rivojlanishiga ko'maklashish. Bundan tashqari, hududlar harbiy sohalar konversiyasi va bandlik muammolarini bir qadar kamaytirishi mumkin.

Boshqa bir strategik yo'nalish – O'zbekistonning transport-geografik joylashuvidan va portlarga chiqishdan unumli foydalanish masalasi. Lekin barchamizga ma'lumki, O'zbekiston O'rta Osiyoning markazida joylashgan va hech qanday dengiz yo'llariga chiqish imkoniyati yo'q. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston transport va havo yo'llaridan foydalanishi mumkin. Albatta, havo yo'lidan foydalanish biroz ko'p harajat talab qiladi. Shunday ekan, O'zbekiston geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda, avtomobil va temir yo'llardan samarli foydalanishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Keng tarmoqli erkin bojxona hududlarini tashkil etish O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasini tezlashtiribgina qolmasdan bu erga tovarlar va kapitallarning katta oqimini ham jalb etgan bo'lar edi. Hozircha esa bu oqimlar qora dengiz bo'yi va Osiyo-Tinch okeani hududidagi shunga o'xshash hududlarga yo'nalgan.

Nihoyat, tabiiy resurslarga boy bo'lgan, lekin imtiyozli geografik joylashuvga ega bo'lmagan hududlar bir qancha yirik kontsessiya uchastkalariga aylantirilishi mumkin. Bu erlarda asosiy etibor an'anaviy EIHlardagi chet el investorlari uchun soliq imtiyozlariga emas, balki chet el kapitalini oqimining boshqa mahalliy sanoat sohalari va ijtimoiy sohaga jalb etilishini ta'minlovchi mahsulotni taqsimlash shkalasi yaxshi ishlab chiqilgan uzoq muddatli investitsion kontsessiya shartnomalarini tuzishga qaratish lozim.

Shu bilan bir vaqtda iqtisodiy qoloq hududlarda, ayniqsa, shahar va shahar atroflarida xuddi AQSh, Buyuk Britaniya va Frantsiyada bo'lgan hududlarga o'xshash tadbirkorlik hududlarini tuzish dolzarb va istiqbolli yo'nalishdir.

Angren MIZga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish istiqbolda quyidagi ishlab chiqarish sohalari taraqqiyotini ta'minlaydi:

- kimyo va neftkimyo sanoati;
- qurilish materiallari sanoati;
- farmatsevtika va tibbiyot vositalari sanoati;
- terini qayta ishlash va charm sanoati;
- oziq-ovqat sanoati.

Bunda Angren MIZda kichik biznes sub'ektlariga zonada belgilangan imtiyozlardan foydalanishda investitsiya hajmini kamaytirish, masalan, eng kamida 300 ming AQSh dollari o'rniga 150 ming AQSh dollari qilib belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu esa yirik korxonalarga xizmat ko'rsatuvchi kichik biznes sub'ektlarining investitsiyalarini zonaga jalb qilishga imkon beradi. Shuningdek, Angren MIZsi rezidentlariga xom ashyo, ehtiyot va butlovchi qismlar etkazib beruvchi mahalliy korxonalarga maxsus imtiyozlar va rag'batlantirish omillarini joriy etilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday holat Angren MIZda faoliyat yuritayotgan chet el kompaniyalari bilan mahalliy korxonalar o'rtasida aloqalar o'rnatilishi, o'z navbatida, mahalliy ishlab chiqarishlarda eksportga yo'naltirilganlik, aholini ish bilan ta'minlash kabilarga olib keladi.

Fikrimizcha, Angren MIZ faoliyatini rivojlantirishda davlat dasturini ijrosini o'z vaqtida ta'minlash uchun mahalliy kengash deputatlari va mutaxassislardan iborat ishchi guruhini tashkil etish, ishchi guruhi kamida oyida bir marta hududda davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha jamoatchilik nazoratini olib borishi; hududda manzilli dasturga kiritilgan investitsiya loyihalarining loyiha hujjatlarini o'z vaqtida tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish, tasdiqlash va uni amalga oshirish bo'yicha jadvallar ishlab chiqishi va ularga qat'iy rioya qilishi; mahalliy xokimiyat va mutasaddi idoralar hamkorligida viloyatdagi faoliyat yuritmayotgan, samarasiz foydalanayotgan, inqirozga yuz tutgan yoki kam quvvat bilan ishlayotgan korxonalar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish bino va erlarini aniqlash, ular negizida

yangi korxonalarni tashkil etish bo'yicha xorijiy va mahalliy investorlarni jalb etish borasidagi tashkiliy hamda texnik ishlarni amalga oshirishi; yangi korxonalar tashkil etayotgan investorlarga joylarda zarur bo'lgan elektr energiya, tabiiy gaz, yo'l kommunikatsiyalari, transport vositalar bilan ta'minlash va boshqa ishlarni o'z vaqtida hal etishga mahalliy xokimiyat va mutasaddi tashkilotlar ko'mak berishni yo'lga qo'yishi; tijorat banklar va kredit beruvchi tashkilotlar mahalliy investorlarga korxonalarni qurish, modernizatsiyalash jarayonlarida hamda asbob-uskunalar xarid qilish uchun kredit mablag'larini o'z vaqtida ta'minlashda ularning mas'uliyatini yanada oshirishi lozim.

Ushbu chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirilishi natijasida davlat dasturini samarali ijro etishga amaliy ko'mak beriladi. Bu, o'z navbatida, ushbu hududda yashayotgan har bir insonning moddiy va ma'naviy jihatdan farovonligi oshishiga olib keladi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa:

– EIHlarga to'g'ridan-tug'ri xorijiy investitsiyalarni xorijiy firmalarning asta-sekin milliy iqtisodiyotga integratsiyalashuv usuli sifatida qarash mumkin. Shu sababli EIHni rejalashtirish bosqichidayoq chet el firmalarining mahalliy tadbirkorlar bilan bevosita va teskari aloqalarini o'rnatish imkoniyatlarini ko'zda tutish zarur. Bunday aloqalar mahalliy xom ashyo tovarlarini, komponentlarni, yarimfabrikatlarni, majmuaviy asbob-uskunalarni va xizmatlarni olish imkoniyatini ta'minlashi zarur. Mahalliy resurslarga ega bo'lish imkoniyati xorijiy investorlar uchun muhim stimuly hisoblanadi. Biroq zonada faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy investorlar uchun bunga amalda erishish ancha qiyin bo'lishi va katta vaqtni talab etishi mumkin;

– xom ashyo resurslari va moliyalashtirishning etishmasligi, mahalliy korxonalarning past texnik darajasi, mahalliy tovarlar va xizmatlarning past sifati erkin zonada faoliyat yuritayotgan xorijiy firmalar va undan tashqaridagi mahalliy korxonalar o'rtasida aloqalarni o'rnatish masalasini hal etishning murakkabligini belgilaydi. Bundan kelib chiqadiki, dastlabki bosqichlarda

mahalliy bozorlarga kirish imkoniyati potentsial xorijiy investorlar uchun kuchli sabab bo'la olmaydi. Shunga qaramay, uzoq muddatli istiqbolda mahalliy resurslarga ega bo'lish imkoniyati ular uchun muhim omil bo'lishi mumkin;

- O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyati mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo'lmoqda;

- Angren hududida texnoparklarning tashkil etilishi faqatgina yuqori texnologik ishlab chiqarishlarning paydo bo'lishiga olibgina kelmasdan, balki O'zbekiston eksportining diversifikatsiyalanishini ham ta'minlagan bo'lar edi. Chet el kapitali ishtirokidagi texnoparklar katta xalq xo'jalik samarasini berishi mumkin: yuqori texnologik mahsulotni eksporti hisobiga qo'shimcha valyuta mablag'lari oqimini ta'minlash; milliy sanoatni rivojlanishiga ko'maklashish. Bundan tashqari, hududlar harbiy sohalar konversiyasi va bandlik muammolarini bir qadar kamaytirishi mumkin;

- Angren MIZga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish istiqbolda quyidagi ishlab chiqarish sohaları taraqqiyotini ta'minlaydi: kimyo va neftkimyo sanoati; qurilish materiallari sanoati; farmatsevtika va tibbiyot vositalari sanoati; terini qayta ishlash va charm sanoati; oziq-ovqat sanoati.

XULOSA

Mamlakatimizda investitsiya siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda zamonaviy yuqori texnologiyali asbob-uskuna va innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko'lamda ishlab chiqarish, eksportga mo'ljallangan va importning o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish, respublikada mavjud xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishda xorijiy investitsiyalar ishtirokini ta'minlash, birinchi galda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishga keng e'tibor qaratilmoqda. Ushbu iqtisodiy o'sish yo'lini qay darajada samara berayotganligini mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan va dunyo hamjamiyatida «O'zbek modeli» deb nom qozongan, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'li naqadar to'g'ri ekanini bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda.

Bugun iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash, shu orqali jahon standartlariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishga erishish xorijiy sarmoyalarni, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish har qanday mamlakat uchun eng dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan masaladir. Albatta, bunday vazifalarni amalga oshirishda EIZlar muhim o'rin tutadi. Bu esa innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, eksport, shuningdek transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish, mahalliy mahsulot va xizmatlarning ichki va tashqi bozorlarda xalqaro sifat, sertifikatlashtirish talablarini joriy etish orqali raqobatdoshligini oshirish, yangi ish joylarini barpo etish, malakali ishchi-muhandislar, xo'jalik va boshqaruv kadrlarini tayyorlash va ular malakasini oshirish kabi bir qator muhim masalalarni hal etish imkonini beradi.

Mamlakatimizning ishlab chiqarish salohiyatini modernizatsiya qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish hamda iqtisodiyotni erkinlashtirish va

modernizatsiyalash, shu orqali jahon standartlariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishga erishish xorijiy sarmoyalarni, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida mamlakatimizning Navoiy, Jizzax va Angren hududlarida industrial zonalar tashkil qilindi.

Mamlakat hududidagi maxsus iqtisodiy rejimga ega bo'lgan, davlat aralashuvi kamaytirilgan, ayni paytda davlatning nazoratidan butkul ozod etilmagan, balki davlat tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning erkin faoliyat yuritishi uchun mamlakatning boshqa zonalarida amal qilmaydigan imtiyoz va rag'batlantirishlar beriladigan zonaga erkin iqtisodiy zona deyiladi.

EIZlarni tashkil etishning muhim jihati ma'lum hudud yoki ishlab chiqarish sohasini iqtisodiy rivojlantirishni rag'batlantirish, shuningdek bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida EIZlardan iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning hududiy uslubi sifatida foydalaniladi.

«Angren» MIZga investitsiya kiritishning ustuvorligi quyidagilardan iborat: «Angren» MIZ hududida alohida soliq rejimi amal qiladi; O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan ipmort qilinadigan asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar va materiallarga bojxona imtiyozlari mavjud; transport-kommunikatsiya aloqasi rivojlangan, «Angren» xalqaro logistika markazi mavjud; ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi mavjud; qulay geografik joyda joylashgan; Markaziy Osiyo va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi bozoriga kirish mumkin.

2009-2014 yillarda O'zbekistondagi EIZlarda umumiy qiymati 43346,7 mln AQSh dollarini tashkil etgan 40 ta loyiha moliyalashtirildi. Bunda Navoiy EIIZsiga jami loyihalarning 47,5 foizi, moliyalashtirish hajmlarining esa 64,5 foizi to'g'ri keladi. Bunday holat, hozircha, Navoiy EIIZsida investitsiya loyihalarining faol amalga oshirilayotganligini va zona faoliyatining taraqqiyotini ko'rsatadi.

Angren MIZsida faoliyat ko'rsatadigan korxonalarga kiritiladigan investitsiyalar hajmiga qarab 3 yildan 7 yilgacha bo'lgan muddatga keng

ko'lamli soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferentsiyalar qo'llaniladi. Ularning infratuzilma ob'ektlari va kommunikatsiyalarga kafolatli ulanishi ta'minlanadi. Bunday imtiyoz va imkoniyatlar, Angrena temir yo'l borgani va uning elektrlashtirilgani, vodiy viloyatlariga eltuvchi avtomobil yo'lining talab darajasiga keltirilgani, Angrenning poytaxtga yaqinligi va bu erdan Toshkent shahriga kirmasdan Sirdaryo, Jizzax va boshqa viloyatlarga o'tish imkoniyati mavjudligi sarmoyadorlarning «Angren» MIZsiga bo'lgan qiziqishini tobora oshirmoqda.

Angren MIZ hududida amal qiluvchi imtiyozlar va rag'batlantirish omillari, o'z navbatida, Angren MIZsi hududida tashkil etiladigan korxonalar va ishlab chiqarishlar yuqori texnologiyali bo'lishi hamda mintaqaning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanilishini, mineral-xom ashyo resurslarining yanada chuqur qayta ishlanishini, yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan, ichki bozorlarda va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishini, ishlab chiqariladigan mahsulotning ma'lum qismini eksportga etkazib berilishini ta'minlaydi.

Angren MIZ hududida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va rivojlantirish maqsadida quyidagi taklif-tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Mavjud qonunchilikka ko'ra Angren MIZsida kichik biznes sub'ektlari eng kamida 300 ming AQSh dollariga teng miqdorda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritgan taqdirda yagona soliq to'lovidan imtiyozlarga ega bo'ladilar. Biroq, yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyoz olishning minimal miqdorining yuqoriligi maxsus iqtisodiy zonada kichik biznes sub'ektlarining iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirishga to'sqinlik qiladi. Shunga ko'ra hamda O'zbekistonda kichik biznes sub'ektlarining mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda Angren MIZda ular faoliyatini rivojlantirish maqsadida yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozlarni qo'llashda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining eng kam miqdorini 150 ming AQSh dollariga ekvivalent etib belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu esa, nafaqat yirik korxonalar, balki bu yirik

korxonalarga xizmat ko'rsatuvchi kichik biznes sub'ektlarining investitsiyalarini jalb qilishga imkon beradi.

2. Angren MIZsi rezidentlariga xom ashyo, ehtiyot va butlovchi qismlar etkazib beruvchi mahalliy korxonalarga maxsus imtiyozlar va rag'batlantirish omillarini joriy etilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday holat Angren maxsus iqtisodiy zonasida faoliyat yuritayotgan chet el kompaniyalari bilan mahalliy korxonalar o'rtasida aloqalar o'rnatilishi, o'z navbatida, mahalliy ishlab chiqarishlarda eksportga yo'naltirilganlik, aholini ish bilan ta'minlash kabilarga olib keladi.

3. Mahalliy xokimiyat va mutasaddi idoralar hamkorligida Angren hududida faoliyat yuritmayotgan, samarasiz foydalanayotgan, inqirozga yuz tutgan yoki kam quvvat bilan ishlayotgan korxonalar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish bino va erlarini aniqlash, ular negizida yangi korxonalarni tashkil etish bo'yicha xorijiy va mahalliy investorlarni jalb etish borasidagi tashkiliy hamda texnik ishlarni amalga oshirishlari zarur. Yangi korxonalar tashkil etayotgan investorlarga joylarda zarur bo'lgan elektr energiya, tabiiy gaz, yo'l kommunikatsiyalari, transport vositalar bilan ta'minlash va boshqa ishlarni o'z vaqtida hal etishga mahalliy xokimiyat va mutasaddi tashkilotlar ko'magida yo'lga qo'yish va ularning bu boradagi mas'uliyatini oshirish kerak.

4. Yirik tijorat banklari tomonidan Angren MIZsi hududi yoki Angren tumani hududida maxsus filiallar tashkil etish va ushbu filiallarning kredit resurslariga bo'lgan talablarini kisha vaqtlarda ta'minlab borish zarur. Maxsus industrial hudud doirasida amal qilayotgan imtiyozlar bilan bir qatorda tashkil qilingan bank filiallari uchun davlat tomonidan muddatli maxsus imtiyozlar tizimini ishlab chiqish hamda Angren MIZ hududida faoliyat yuritayotgan bank filiallariga aholi va tashkilotlarning bo'sh pul mablag'larini jalb qilish uchun maxsus rag'batlantirish omillarini tashkil qilish zarur.

5. Angren MIZsida amalga oshirilishi rejalashtirilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

mablag'larini faol jalb qilish (hamkorlikda moliyalashtirish) maqsadga muvofiqdir. Bu esa loyiha bo'yicha risklarni pasaytirish, loyiha ishtirokchilari mas'uliyatini oshirish orqali loyihaning samarali ro'yobga chiqishini ta'minlaydi.

6. Angren MIZsida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini monitoring qilish tizimini kuchaytirish zarur. Bunda investitsiya loyihalari biznes-reja ko'rsatkichlarining realizatsiya davridagi ko'rsatkichlarga mosligini nazorat qilish, investitsiya loyihasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar ijrosini uzluksiz ravishda kuzatib borish, loyiha biznes-reja ko'rsatkichlarining realizatsiya davridagi ko'rsatkichlarga mosligini tahlil qilish hamda loyihani amalga oshirishda yuzaga kelgan salbiy holatlarni bartaraf etishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish kabilarga alohida e'tibor berish zarur.

7. Angren MIZsida yaratiladigan mahsulotlar tarkibida mahalliy komponentlar ulushi yuqoriroq bo'lishini ta'minlash lozim. Buning uchun zonadagi loyihalarda mahalliy xom ashyoning minimal ulushi ishlab chiqarish turiga qarab belgilab qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxining arzonlashishiga, shu orqali xarajatlarning iqtisod qilinishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 apreldagi «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi Qonuni.
2. «Chet el investitsiyalari to'grisida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 30 aprel 1998 yil.
3. «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'grisida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 30 aprel 1998 yil.
4. «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2014 yil 9 dekabr, O'RQ–380-son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari,

Vazirlar Mahkamasining qarorlari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrda «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida»gi PF-4059-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi «To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4434-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 apreldagi ««Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi PF-4436-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 18 martdagi ««Jizzax» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi PF-4516-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi «O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PF-4609-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 yanvardagi

«Investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-554-sonli Qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda ««Angren» erkin industrial zonasi hududida rezinotexnika buyumlari zavodi qurilishini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2269-sonli Qarori

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 12 iyuldagi «2013-2015 yillarda Toshkent viloyati sanoat salohiyatini oshirish Dasturi to'g'risida»gi PQ-2000-sonli Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 21 dekabrda «2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'grisida»gi PQ-1442-sonli Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 29 mayda «Angren» maxsus industrial zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 146-sonli qarori

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 17 avgustda «2013-2015 yillarda «Angren» maxsus industrial zonasining transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 247-sonli qarori

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 3 oktyabrda «Investitsiya loyihalarini tanlab olish va «Angren» maxsus industrial zonasi qatnashchilarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 282-sonli Qarori

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 29 mayda «Angren» maxsus industrial zona hududida turli diametrli mis quvurlar ishlab chiqarishni tashkil etish» investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 146-sonli qarori

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 26 avgustda «Maxsus industrial zonalar qatnashchilariga er uchastkalari berish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi 234-sonli Qarori.

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4

avgustdagi «Istiqbolli investitsiya takliflarini kelishish mexanizmini hamda xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

20. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1995. – 256 b.

21. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: «O'zbekiston», 2010. – B. 57.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi: 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir // «Xalq so'zi» gazetasi, 2015 yil 17 yanvar, №11.

IV. Asosiy adabiyotlar

23. Abduraxmanov K.X., Abdullaev A.M., Dadabaev Sh.X. Regionalnaya ekonomika i upravlenie. T.: 2007. – 739 s.

24. Андрианов В.Д. Россия: экономический и инвестиционный потенциал. – М.: «Экономика», 1999. – 640 с.

25. Бузова И.А., Махавикова Г.А., Терехова В.В. Коммерческая оценка инвестиций / под ред. Есипова В.Е. – СПб.: «Питер», 2004. – 326 с.

26. Бизнес-план инвестиционного проекта: Отечественный и зарубежный опыт. Современная практика и документация: Учеб. пособие. – М.: «Финансы и статистика», 2002. – 432 с.

27. Vahobov A. va boshq. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. / Mual.: A.Vahobov, N.Jumaev, U.Burxanov. – T.: «Sharq», 2003. – 456 b.

28. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya», 2010. – 328 b.

29. Vaxobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: «Noshir», 2011. – 900 b.
30. Вахрин П.И., Нешиной А.С. Инвестиции: Учебник. – 3-е изд., перераб. И доп. – М.: «Дашков и К», 2005. – 286 с.
31. Данько Т., Округ З. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве: Учеб.пособие //Российская экономическая академия им. Г.В.Плеханова. – Москва: «ИНФРА-М», 1998. – 168 с
32. Друзик Я.С. Свободные экономические зоны в системе мирового хозяйства: Учеб.пособие. – Минск: «ФУАинформ», 2000. – 368 с.
33. Зубченко Л.А. Иностраннные инвестиции: Учебное пособие. – Москва: «Книгодел», 2006. – 160 с.
34. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – Москва: «Юнити-Дана», 2005. – 223 с.
35. Инвестиции: учебник/ кол. авторов; под ред. Г.П. Подшиваленко. – М.: «КНОРУС», 2008. – 496 с.
36. Игошин Н.В. Инвестиции. Организация управления и финансирование: Учебник. – М.: «ЮНИТИ», 2007. – 413 с.
37. Игошина Л.Л. Инвестиции. Уч. пос. – М.: «Экономист», 2005. – 256 с.
38. Ковалев В.В. Методы оценки инвестиционных проектов. – М.: «Финансы и статистика», 2002. – 144 с.
39. Комаров В.В. Зоны свободной торговли: крат. слов. – Москва: «Финансы и статистика», 2004. – 156 с.
40. Колмыкова Т.С. Инвестиционный анализ: Учеб. пособие. – М.: «ИНФРА-М», 2010. – 204 с.
41. Колесов В.П., Кулаков М.В. Международная экономика: Учебник. – М.: «ИНФРА-М», 2008. – 520 с.
42. Колтынюк Б.А. Инвестиции. Учебник. – СПб.: «Михайлова В.А». 2003. – 848 с.
43. Ливенцев Н.Н. Международное движение капитала:

(инвестиционная политика зарубежных стран): учеб. для вуз. – Москва: «Экономистъ», 2004. – 367 с.

44. Mahmudov N.M., Eshov M.P va boshqalar. Jahon iqtisodiyotiga integratsiya. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2011. 200-b.

45. Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г. Управление проектами: Учеб. пособие для вузов. – М.: «Экономика», 2001. – 450 с.

46. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya nazariyasi. O'quv qo'llanma / Toshkent Moliya instituti. – T: «Sharq», 2010. – 382 b.

47. Mamatov B.S. va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. Toshkent moliya instituti. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2014. – 608 b.

48. Nazarova G.G',, Xalilov X.X. va boshqalar. Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. T.: TDIU, 2011. 68-b.

49. Нешитой А.С. Инвестиции: Учебник. – 4-е изд. – М.: «Дашков и К⁰», 2006. – 372 с.

50. Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. – T.: «BMA», 2012. – 25 b.

51. Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – Toshkent: «Extremum press», 2013. – 176 b.

52. Рыбаков С.А., Орлова Н.А. Особые экономические зоны в России. – М.: «Вершина», 2006. – 340 с.

53. Rashidov O.Yu. va boshq. Pul, kredit va banklar: Darslik. – T.: «TDIU», 2008. – 432 b.

54. Староверова Г.С. и др. Экономическая оценка инвестиций: учебное пособие. – М.: «КНОРУС», 2006. – 312 с.

55. Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирование инвестиций. – М.: «Финансы и статистика», 2001. – 267 с.

56. Ткаченко И.Ю. Инвестиции : учеб. пособие для студ. высш. учеб.

заведений / И. Ю. Ткаченко, Н. И. Малых. – М.: «Академия», 2009. – 240 с.

57. Ромаш В. М., Шевчук В. И. Финансирование и кредитование инвестиций. Учеб. пос. – Минск: «КНИЖНИЙ ДОМ», 2004. – 160 с.

58. Черняк В.З. Управление инвестиционным проектом в строительстве. – М.: «Русская Деловая Литература», 2007. – 800 с.

59. Шаропов С.А. Свободные экономические зоны. – Москва: «ЮНИТИ-ДАНА», 2005. – 167 с.

60. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: «Moliya», 2003. – 332 b.

61. G'ozibekov D.G'., Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007. – 92 b.

62. Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008. – 208 b.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

63. Abdullaeva Sh.Z. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2005. – 585 b.

64. Чернов В.А. Инвестиционная стратегия: Учеб. пособие для вузов. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2003. – 158 с..

VI. Davriy nashlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

65. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlar hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: Statistik to'plam. – T.: «O'zbekiston». 2011.


66. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2008-2014 гг.

VII. Internet saytlari:

- <http://www.vlasovaandpartners.ru/ru/pub>;
- www.rg.ru;
- <http://21asr.uz/biznes/erkin-i-tisodii-zonalar>;
- <http://www.minjust.uz>;

- www.sizangren.uz;
- www.lex.uz;
- www.gazeta.uz;
- <http://karmana.uz>;
- <http://www.navoi.uz/ru>;
- http://uzbekistan.org.ua/ru/news/economical_news;
- www.stat.uz;
- <http://ru.wikipedia.org/wiki/Uzbekistan>;
- www.uzairways.com/index;
- <http://www.ciriuc.ru>;
- http://portnews.ru/news_list;
- www.railway.uz;
- www.uznature.uz;
- <http://uza.uz>.

Jahon iqtisodiy tizimida erkin iqtisodiy zonalarda qo'llaniladigan bojxona, soliq, moliyaviy va ma'muriy imtiyozlar



O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va ular faoliyatini rag'batlantirishning qo'shimcha omillari

ME'YORIY-HUQUQIY ASOSI	MAQSADI	QABUL QILINGAN CHORA-TADBIRLAR
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 1 iyuldagi «2013-2015 yillarda «Jizzax» maxsus industrial zonasining transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 190-sonli Qarori	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jizzax» maxsus industrial zonasini tashkil etish to'g'risida» 2013 yil 18 martdagi PF-4516-son Farmonini bajarish yuzasidan hamda yangidan tashkil etilgan maxsus industrial zonaga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish, ichki va jahon bozorlarida raqobatbardoshli, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy va yuqori texnologiyali investitsiya loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashadigan va shu asosda yangi ish o'rinlari tashkil etishni ta'minlaydigan ishonchli ishlab chiqarish, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish	1. 2013 - 2015 yillarda «Jizzax» maxsus industrial zonasining transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish dasturi qabul qilindi. 2. «Jizzax» maxsus industrial zonasi uchun avtomobil yo'llari va temir yo'l infratuzilmasi uchastkalarini qurish va rekonstruksiya qilish tadbirlari ishlab chiqildi. 3. «Jizzax» maxsus industrial zonasi uchun suv ta'minoti, irrigatsiya va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish tadbirlari ishlab chiqildi. 4. «Jizzax» maxsus industrial zonasi uchun elektr ta'minoti va gaz ta'minoti tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish tadbirlari ishlab chiqildi.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 dekabrda ««Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasida alohida valyuta rejimi faoliyati tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 341-sonli Qarori	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida» 2008 yil 2 dekabrda PF-4059-son Farmonini bajarish	1. «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasida alohida valyuta rejimi faoliyati tartibi to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi. 2. Ushbu Nizomning amal qilishi faqat «Navoiy» EIIZ direktsiyasi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan faqat «Navoiy» EIIZ hududida amalga oshirilayotgan faoliyatga tatbiq etiladi.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 26 avgustdagi «Maxsus industrial zonalar qatnashchilariga er uchastkalari berish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi 234-sonli Qarori	Maxsus industrial zonalar qatnashchilariga er uchastkalari berishning yagona tartibini belgilash va ularning huquqlarini himoya qilishni ta'minlash	1. Maxsus industrial zonalar qatnashchilariga er uchastkalari berish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 29 maydagi ««Angren» MIZ hududida turli diametrli mis quvurlar ishlab chiqarishni tashkil etish» investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 146-sonli Qarori	Mis xom ashyosini yanada chuqur qayta ishlash hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshli, yuqori qo'shilgan qiymatli, sanoatning yuqori texnologiyali tarmoqlarida barqaror ravishda talab qilinadigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish	1. «Angren» MIZ hududida turli diametrli mis quvurlar ishlab chiqarishni tashkil etish» investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida loyihaning kapital qo'yilmalar hajmi 35,48 mln AQSh dollariga teng bo'lgan miqdordagi texnik-iqtisodiy asoslashi ishlab chiqildi va u vakolatli organlarda belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazildi. 2. Foydalanishga topshirish muddati 2013 yilning IV choragi etib belgilangan «Angren» MIZ hududida turli diametrli mis quvurlar ishlab chiqarishni tashkil etish» investitsiya loyihasi texnik-iqtisodiy asoslashining asosiy texnik parametrlari tasdiqlandi. 3. «Angren» MIZ hududida turli diametrli mis quvurlar ishlab chiqarishni tashkil etish» investitsiya loyihasini amalga oshirish natijasida vujudga kelgan mulkiy kompleks negizida mustaqil yuridik shaxs maqomi bilan «Angren quvur zavodi» unitar korxonasi tashkil etildi.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 2 maydagi ««Jizzax» maxsus industrial zonasi hududida yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 118-sonli Qarori	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jizzax» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida» 2013 yil 18 martdagi PF-4516-son Farmoniga muvofiq yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni, Sirdaryo viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda	1. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan 2013 yil 6 aprelda O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan: mobil telefonlar va ularning akssesuarlari bilan ichki iste'mol bozorini to'liq to'ldirish va ularni eksport qilishni ta'minlash uchun ularni ishlab chiqarish bo'yicha «ZTE (N.K.) Limited» (Xitoy Xalq Respublikasi); akril sanitariya-texnik asboblari va ularning butlovchi buyumlarini ishlab chiqarish, terini qayta ishlashda va charm-poyabzal buyumlari ishlab chiqarishda chiqitsiz texnologiyalarni ta'minlaydigan chorvachilik xom

	samarali foydalanishni ta'minlaydigan zamonaviy yuksak texnologiyali sanoat ishlab chiqarishlarini tashkil etish, shu asosda yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish	ashyosi va ularning ikkilamchi chiqindilarini qayta ishlashning to'liq tsikli zamonaviy liniyalarini tashkil etish bo'yicha «Wenzhou Jinsheng Trade So., Ltd» (Xitoy Xalq Respublikasi) kompaniyalari bilan tuzilgan Investitsiya shartnomalari (keyingi o'rinlarda investitsiya shartnomalari deb ataladi) tasdiqlandi. 2. Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha respublikada ishlab chiqarilmaydigan, chetdan olib kelinadigan: qo'shma korxonalar va «Peng Sheng» mas'uliyati cheklangan jamiyat tomonidan import qilinadigan texnik hujjatlar, mashinalar, maxsus texnika va mexanizmlar, maxsus transport vositalari (engil avtomobillar bundan mustasno), qurilish materiallari va konstruksiyalar yangi ishlab chiqarish komplekslarini qurish davrida; mobil telefonlar va boshqa elektron qurilmalar, sanitariya-texnik buyumlar uchun aralashtirgichlar, berkitish armaturasi va butlovchi buyumlar, hayvonlar va parrandalar uchun ozuqa ishlab chiqarishda, shuningdek chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashda foydalaniladigan hamda qo'shma korxonalar tomonidan import qilinadigan texnologik asbob-uskuna va unga ehtiyot qismlar, xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar 3 yil muddatga bojxona to'lovlaridan ozod qilinsin (bojxona yig'imlari bundan mustasno).
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 3 oktyabrdagi «Investitsiya loyihalarini tanlab olish va «angren» maxsus industrial zonasi qatnashchilarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 282-sonli Qarori	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Angren» maxsus industrial zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2012 yil 29 maydagi 146-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash	1. Investitsiya loyihalarini tanlab olish va «Angren» maxsus industrial zonasi qatnashchilarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 15 maydagi ««Jizzax» maxsus industrial zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 130-sonli Qarori	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jizzax» maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida» 2013 yil 18 martdagi PF-4516-son Farmonini bajarish	1. «Jizzax» maxsus industrial zonasi to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi. 2. «Jizzax» maxsus industrial zonasining Ma'muriy kengashi to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi. 3. «Jizzax» maxsus industrial zonasi direktsiyasining Ustavi tasdiqlandi. 4. Investitsiya loyihalarini tanlab olish va «Jizzax» maxsus industrial zonasi qatnashchilarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 17 avgustdagi «2013-2015 yillarda «Angren» maxsus industrial zonasining transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 247-sonli Qarori	2013-2015 yillarda «Angren» maxsus industrial zonasining transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish	1. «Angren» MIZ qatnashchilari bo'lgan korxonalarga belgilangan asosiy talablarni amalga oshirish uchun kiritilgan investitsiyalar hajmiga ko'ra, 3 yildan 7 yilgacha bo'lgan muddat bilan soliq va bojxona imtiyozlari va preferentsiyalarning keng tizimi berildi, shuningdek, mazkur korxonalarning kommunikatsiyalarga kafolatli ulanishini, kommunikatsiyalarning ishlab chiqarish maydonchalariga etkazilishini ta'minlaydigan tartib belgilandi. 2. 2013-2015 yillarda «Angren» maxsus industrial zonasining transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish dasturi ma'qullandi.